

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Bobir Namozov**

**MILLIY G'OYA TARG'IBOT  
TEXNOLOGIYALARI**

**o'quv qo'llanma**

**“Durdona” nashriyoti  
Buxoro - 2022**

**UO'K 316.75(075)**

**66.0ya73**

**N 23**

Namozov, Bobir

Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari [Matn] : o'quv qo'llanma / B.

Namozov. -Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durдона, 2022.-200 b.

**KBK 66.0ya73**

O'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi - ta'lim tizimining barcha bosqichlari, ommaviy axborot vositalari, nashriy idoralar, adabiyot va san'at odamlarga g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning mafkuraviy vositalari ekani, g'oyaviy ta'sir o'tkazish samaradorligini oshirishda tarixan tarkib topgan bevosita va bilvosita uslublar, bunda inson omili, hayotga tadbiiq etishni aniqlash mezonlari hamda dars (auditoriya) dan tashqari ishlarda yoshlarga g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos usullarini yoritish va milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirish yo'llarini ko'rsatishga qaratilgan. O'quv qo'llanmani tayyorlashda Respublikamizning milliy g'oya va ma'naviy ma'rifiy yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlarning kitob-u risolalari va maqolalaridan keng foydalanildi. Qo'llanma milliy g'oya va mafkura targ'iboti bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi talabalari, magistrlar hamda shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilariga mo'ljallangan.

### **Mas'ul muharrir:**

**H. YU.Salomova**, *falsafa fanlari doktori, professor,*

### **Taqrizchilar:**

**A.Z.Sharipov**, *falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent*

**Zoirov E.X.**, *falsafa fanlari nomzodi, dotsent*

**O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.**

**Ro'yxatga olish raqami 233-0081.**

**ISBN 978-9943-8762-7-9**

# **1-MAVZU: MILLIY G'OYA TARG'IBOTI TEXNOLOGIYALARI: PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

**1."Milliy goya targ'iboti texnologiyalari" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, uning o'ziga xos jixatlari.** Kelajak taqdiriga befarq bo'lmagan har qanday xalq o'ziga izma-iz yurib kelayotgan navqiron avlod tarbiyasi, bu avlodga mustaqil davom ettirib ketishi lozim bo'lgan to'g'ri yo'lni ko'rsatib ulgurish va eng muhimi-millat hozirga qadar topib-yig'ib kelgan dunyoviy va ruhoniyl tajribalarni butunicha unga o'tkazish burchiga hayot mamot masalasi sifatida qaraydi. So'nggi o'n yilliklarda olimlar yosh avlodni ma'naviy va axloqiy tarbiyalash muammosini hal qilishga harakat qilmoqda. Qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonida odamda ijobiy insoniy fazilatlar shakllanadi. SHunday qilib, ular qadriyatlar sifatida assimilyasiya qilingan ijtimoiy munosabatlarni (shu jumladan tabiatga bo'lgan munosabatni) ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, insoniy fazilatlar va ularning butunligi - ma'naviyat - "inson-jamiyat-tabiat" tizimida rivojlangan munosabatlarning bilvosita ifodasidir. Shunday qilib, ma'naviyat insoniy fazilatlar bilan bir qatorda "ma'naviy madaniyat" deb ataladigan - fan, falsafa, axloq, qonun, adabiyot va san'at, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, urf -odatlar, urf -odatlar, shuningdek din va diniy amaliyot - ibodat, kultni o'z ichiga oladi, diniy marosimlar, diniy adabiyot, diniy san'at va boshqa ko'plab tarixiy va zamonaviy qadriyatlar, masalan:

- fuqarolikni, yakka jamiyat fuqarosi sifatida o'zini anglashni tarbiyalash;

- tarixiy o'tmishi va madaniyatini bilish asosida vatanparvarlik ongini, Vatanga muhabbatni tarbiyalash;

- diniy bag'rikenglik, vatandoshlarning dinga munosabat sohasidagi huquqlari va erkinliklariga, umuman jamiyat hayotining ma'naviy sohasidagi shaxsiy huquqlariga hurmatni tarbiyalash;

- yoshlarning milliy o'zini o'zi anglashini rivojlantirish, milliy madaniyat qadriyatlari bilan tanishtirish;

- jamiyatimizda qabul qilingan shaxsning axloqiy tamoyillari, axloqiy madaniyat, xulq -atvor tamoyillarini ishlab chiqish;

- oilaviy tarbiya – oila, kattalarga hurmat, oilaviy hayot sohasida mustaqillik va mas’uliyatni rivojlantirish shular jumlasidandir.

**Milliy g’oya targ’iboti texnologiyalari fanining predmeti** milliy g’oya targ’ibotida qo’llaniladigan usullar, unga yondoshish mahorati va xususiyatlarini keng jamoatchilik: insonlar, turli guruhlar va qatlamlar, xalqlar, millatlarning ishonchi va e’tiqodiga aylanishi, uning milliy-madaniy, umuminsoniy negizlarini to’g’ri targ’ibot etish orqali jamiyat hayoti sohalarida namoyon bo’lish shart-sharoitlari, omillari, qonuniyatlarini o’rganishdan iborat.

Darhaqiqat, biz o’rganishga kirishayotgan “Milliy g’oya targ’iboti texnologiyalari ” fani birinchidan “Milliy g’oyani” chuqur va har taraflama bilishni va teran tushunishni, ikkinchidan uning targ’iboti texnologiyalarini xalqchil usul va vositalaridan foydalanish yo’llarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

“Milliy g’oya targ’iboti texnologiyalari” fanining predmeti milliy g’oya, milliy mafkuraning bosh va eng asosiy maqsadlari sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat’iy nazar har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas’uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyatlar va an’alarimizga munosib bo’lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish hamda milliy g’oya va istiqlol mafkurasining yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma’naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishini tezlashtiradigan ilmiy metod va amaliy uslublar dialektikasidan iboratdir.

**Milliy g’oya targ’ibotidan ko’zlangan asosiy maqsad va vazifalar:**

1. Xalqni ezgu g’oya bilan bog’liq mushtarak maqsadlar bilan birlashtirish va uyushtirish;
2. Muayyan ezgu g’oyaga ishontirish;
3. Demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishga safarbar etish;

4. Ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish hamda milliy g'oya negizlariga bo'lgan ishonch va e'tiqodini mustahkamlash;

5. Milliy g'oya maqsad va tamoyillariga sodiq holda tarbiyalash;

6. YOt va zararli g'oyalar, turli-xil mafkuraviy xurujlar, "ommaviy madaniyat" va "ma'naviy tahdid"larga qarshi g'oyaviy immunitetini shakllantirish va jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda harakat dasturi bo'lishga yo'naltirilgan.

Shu maqsadlarga erishishda milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan oqilona foydalanish va tashkil etish kutilgan amaliy samarani berishi mumkin.

"Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari" shu yo'nalishdagi va falsafiy fanlar jumlasiga kiradi. Ularda ham dialektikaning qonun va kategoriyalariga keng amal qilinadi. Unda ongli faoliyat, ilmiy bilish, mantiqiy tafakkur, voqelikni chuqur va har tomonlama tahlil etish hal qiluvchi ahamiyatni kasb etadi. SHu bilan birga, "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari" bilan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining maqsadlari bir-biridan muayyan darajada farq qiladi. CHunki ularning birinchisi taraqqiyotimizning g'oyaviy asoslari va mafkuraviy ta'limotini o'zida mujassam etgan nazariyani, ikkinchisi esa shu nazariya haqidagi o'quv fanini bildiradi

Fan to'g'risida ikki og'iz so'z, fan, olam yoki muayyan ob'ekt haqidagi nazariy tizimlashgan bilimlar yig'indisi hisoblanadi. Fanning vazifasi esa o'zi o'rganayotgan ob'ektdagi narsa va hodisalarning taraqqiyot qonunlarini izlab topishdan iborat. SHu jumladan "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari" ham nazariy jihatdan tizimlashgan bilimlar majmuasidir. U ham tadqiqot jarayonida muayyan ilmiy usullardan foydalanadi. Masalan, ilmiy bilish usuli inson amaliy faoliyati tufayli vujudga keladi. Tabiat, jamiyat va inson ongining murakkab bog'lanishlarining haqiqiy mazmunini to'g'ri, xolisona talqin etishga, fanning tabiiy aloqalarini ochishga imkon beradi. Usul esa – ilmiy bilishning tarkibiy qismi bo'lib, uning ob'ekti, tahlil predmeti, tadqiqot vazifalari, ularni yoritish, hal qilish uchun zaruriy vositalarni ifodalaydi. Milliy istiqlol g'oyasining maqsad va vazifalari umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyiliga to'la-

to'kis mos kelishi, demokratik erkinliklar va inson huquqlarini saqlashga doir xalqaro andozalarga hamohangligi bilan ham insoniyat tarixidagi ko'pgina milliy g'oyalardan farq qiladi. Milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning yangi jamiyat qurish yo'lidagi harakat dasturi deyish ham mumkin.

**Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari bilan bog'liq tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki**, u asosan, O'zbekiston xalqi ijtimoiy xayot sohalari bilan, xalqning milliy-madaniy merosi, urf-odatlarini, qadriyatlarini, tili, madaniyati, tarixi, falsafasi bilan uzviy bog'liq. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari milliy rivojlanish xususiyatlarini e'tirof etadi va unga hurmat bilan qaraydi. Dunyoda erishilayotgan yutuqlardan samarali foydalaniladi. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarida "sinfilylik", "partiyaviylik", "Egoizm", "milliy egoizm", "milliy ayirmachilik", "shovinizm" kabi nosog'lom tamoyillarga asoslanilmaydi. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari boshqa mamlakat xalqlarining xayotiga o'z g'oyalarini oshkoro yoki pinhona tarzda singdirishni da'vo qilmaydi. Bu bilan u "kommunistik g'oya targ'iboti texnologiyalari"dan, "ommaviy madaniyat" va "ma'naviy tahdid" ko'rinishidagi texnologiyalardan tubdan farq qiladi.

Umuman, "g'oya" va "mafkura", "texnologiyalar" tushunchalari keng ma'noga ega. "Milliy g'oya" va "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari" tushunchasi bir-biridan farq qiladi. Milliy g'oya O'zbekiston jamiyati hayoti bilan bog'liq. U milliy-madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq negizlarini o'zida ifoda etadi. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari ham O'zbekiston xalqining milliy-madaniy merosi, umuminsoniy qadriyatlarni, ezgu maqsad va manfaatlarni ifoda etadi. Uni keng jamoatchilikka etkazish mahorati, yo'llari, vositalari, shakl va usullarining majmuini o'z ichiga oladi.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari fanining asosiy maqsadi-fuqarolarni, keng jamoatchilikni asosiy g'oyalar, maqsad va yo'nalishlar bilan O'zbekiston taraqqiyot yo'lining ma'no va mazmuni, milliy-madaniy negizlari, xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalashga qaratilgan. SHu bilan birga fuqaro va jamoalarda ishonch uyg'otish, ularni adolatli, demokratik

fuqarolik jamiyati qurilishi maqsadlarini amalga oshirishga uyushtirishda ma'naviy-ruhiy rag'batlantirishda o'z aksini topadi. Yana, milliy istiqlol g'oyasini hayotga tadbiiq etishda fuqarolarni g'oyaviy jihatdan tarbiyalashga, g'oya bilan g'oyaning, fikr bilan fikrning, jaholatdan ma'rifatning farqini anglashga, ma'rifatga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladi. Fuqarolarda milliy g'oyaga zid bo'lgan yot va begona, zararli g'oyalardan saqlashga, unga nisbatan fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob berish, unga doimo tayyor bo'la olish immunitetini shakllantiradi. Milliy g'oya mamlakat oldida turgan ulug', bunyodkorlik ishlari undan ko'zlangan asosiy maqsad insonlarning erkin va farovon hayotga erishishi, ozod va obod Vatan qurish yo'lida har bir kishi uchun harakat yo'nalishi bo'lishiga qaratilgan. Milliy istiqlol g'oyasi hech qachon kishilarning ongi va dunyoqarashini, ularni yana allaqanday "qolipga", "yagona andozaga" solishga qaratilgan emas. U fikrlar, g'oyalar xilma-xilligiga asoslanadi. Erkin fikrni uyg'otish va fikr erkinligini kafolatlab berish, o'zgalar fikrini tinglash, eshitish va aytishga imkoniyat yaratadi. Demak, milliy istiqlol g'oyasi "hukmron g'oya" ga intilishdan mutlaqo begona bo'lganligi bilan ham boshqa nosog'lom g'oyalardan farq qiladi. SHu ma'noda "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari" fani voqea-hodisalarni bilish, tahlil etish, ularga baho berishga imkoniyat yaratib, bir qator ilmiy, tarbiyaviy va amaliy vazifalarni ham bajaradi.

**"Targ'ibot texnologiyasi" atamasining paydo bo'lishi.** "Texnologiya" yunoncha, techne - mahorat, san'at; logos-ta'limot ma'nosini bildiradi. U, masalan, ishlab chiqarishning biror sohasiga ishlov berish, qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o'zgartirishda qo'llaniladigan usullar majmuini anglatadi. Uni milliy g'oya targ'ibotiga nisbatan ham qo'llash mumkin. SHu nuqtai nazardan yondashganda, uni milliy g'oya targ'ibotini tashkil etish mahorati, san'atida qo'llaniladigan usullar majmui sifatida talqin etish mumkin. Demak, "milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari" tushunchasi o'ziga xos mazmun va xususiyatlarga ega. U ishlab chiqarish sohasida qo'llaniladigan "texnologiya" tushunchasidan farq qiladi. Insonlar ongi va tafakkurini

o'zgartirishga qaratilgan. Milliy g'oya targ'ibotida buni alohida hisobga olish zarur.

“Targ'ibot” tushunchasi arabcha “targ'ib” so'zidan olingan bo'lib, xoxishni, qiziqishni kuchaytirish, rag'batlantirish ma'nolarini anglatadi. Bu, biror g'oya, ta'limotni yoyishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini bildiradi.

“Targ'ibotchi” – targ'ibot ishlarini olib boruvchi shaxsni, “targ'ibotchilik” esa targ'ibot olib borishni, targ'ibot ishini anglatadi<sup>1</sup>.

**“Milliy g'oya targ'iboti texnologiyasi” tushunchasi** Umuman, “g'oya” va “mafkura”, “texnologiyalar” tushunchalari keng ma'noga ega. “Milliy g'oya” va “Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari” tushunchasi bir-biridan farq qiladi. Milliy g'oya O'zbekiston jamiyati hayoti bilan bog'liq. U milliy-madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq negizlarini o'zida ifoda etadi. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari ham O'zbekiston xalqining milliy-madaniy merosi, umuminsoniy qadriyatlarni, ezgu maqsad va manfaatlarni ifoda etadi. Uni keng jamoatchilikka etkazish mahorati, yo'llari, vositalari, shakl va usullarining majmuini o'z ichiga oladi.

“Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari” fanini o'qitishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan jihatlar quyidagi chizmada o'z ifodasini topgan.


### **1-chizmaga qarang.**

---

<sup>1</sup> Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т: 4 жилд., – Б.6.



## 1-chizma.



**Foyaviy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi o'zgarishlar** Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyatini anglash muhim sanaladi. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari fanidan ana shu qayd etilgan jihatlarga javob bergan taqdirdagina kutilayotgan maqsadlarga erishish mumkin. Ammo, milliy g'oyani o'z-o'zidan inson ongiga, tafakkuriga singib, ishonch va e'tiqodga aylanib qolmaydi. Bunga har bir inson o'z hayoti davomida erishib boradi. Milliy ning mazmun-mohiyatini tushunchalari, shakllanish qonuniyatlari, namoyon bo'lish xususiyatlari, uni xalqimiz qalbiga singdirish yo'llari va usullari ushbu fanning mohiyatini belgilaydi.

Ijtimoiy hayot nihoyatda murakkab va xilma-xil. Bilishda turli-tuman usullardan foydalanish, uni yanada chuqurroq bilishimizga yordam beradi. SHunday usullardan biri sinergetikadir. Sinergetika – o‘z-o‘zini boshqarish, nochizikli hodisalarni o‘rganish, o‘z-o‘zidan tashkil bo‘lish nazariyasi. Olamni yangicha izohlashga qaratilgan, murkkablikni o‘rganadigan, tabiiy va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish, tafakkur uslubidir.

Sinergetika asosan fizika, kimyoviy, biologik hodisalarning hamda iqtisodiy, texnik, ijtimoiy jarayonlarning o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z-o‘zini boshqarish, tartibsizlik(xaos)ka o‘tish, chizikli va chiziqsizlik kabi holatlarning mohiyati va qonuniyatlarini aniqlaydi. Tadqiqotchi D.Bozarovning fikricha, “Sinergetika o‘zining ratsional asosiga ko‘ra, insonlar orasidagi fikr-mulohaza almashinuvini yang umumiy bog‘lanish manzarasini ishlab chiqib, ularning bir-birlarini tushunishlari uchun munosib vosita va texnologiyalarini taqdim etadi. SHuning uchun ham sinergetika murakkab to‘rsimon bog‘lanishi tafakkur metodi sifatida ham qayd etilmoqda”<sup>2</sup>.

Sinergetika taraqqiyotning evolyusion tamoyilini asos qilib olib, evolyusiyaga borliqning umumiy qonuni sifatida, inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning ifodasi sifatida qaraydi. SHu bilan birga, sinergetika taraqqiyot jarayonida beqaror holat va barqaror holat o‘rtasidagi aloqadorlikka e‘tiborni qaratadi. Agar dialektika ta‘limot sifatida ko‘proq chizikli tafakkuriga asoslangan bo‘lsa, sinergetika chiziqsizlik tamoyilini yoqlaydi. Ushbu tamoyil taraqqiyot oldindan belgilab qo‘yilgan yo‘ldan ketmaydi, har bir narsaning ichki bir xususiyati va tashqi aloqadorligi negizida har safar yangi va betakror yo‘ldan borishini ko‘rsatadi.

Endi bilishning rivojlanish usullaridan gipoteza, ilmiy bashorat, ilmiy g‘oya, induksiya va boshqalar haqida to‘xtalamiz. Ularning milliy g‘oya, milliy mafkurani hayotga joriy etishda ahamiyati beqiyosdir. Gipoteza grekcha so‘z, faraz, taxmin degan ma‘noni beradi. U real olamning fan tomonidan hali yaxshi

---

<sup>2</sup> Бозаров Д. Синергетик парадигма.-Тошкент: Тафаккур, 2010.-Б. 105.

o'rganilmagan mohiyatiga kirib borish, yangilik ochishga qaratilgan ilmiy xulosalarning bir turi. Gipoteza, albatta tekshirilishi, tasdiqlanishi yoki rad etilishi lozim.

**O'z an'analarimiz. tarixiy tarakkiyot davomida erishgan va erishayotgan yutuklarimizni asrab-avaylash, mustaqilligimizni mustahkamlash, yoshlar ongiga Vatanga, millatga xurmat ruhida tarbiyalash-bugungi kunda milliy goyani targ'ib qilishning eng asosiy maqsadlaridan biri ekanligi.** "Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz<sup>3</sup>. Milliy g'oya va milliy istiqlol g'oyasi keng, murakkab serqirradir. Bu Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab olishga xizmat qiladi. Bu g'oya xalqni-xalq, millatni-millat etadigan, uning sha'nu sharafi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda mutassil rivojlanib boruvchi qarashlar tizimi hisoblanadi".

Ko'rinib turibdiki, milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarini o'rganishni taqozo etadigan umumiy va o'ziga xos qonuniyatlar mavjud. U jamiyat va mafkuralar (g'oyalarning) bir-biri bilan o'zviy bog'liqligi qonunidir. Jamiyatni mafkurasiz va maqsadsiz yashay olmasligidir. Milliy g'oya targ'iboti va texnologiyalari o'zgaruvchanligi va uning dinamik xarakterda ekanligidadir. Uning milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarida hisobga olish zarur. Hozirgi davrda mafkura sohasidagi kurashning kuchayib borayotganligi ham milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan oqilona va unumli foydalanishni taqozo etadi. Jamiyat mafkurasiz yashay olmaydi, lekin hamma mafkuralar ham ezgu maqsadni ko'zlayotganligi yo'q.

---

<sup>3</sup> Қаранг: Каримов И.А. "Юксак маънавият-енгилмас куч". – Т: "Маъанавият", 2008. – Б.71.

**Bu jarayonlarni amalga oshirishda milliy goyani targ'ib kilish texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati** shundan iboratki, milliy g'oyani hayotga tadbiq etish usullaridan foydalanishni istagan kishi har tomonlama muayyan bilimlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki milliy g'oya hayotga quruq gaplar bilan tadbiq etib bo'lmaydi. Uni quyidagi usullaridan omma orasida foydalanish kishidan muayyan bilim va mahoratni talab qiladi. Misol uchun "YUz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi", "Raqibni uslubiy quolsizlantirish", "Mafkuraviy faollikni oshirish", "Mafkuraviy immunitetni shakllantirish", "Birlashtirish", "Do'st himoyasi", "Dushmanni quolsizlantirish", "Qarshi targ'ibot", "Mafkuraviy ta'lim", "Kitoblar bilan ishlash", "Matbuot – jangi", "Jamoaviy ijodiy ish yuritish", "Charxipalak", "Mafkuraviy sayohat", "Mafkuraviy lug'at", "Istiqbolni ko'rsatish", "Dalillarni keltirish", "Ko'zgu", "Mafkuraviy himoya" va boshqa usullari bor. SHu bilan birga targ'ibotchining o'z tajribasi va hayotiy voqelikka munosabatining ham ahamiyati asosiy rol o'ynaydi. YA'ni, hayotiy haqiqatni aks ettiradigan misollar keltirishi, taraqqiyotimizning har bir jabhasidagi yangilanishlarning mohiyatini haqqoniy yoritishi va turli jamiyatlarning ilg'or g'oyalari bilan qiyosiy tahlil qilib muvoffaqiyatlarimizning garovi hamda istiqbolari osoyishta hayotimiz, mustaqilligimizning mustahkamlanishiga bog'liqligini uqtirishi lozim.

**Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari bo'yicha** kompleks dastur yaratish; 2) milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarini yanada takomillashtirish; 3) milliy g'oya targ'ibotida yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishga erishish; 4) milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarida ta'lim tizimining faoliyatini yanada takomillashtirish; 5) milliy g'oya targ'ibotida interfaol usullardan foydalanish orkali uni ommalashtirish va bosqichma-bosqich singdirib

borish; 6) milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining jamiyat xayotidagi

roli va ahamiyatining yanada oshib borishiga erishish asosiy maqsad. **Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarini** avvalo, ta'lim-tarbiya tizimida keng qo'llash orqali ommalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, "Milliy g'oyada mujassam

bo'lgan buyuk maqsadlarni ruyobga chiqarish avvalambor jamiyatimiz va shu jamiyat a'zosi bo'lmish har qaysi insonning ma'naviy olami va dunyoqarashidagi ijobiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq ekanini unutmashimiz zarur"<sup>4</sup>.

Milliy g'oya targ'iboti uzoq davom etadigan uzluksiz jarayon bo'lib, uning samaradorligini oshirish, avvalo, targ'ibot texnologiyalariga ham bog'liq. Aynan shu turdagi texnologiyalardan foydalanish milliy g'oyani aholi ongiga singdirish, tushuntirish va mohiyatini ochib berish etakchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda targ'ibot texnologiyalari yangiliklarini targ'ib etish, ta'lim jarayonlarida mustaqillikni ta'minlab berishi bilan ham ajaralib turadi.

Ta'lim-tarbiya sohalarida milliy g'oya negizlariga, tamoyillariga tayanish muhim. Bunda milliy g'oya targ'ibotida an'anaviy yo'l bilan birga zamonaviy yondashuv o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Zamonaviy usullardan foydalanish deganda, ko'proq, yangi texnik vositalardan foydalanishni, materialni yangicha uslubda etkazib berish, jonli muloqot, savol-javoblar, bahs-munozara, interfaol usullarni ko'proq qo'llash tushuniladi. Bu bir tomonlama emas, ko'p tomonlama faollikni oshiradi. Eshituvchini fikrlashga, fikrini uyg'otishga, uning jamiyatdagi o'rnini his etishga, ong va tafakkurining o'zgarib borishiga undaydi. Bugun milliy g'oya targ'ibot texnologiyalarining hozirgi zamon bilan mos samaradorligini oshirishning yo'llari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: **Birinchidan**, targ'ibot texnologiyalarining mohiyatini, mazmunini, shuningdek, uni ta'limdagi foydali jihatlarini ko'rsatib berish; **Ikkinchidan**, avvalgi "izohli-tasviriy yondashuv" (ya'ni faqatgina ma'ruza-o'qitish asosida) tizimini takomillashtirgan holda, mavzuga ikkinchi tomonning ham munosabatlari tizimini shakllantirish (buni aynan targ'ibot texnologiyalari amalga oshiradi) targ'ibot texnologiyalari vositalari rolini yanada takomillashtirish, axborot aniqligi va tezligini ta'minlab berish asosida milliy g'oya targ'ibotiga yo'naltirish zarur. Inson - murakkab mavjudot. U axborotlarni,

---

<sup>4</sup> Қаранг: Каримов И.А. "Юксак маънавият-енгилмас куч". – Т: "Маъанавият", 2008. – Б.76.

jarayonlarni turli xil tarzda qabul qiladi. Bunda ongli, tahliliy qabul qilish muhim ahamiyatga ega.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotining sivilizatsiyalashgan davri biron-bir jamiyatning ezgu g'oyalar va mafkurasiz rivojlana olmasligini tasdiqlab kelmoqda. Yangi ijtimoiy ma'naviy makonni barpo etish maqsadini amalga oshirish, yurtimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etish ehtiyojini tug'dirdi. Buning uchun bizga yot va begona g'oya tajovvuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga etkazish, bu yo'lda g'oyaviy, mafkuraviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishni taqozo etdi.

Keyingi yillarda yoshlar o'rtasidagi ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarini yangi texnologiyalar asosida olib borish, jumadan, turli texnik vositalar yordamida ta'sir samaradorligini oshirishga erishish borasida ko'plab taklif-tavsiyalar, ishlanmalar vujudga kelmoqda. Maktabdagi darsdan tortib ma'naviyat tadbirigacha, laboratoriyadagi amaliy mashg'ulotlardan boshlab axborot-resurs markazlari-kutubxonalaridagi qiroat jarayonigacha kirib borayotgan bu yangiliklar. Shubhasizki, o'zining jiddiy samarasini beradi.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari, Birinchisi- ko'rgazmali targ'ibot asosida, ya'ni televidenie, radio, internet hamda turli plakatlar, rasm va fotosuratlar kabi tasviriy vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Ikkinchisi- og'zaki tarzda amalga oshiriladigan targ'ibot. Bular turli uchrashuvlar, davra suhbatlari, bayram tadbirlarida mustaqillik va milliy istiqloq g'oyalarining mohiyatini to'la anglagan jamiyat a'zolari-olimlar, yozuvchi va shoirlar, xalq ichida obro'-e'tborga insonlar ishtirokida mehnat jamoalari, o'quv maskanlari yoki mahalla va turar joylarda o'tkaziladigan uchrashuvlar, suhbatlar yoki televidenie va radio orqali beriladigan mafkuraviy ahamiyatga ega ko'rsatuv va eshittirishlar orqali amalga oshiriladi. Aksariyat hollarda milliy istiqloq g'oyasining ko'rgazmali va og'zaki tarzda olib boriladigan targ'ibot ishlari o'zaro uyg'unlik kasb etadi.

Uchinchisi- milliy istiqloq g'oyalarini yozma tarzda sindirib borish. Bunda tarixiy va zamonaviy adabiyotlar, gazeta-jurnallar

vositasida ish ko'riladi. Talabalar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda, ularni vatanparvar, mamlakat taqdiri uchun fidoyi, ayni paytda siyosiy va ijtimoiy faol qilib tarbiyalashda ushbu vositalarning har biri o'ziga xos o'rin tutadi. Gap ulardan samarali va o'z vaqtida foydalana bilishda.

YOsh avlod tarbiyasining muhim jihatlaridan biri, .“Tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. YAngi O'zbekiston yoshlari ana shunday yuksak darajalarga ko'tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz”<sup>5</sup>. Bu boralagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish har kungidan dolzarbroq ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, moliyaviy tahlillar, fizik yangiliklar yoxud sotsiologik so'rov natijalari taqdimotlaridan farqli o'laroq, ma'naviy-ma'rifiy saboqlarda xoxlaymizmi-yo'qmi, INSON omili TARBIYACHI roli, TARG'IBOTCHI shaxsi jarayon markazida turmog'i, shu mavqeda albatta qolmog'i lozim.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. “Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari” fanining maqsadini ayting?

2. G'oyaviy tarbiyaning ma'nosini tushuntiring?

3. “Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari fanining tarkibiy qismini ayting”?

4. Mafkuraviy tarbiya nima?

5. Sinergetika nima?

6. Gipoteza deganda nimani tushunasiz ?

7. Mafkuraviy targ'ibotning amaldagi usullari qaysilar?

8. G'oya va g'oyaviy bo'shliq nima?

11. Mafkura nima?

### **Tayanch tushunchalar**

**Foya** - ideya, fikr, qarash va h.k. **Mafkura** - arabcha, “mufakkir”, “mufakkiratun”, g'oyalar majmuasi, yig'indisi, fikr,

---

<sup>5</sup>Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон СТРАТЕГИЯСИ. –Тошкент: “O'zbekiston”, 2021. – Б.263.

O'zbek tilining izohli lug'atida **hayot** – kishi va jamiyatning faoliyati va yashash yo'lini, turmush, tirikchilik, ijtomoiy hayot, oilaviy hayot ma'nosida talqin etilgan; **joriy** – hozirgi kunda, joriy qilmoq esa amalga oshirmoq, tadbiiq etmoq, qo'llamoq, yoymoq ma'nosida izohlanadi. **Sinergetika**–o'z-o'zini boshqarish, nochiziqli hodisalarni o'rganish, o'z-o'zidan tashkil bo'lish nazariyasi. **Gipoteza** grekcha so'z, faraz, tahmin degan ma'noni beradi. U real olamning fan tomonidan hali yaxshi o'rganilmagan mohiyatiga kirib borish, yangilik ochishga qaratilgan ilmiy xulosalarning bir turi. Gipoteza, albatta tekshirilishi, tasdiqlanishi yoki rad etilishi lozim.

### **O'z-o'zini tekshirib ko'rish uchun testlar**

**1. Milliy istiqloq g'oyasining mafkuraviy tarbiya va targ'ibot jarayoni asosan nechta yo'nalishda amalga oshiriladi va ular qaysilar?.**

a). Ko'rgazmali targ'ibot, televidenie, radio, internet hamda turli plakatlar, fotosuratlar tasviriy vositalar asosida.

b). Og'zaki ya'ni, uchrashuvlar, suhbatlar, tadbirlar, ma'ruzalar va chiqishlar.

v). Milliy g'oyani yozma tarzda singdirish, bunda tarixiy va zamonaviy adabiyotlar, gazeta-jurnallar, vositasida amalga oshirish.

g) Barcha javoblar to'g'ri

### **2. G'oyaviy tarbiya nima?**

a) Siyosiy kurashlarni qo'llab, odamlarni muayyan yo'nalishga chorlaydi.

b) Axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosi bo'lib, muayyan g'oyani himoya qilish, targ'ib etish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

v) G'oyalarni yodlab olish, birovlariga o'rgatish ularni o'ziga ishontirish va g'oyaviy bahslarga tayyorlash.

g) Kishilarning ma'naviy-axloqiy, diniy, yo'nalishdagi tarbiyasi hisoblanadi.

**3. Tarixiy shart-sharoit, davr tuzumi va o'sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta'sirlarning kishi dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o'z aksini topgan ta'sirlarning qanday xillari mavjud.**



a) Makro bosqichdagi ta'sirlar yoki keng ma'nodagi ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy hamda iqtisodiy muhit ta'sirlari.

b) Jamiyat hayotidagi beqaror yoki barqaror muhit ta'siri, uning kishilarni har tomonlama tarbiyaviy ta'sirga olish jarayoni.

v) Mikro bosqichdagi ta'sirlar yoki bevosita inson bolasi tug'ilib o'sadigan oila, ta'lim va tarbiya maskanlari, mehnat jamoasi, mahalla va do'stlar muhitidagi ta'sirlar.

g). A, V javoblar to'g'ri

#### **4. Mafkuraviy profilaktika qanday tushuncha?**

a) Mafkura poligonlaridagi kurash, yangi mafkuralarni rivojlantirish degani.

b) Ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy-tarbiyaviy, ma'naviy-mafkuraviy ishlar majmui.

v) Mafkuraviy siyosatning vazifalarini amalga oshirish usullari.

g) Odamlarni davolash va ularga yordam ko'rsatish sog'lomlashtirish muassasasi.

#### **7. Vatanparvalik nima?**

a). O'z xalqining tarixini yaxshi bilish va undan g'ururlanish, ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy merosni asrab, kelgusi avlodlarga etkazish.

b). Ajdodlar urf-odat, rasm-rusum va udumlarini, merosini o'rganib, uning qadriyatga aylangan qismini davom ettirish.

v). Mamlakatimiz kelajagi, istiqlolning barqarorligi, kelajakning buyukligini chin dildan his etish, unga ko'maklashish.

g). Barcha javoblar to'g'ri.

#### **8. Shaxs manfaatlari va xavfsizligiga tahdidlar guruhi qaysi javobda to'g'ri berilgan ?.**

a). SHaxsning o'z oldiga noto'g'ri maqsadlarni qo'yishi, uni belgilashda xatoga yo'l qo'yishi, boshqa tashqi ijtimoiy tizimlar tahdidi, ichki ijtimoiy tizimdagi tahdilar, tabiiy tavsifdagi tahdidlar,

b). Joniga qasd qilishga majbur qilish, qo'rqitish, turli diniy oqimlarga jalb etish, pul evaziga yollash, ichkilikka o'rgatish.

v). Salomatligini yo'qotishga qaratilgan, oilasini buzishga qaratildagan harakatlar, o'zini sotishga moyillik uyg'otish.

g). Uni maqtash va ulug'lash orqali qo'lga olish, fikriy qaramlikda saqlashga harakat qilish, diniy bilimlarni noto'g'ri o'rgatish.

## **2-MAVZU: MILLIY G'OYA TARG'IBOTIDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING O'RNI VA AHAMIYATI**


**Milliy g'oyani e'tiqodga aylanishida falsafa hamda umumgumanitar fanlarning o'rni.** Milliy g'oya barcha fanlar, xususan, falsafa, ijtimoiy iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning qanday g'oyaga asoslanishi, ularni o'qitish asosida yoshlar ongi va ishonchiga, qalbiga qanday g'oyalari singdirilishi har qanday jamiyat uchun muhim ahamiyatlidir. Umumbashariy prinsiplarga tayanish va uni e'tirof etish qoidasi fanlarning rivoji uchun keng imkoniyat beradi. Bilish falsafasi yurtimiz tarixida uzoq o'tmishga ega. Uning ildizlari "Avesto" zamonlariga borib taqaladi. Allomalarimizning qarashlarida bilish inson ongi va tafakkuri muammosiga katta e'tibor berilgan. Bilim bilan bilishning farqi bor. Bilim – tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri qadimdagi odamlar amaliy faoliyatida to'plab, o'zlashtirib olgan, to'g'riligi amaliyotda tasdiqlangan ma'lumotlardir. Bilimning manbai ob'ektiv olam, jumladan O'zbekiston, uning ijtimoiy hayoti, uning boshlanishi esa bilishdir. Bilish – ijtimoiy taraqqiyot qonunlari ehtiyoji tufayli yuz bergan, amaliyot bilan uzviy bog'liq jarayondir. Bilish voqelikni insonga bo'ysundirish maqsadida uning ustida aql ishlatish jarayonidir. Bilishning emperik, nazariy darajalarini yuqorida qayd etdik. Istiqlol davrida ijtimoiy ongning tafakkur qulligi va fikr qaramligidan qutilish falsafasining boshqa sohalari kabi bilish mavzusi u bilan bog'liq boshqa turli tushuncha va tamoyillar ilmiy xolisona izohlash imkonini beradi. Ikkinchidan, har bir fan yo'nalishlari (sohalari) orqali milliy istiqloq g'oyasi negizlarini bilib olish mumkin. Masalan, milliy istiqloq g'oyasining tarixiy negizlarini - tarix orqali, falsafiy jihatlarini - falsafa, iqtisodiy asoslarini - iqtisod, diniy asoslarini - dinshunoslik, adabiyot va san'at bilan bog'liq tomonlarini o'rganish orqali milliy g'oya kishilarning ishonch va e'tiqodiga aylanib boradi. **Milliy g'oya targ'ibotiga oid masalalarni talaba yoshlarga tushuntirishda**

**kishilar hayotini** to'la o'rganadigan ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish lozim. Quyidagi chizmaga e'tibor bering.

### 1-chizma

#### MAFKURA

Muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassamlagan g'oyalar tizimidir



Milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Jamiyat va sivilizatsiyalar rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariyalar, ta'limotlar va mafkuralar mavjud. Zardusht, Sokrat, Platon, Konfutsiy, Alisher Navoiy, Maxatma Gandi va boshqalarning bunyodkor g'oyalari tarixda o'chmas iz qoldirgan. Sohibqiron Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va

faoliyati SHarq madaniyatining gurkirab rivojlanishiga buyuk hissa qo'shdi.

Kant, Gegel, Nitsche kabi mutafakkirlar nomi bilan shuhrat topgan nemis falsafasi xususida ham shunday fikrni aytish mumkin. Jumladan, haqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo'lgan Gegel falsafasi Avstriya imperiyasidan ajralib, mustaqillik yo'lini tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan.

Mafkuraning diniy ildizlari deganda u inson ongi va ruhiyati bilan uzviy bog'liq ekani va shu bois uning g'oyaviy ildizlari diniy ta'limotlarga borib taqalishi tushuniladi. YA'ni ko'pgina mafkuralarda "Zabur", "Tavrot", "Injil", "Qur'on" kabi ilohiy kitoblarda zikr etilgan ezgu g'oyalar muayyan darajada o'z ifodasini topganini ko'ramiz.

Mafkuraning dunyoviy ildizlari ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Asrlar mobaynida insoniyat bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume'tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi. Bunday jamiyat mafkurasi "Dunyoviylik - dahriylik emas degan tushuncha asosida rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini aslo inkor etmaydi. Mamlakatimiz xayotining barcha soxalarida amalga oshirilayotgan keng kulamli isloxotlarni, xalkimiz turmushida roy berayotgan uzgarishlarni keng, teran taxdil etish yuli bilan yoshlarning ruxiy-ma'naviy olamida goyaviy bushlik yuzaga kelishiga yul koymaslik -ijtimoiy-gumanitar fanlarning muxim vazifalaridan biri ekanligini unutmash kerak.

### **Mantiqiy jumboq**

Arab isitlosi davrida ko'pgina milliy qadriyatlarimiz yo'qolgan, tafakkur va tilimizda o'zgarishlar bo'lgan. Bu haqda Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"asarida afsus bilan yozib qoldirgan. XIV asrdan buyon "Assalomu alaykum" deb salomlashamiz, " Rahmat" deb minnatdorchilik bildiramiz, "Xayr" deb xayrlashamiz. Bu hayotimizning tarkibiy qismiga aylangan.

Ularni inkor etmagan holda o'n to'rt asr oldin salomlashish yoki xayrlashishda qanday so'zlar qo'llanilgan o'ylaganmisiz?

## **Tarixiy hikmat**

**O'ylab  
ish  
keladi.  
Tadbiring  
qilsang  
taqdirga  
to'g'ri**

Hikmatni to'g'rilab o'qing, bu mashhur hikmat kimga tegishli a). Nostradamus, a).Ulug'bek, v).Amir Temur, g).Bobir Mirzo.

**Foyaning mazmun-moxiyati shakllanishi va rivojlanishida falsafaning** o'rni haqida gap ketganda g'oya va mafkura falsafiy asoslansagina, jamiyatdagi kishilarni, turli-ijtimoiy-siyosiy gurux va toifalarni birlashtirib, ular faoliyatini xarakterga keltiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Vatanimiz tarixini urganish orkali talabalar ongi va kalbiga milliy goyani singdirishning Urii va axamiyati. Milliy g'oyaning ishonch va e'tiqodga aylanish shart-sharoitlari, jarayoni muhim jihati shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyotining yo'nalishiga nisbatan o'z munosabatini aniqlab olishi zarur. Inson mohiyatini, uning ijtimoiy ehtiyojlari tizimini narsa va hodisalarga bo'lgan ongli munosabati belgilab beradi. Insonning ichki botiniy e'tiqodi, orzu-umidlari ijtimoiy mavjudotligining ma'no-mazmunini belgilaydigan sifat ko'rsatkichidir. Ularni shartli ravishda ilohiy va dunyoviy yo'nalishlarga ajratish mumkin. SHaxsning individual g'oyalari ijtimoiy birliklarning maqsadi, orzu umidlari, ishonch-e'tiqodi doirasida konkretlashib, umuminsoniy g'oyalarning tarkibiy qismiga aylanadi. SHaxs e'tiqodi, ishonchiga asoslangan amaliy faoliyati: xalq, millat, ijtimoiy tabaqa manfaatlari, ehtiyojlari asosida umumlashadi. Milliy g'oya xalqning ishonchi va e'tiqodini

ifodalaganligi uchun, ularning mavjudligini hamda rivojlanish istiqbollari namoyon qiladi.

Jamiyat mafkurasi, turli ijtimoiy ong shakllari va amaliyot yo'nalishlari: ta'lim-tarbiya, fan va ilmiy muassasalar, madaniyat va ma'naviy-ma'rifat, adabiyot va san'at, din, jismoniy tarbiya va sport sohalarida integratsiyalashgan kompleks-sistemali faoliyatni taqozo qiladi. Bu vazifaning murakkabligi:

1.Uzoq tarixiy davrlarda davom etgan mustamlakachilik siyosati xalqni tarixiy xotiradan, milliy qadriyatlardan mahrum qilish chegarasiga keltirib qo'ygan edi.

2.Totalitarizm, volyuntarizm siyosatining tashkiliy-institutsional tizimi xalq ongida mustamlakachilikka nisbatan "ko'nikish effektini" vujudga keltirdi, qullik elementlari shakllantirildi. Mafkuraviy qolipga moslashtirildi. "Davlat seni boqayapti, sen davlatga qul bo'lishing darkor" degan tamoyili g'oyaviy qaramlik va mafkuraviy mahdudlikka olib keldi.

3.YAngi vujudga kelgan mustaqil davlatlar ustidan hukmronlik qilishning mafkuraviy usullaridan, vositalaridan foydalanishga harakat qilib, "g'oyaviy emansipatsiyasi", "mafkuraviy agressiyasi" keng hujum boshlashi bilan xarakterlanadi.

**Talaba yoshlarda milliy tuyguni shakllantirishda adabiyot va san'atning keng imkoniyatlaridan foydalanish zarurati mavjud.** Ma'naviyat asoslari, Siyosatshunoslik, O'zbekistonda demokratik jamiyat kurish nazariyasi va amaliyoti, iktisodiyot nazariyasi fanlari mavzularining milliy g'oyani yoritish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng milliy g'oya va jamiyat mafkurasini shakllantirish, ularni xalq ishonchi va e'tiqodiga aylan-tirishning bir-biri bilan bog'liq ikki vazifani kun tartibiga qo'ydi. Bularni 1) ichki va 2) tashqi yo'nalishlardan iborat deyish mumkin.

Milliy g'oyani keng jamoatchilik ongiga singdirib, e'tiqodiga aylantirish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

1. Tarbiya yo'li bilan e'tiqodiga singdirib borish.
2. YOshlarni g'oyaviy (demokratik) tarbiyalash.
3. Mas'uliyatni his qilish, fuqarolik mas'uliyatini oshirish.
4. Imon-e'tiqodiga aylantirish.

5. Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muhit orqali ta'sir etish.

6. Siyosiy ong huquqiy madaniyatni o'stirish yo'li bilan.

7. YOshlarning bilim darajasiga e'tiborni kuchaytirish yo'li orqali.

8. Yangicha ilg'or fikrlashga o'tish.

9. Ota-onalar savodxonligini oshirish yo'li bilan.

Milliy g'oyaning ishonch, e'tiqodga aylanishida ob'ektiv va sub'ektiv omillar. Ob'ektiv shart-sharoitlar: ijtimoiy-iqtisodiy hayot negizlari, madaniy hayotni rivojlantirish manbalari, inson salohiyati, millatning tarixiy merosi va unga bo'lgan munosabat, hududning tabiiy-jug'rofiy joylashishi, tabiiy resurslari, millat mentalitetiga xos xususiyatlar, demografik holat, etnik tuzilish, turli ijtimoiy guruhlar, oila, mahalla, milliy-madaniy markazlar, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, ta'lim-tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari, ma'naviy-ma'rifiy kompleks ishlari, xalqning intellektual salohiyatini yuksaltirish.

Har qanday jamiyatni, xalqni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlash-tirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor g'oyalari mavjud bo'lib kelgan. Mafkura - jamiyatda yashaydigan odamlarning hayotiy mazmuni, intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Har qanday inson, tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Mamlakatlar, davlatlar o'z manfaatlarini milliy g'oya, milliy mafkura orqali belgilab oladi. Hozirgi zamonda eng katta xavf - insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir.

1. Mamlakat, davlat manfaatlari milliy mafkura orqali ifodalanadi.

2. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi.

3. Qudratli davlatlar, ayrim siyosiy markazlar inson ongini zabt etib, o'ziga qaratish uchun kurashmoqda.

4. Mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar mafkuraviy bo'shliq tufayli yuz bermoqda.

5. Odamning qalbida ikkita kuch - bundyokorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi.

6.YOt mafkuraviy ta'sirga ayrim yoshlar kirib ketmasligi uchun mafkuraviy immunitetni kuchaytirish kerak.

7.Maqsad huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat.

8.Siyosiy va davlat qurilishini erkinlashtirish lozim.

9.Oilani mustahkamlash orqali adolatli jamiyatni shakllantirish.

10.Jamiyatning iqtisodiy asosi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga qaratilishi kerak.

11.Jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlar asosida rivojlanadi.

12.Milliy mafkurani yoshlar ongiga sodda, lo'nda qilib tushuntirishda turli vositalardan samarali foydalanish.

13.Mafkura qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, balki u uzluksiz jarayon bo'lganligi boisdan millat manfaatlariga javob berishi darkor.

14.Milliy mafkurani tepadan turib yaratib bo'lmaydi, u prinsipial masaladir.

15.Milliy istiqlol mafkurasi Vatan tuyg'usi, ona tiliga muhabbat, milliy qadriyatlarga e'tiborda bo'lishi, oila, mahalla, ya'ni milliy qadriyatlar bilan birga umuminsoniy qadriyatlarga, diniy qadriyatlarga, ma'rifat tamoyiliga monand rivojlanishi kerak.Milliy g'oyaning xalq ishonchi va e'tiqodiga aylanishini ularning ijtimoiy faoliyat yo'nalishlariga mos ravishda quyidagicha turkumlashtirish mumkin:

1. Oilaviy munosabat madaniyatida namoyon bo'ladi.

2. Mahalla muhim ijtimoiy institut hisoblanadi.

3. Mehnat jamoalari, ta'lim-tarbiya tizimi muhim rol o'ynaydi.

Milliy g'oyani xalq ishonchi va e'tiqodiga aylantirishni takomil-lashtirishning umumiy qonuniyatlari, talablari quyidagilardan iborat:

1.Milliy va umuminsoniy manfaatlar birligi.

2.Ijtimoiy faoliyat erkinliklarining ustuvorligi.

3.Umuminsoniyat ma'naviy merosiga tayanib, milliy-ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish.

4.Madaniy sohani erkinlashtirish.

5.Foyaviy-mafkuraviy murosa xususiyatlarini hisobga olish.



6.Foyaviy-mafkuraviy munosabatlarni erkinlashtirish.

Ijtimoiy-siyosiy sohani erkinlashtirish jarayoni davlat tizimidagi "qonunchilik, ijro va sud tarmoqlarining o'zaro muvozanati va mutano-sibligini ta'minlash bilan bog'liq.

Umuman, g'oyaviy-mafkuraviy sohaga davlat aralashuvini cheklashda demokratik tamoyillarning qaror topishi:

- ziddiyatga olib keluvchi inqilobiy o'zgarishlardan, siyosiy qarash-lardagi radikalizmdan voz kechish va umuminsoniyat manfaatlari ustuvorligini e'tirof qilish orqali;

- g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarni demokratlashtirish, bu sohada inson huquq va erkinliklari hamda qonun ustuvorligi tamoyiliga amal qilishni, xalqaro huquq me'yorlariga qat'iy rioya etish tufayli;

- millatlararo ma'naviy-madaniy, g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlar erkinligi, madaniyatlararo tolerantlik, jamiyat mafkurasi taraqqiyoti uchun har bir shaxs, ijtimoiy guruh va millatlarning mas'uliyat va imkoniyatlari tengligini ta'minlash natijasida;

- g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarni boshqarishni erkinlashtirishga doir muqobil g'oyalarning mavqelarini e'tirof etish va hurmat qilish, xalqaro munosabatlarda siyosiy plyuralizm, milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi tamoyillariga amal qilishda namoyon bo'ladi.

### ***Tayanch iboralar***

***Jamiyat mafkurasi*** - xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat qiluvchi kuch. ***Maqsad degani*** - xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bayroq. ***Ongli turmush*** - jamiyat hayotining bosh mezon. ***Jaholat*** - ma'rifaatning kushandasi. ***Milliy g'oya*** - millatning o'tmishi, buguni va kelajagini mujassam bog'lab, ko'priq bo'lib xizmat qiluvchi g'oya. ***Jamoatchilik ongi*** - ijtimoiy ong shakli. ***Milliy qariyatlar*** - milliy mafkuraning tarbiyaviy elementi. ***Mahalla*** - o'zini o'zi boshqarish maktabi. ***E'tiqod*** - ishonmoq, amin bo'lmoq.

### **Mazuni mustahkamlash uchun savollar**

1.Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari fanini o'qitishda gumanitar fanlarni ahamiyati nimada?

2. Milliy g'oyani xalq ishonchi va e'tiqodiga aylantirish deganda nimani tushunasiz?

3. Milliy g'oyani xalq ongiga singdirishda falsafiy fanlarning o'rnini nimalarda ko'rinadi.?

4. Milliy g'oyani jamoatchilik ongiga singdirish shart-sharoitlarini qanday tushunasiz?

5. Mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun nima qilish kerak, deb o'ylaysiz?

### **O'z-o'zini tekshirish uchun test**

**1. O'zbekistonda qachon mafkuraviy bo'shliq namoyon bo'ldi?**

A) 1980 yillarda

B) 1970 yillarda

V) 2000 yillarda

G) 1990 yillarda

**2. G'oyaviy bo'shliqning paydo bo'lish manbai?**

A) mafkuraviy jarayonlarning o'z holiga tashlab qo'yganligi

B) tarbiyani etarli emasligi

V) barcha javoblar to'g'ri

G) ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-psixologik muammo va jarayonlar.

**3. Milliy g'oyaning asosiy vazifalari nechta?**

A) 7 ta

B) 9 ta

V) 6 ta

G) 5 ta

**4. Milliy g'oyaning nechta funksiyasi mavjud?**

A) 4 ta

B) 8 ta

V) 10 ta

G) 12 ta

**5. Milliy g'oyaning tashkiliy asoslari nechta?**

A) 10 ta

B) 8 ta

V) 9 ta

G) 7 ta

**6. “Inson baxt-saodat nimaligini tushungan bo‘lsayu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g‘oya va hoxishga aylantirmagan bo‘lsa, unga nisbatan oz bo‘lsada, shavq va zavq sezmasa, istak va mulohazani, kuch-quvvatini bo‘qa narsalarga sarflasa bu qilmishlari yomon va noo‘rindir”. Bu kimning so‘zlari?**

- A) Feol
- B) Feyrbox
- V) Aflotun
- G) Farobiy

**7. Abu Nasr Farobiyga asar tegishli?**

- A) Fozil odamlar shaxri
- B) Davlat
- V) siyosatnoma
- G) SHayboniyxon

**8. Xalqimiz milliy-ma‘naviy ruhiyatiga zid qaysi g‘oyadan voz kechildi?**

- A) fanizm
- B) kommunistizm
- V) bolshevizm
- G) rosizm

**9 Milliy g‘oyaning mazmuni nimalardan iborat?**

A) tarixiy xotirani uyg‘otish  
B) jamiyat a‘zolarini birlashtirish, birlashtiruvchi kuch manbai bilim.

V) ijtimoiy hodisa mazmunga ega bo‘lish, sube‘kti vujudan xoli bo‘lish

G) barcha javoblar to‘g‘ri

### **3-MAVZU: OLIY TA'LIM TIZIMIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI: MAZMUN MOHIYATI, TUZILMASI VA TASNIFI.**

Bugungi kunda barcha ta'lim tizimida, shuningdek oliy ta'lim tizimida xam ta'lim-tarbiya jarayonida katta o'zgarishlar amalga oshirilayotganligi, yoshlarning ilmiy yuksak salohitli bo'lishiga qaratilayotgan e'tibor alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasi davlat ta'lim standartlari doirasida kuchaytirilib, mustaqil bilimlarni to'ldirish va yangilash ko'nikmasi, izlanish olib borish, yangi echimlar topish, ijodkor shaxs bo'lish, mustaqil fikr yuritish kabilar shaxs sifatlari tarkibiga kirib ulgurganligi juda katta yutuqlariizdan biridir. Mustaqillik tufayli mamlakatimizda ilm-fan rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda. "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" qadam qo'yar ekanmiz, uning asosiy kategoriyasi va bosh g'oyasi "Yangi O'zbekiston" tushunchalari va "Yangi O'zbekistonni barpo etish" g'oyasi bo'lishi maqsadga muvofiq. Ya'ni, aynan ana shu g'oya va tushunchalar bugungi kundagi milliy g'oyamizning tayanch tushunchalariga aylanishi, uning maqsad-muddaosini va mazmun-mohiyatini belgilashi lozim. Chunki, "Yangi O'zbekiston" tushunchasi muayyan jamiyat yoki davlatga nisbatan qo'llanilsa, u har kuni, har o'n yil va hatto bir necha o'n yil emas balki yuz yillarda bir marta hosil bo'ladigan fenomenal hodisani anglatadi va muqarrar tarzda o'sha erda yashaydigan xalqning milliy g'oyasi asosida shakllanadi. Nisbatan qisqa davrda, ikki yoki uch o'n yillikda yaratilgan yangi qiyofa keyingi o'n yilliklar, asrlar davomida o'sha mamlakat va jamiyatning butun jahon ahli tafakkuri va tasavvurida shakllanadigan o'ziga xos ifodasiga aylanadi Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-tadqiqot ishlarida erishilgan har bir yangilikning salmog'i uning mamlakatimiz ma'naviy yangilanishiga keltirayotgan foydasiga qarab belgilanadi. Shu bois har bir fanning jamiyat ravnaqiga xizmat qilishiga yo'naltirilganligi hayot bilan bog'liqligi bilan muhim, jumladan milliy g'oya ham bu yo'nalishdan asosiy hisoblanadi. Ijtimoiy

gumanitar fanlar ma'naviyat-ma'rifatning manbai ozuqasidir. O'zbekistondagi ilmiy tadqiqot faoliyatidagi bunday takomil tadbirlari, ijtimoiy gumanitar fan sohasining eng iqtidorli qatlamini paydo qiladi. Bu esa u yoki bu sohadagi ma'naviy-ma'rifiy muammolarning tez, puxta echilishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib, asosan ikki yo'nalishda:

1) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida va 2) Milliy g'oyani singdirish vositasida amalga oshirilmoqda. Ko'rinib turibdiki, bizda ham fuqaro tarbiyasini amalga oshiruvchi maskan sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Demak, maorifga millat fuqarosini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa yuklangan. Maorif, xalq ta'limi yo'li bilan komil inson qiyofasini yaratish zarur.

Avvalo har jihatdan faol insonni tarbiyalashga e'tibor qaratish, g'oyaviy tarbiya vositasida shaxsning salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqarishga erishish, har bir bolaning iqtidorini rivojlantirishga urg'u berish zarur. Buning uchun insonni passiv ijrochilikdan emas, balki faol tashabbuskorlikdan ko'proq manfaatdor ekanligiga ishontirish kerak. O'quv jarayonida bu vazifani hal qilish uchun ta'lim jarayonini "yodlash"dan xalos qilish va uni muammolarni hal qilishga yo'naltirish zarur. SHaxsning ijodiy fikrlashini rivojlantirish ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. Foyaviy tarbiyani tashkil qilishda nazariy fikrlarga amaliy shakllar berish, bilimlarni harakatlarga aylantirish muhim sanaladi. Buning uchun pragmatik fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy g'oyani o'qitish va o'rgatishdan ko'zlangan asosiy maqsad - zamon talablariga mos insonni tarbiyalashdan iborat. Buning uchun fuqarolarda quyidagi sifatlarni shakllantirish, qadriyatlarni singdirish kerak:

- 1) Faol insonni tarbiyalashga e'tibor berish.
- 2) SHaxsning salohiyatini maksimal yuzaga chiqarish.
- 3) Har bir bola iqtidorini rivojlantirish.
- 4) Manfaaddorlikka ishontirish.
- 5) Muammolarni hal qilishga yo'naltirish.
- 6) SHaxs ijodiy fikrlashini yuksaltirish.

- 7) Nazariy fikrlarga amaliy shakllar berish.
- 8) Bilimlarni harakatga aylantirish.
- 9) Pragmativ fikrleydigan shaxsni tarbiyalash.
- 10) Mehnatga ishtiyoq uyg'otish, tirishqoq va serg'ayrat shaxsni tarbiyalash.
- 11) SHaxsni o'z ustida qunt bilan ishlashga o'rgatish.
- 12) O'z ishonchini qaror toptirishdan manfaatdorlikka undash.
- 13) Milliy g'ururi baland, mas'uliyatli, intizomli shaxsni rivojlantirish.
- 14) Kelajakka ishonch uyg'otish.

Milliy g'oya, milliy mafkurani odamlarning erkin hayot, obod va ozod Vatan qurish yo'lidagi intilishlarini umumlashtiradigan davlat va nodavlat, mustaqil tashkilotlar imkoniyatidan to'la foydalanish va ularni tashkil etish zarur.

Farb mamlakatlari xalqlari uchun ijtimoiy birlashuv jarayonlariga ularning hulqidagi ratsionalizm, individualizm xalaqit berib tursa, o'zbeklar azaldan ma'naviy integratsiyaga, ijtimoiylashuvga moyil xalqdir. O'zbekning har bir odati, ma'raka va marosimlari kishilarni birlashtirish orqali yuz beradi. O'zbek mentalitetidan mafkura masalalarida foydalanish uchun bu mentalitetning tarkibi, tarixi, hozirgi holati va o'ziga xosligini puxta hisobga olish zarur. Bular:

1) Fe'l-atvor tizimida 4 ta superetnos (turkiy, forsiy, arabiy, rus-slavyan) tizimida ana shu xalqlar tabiati va mafkuraviy ta'siri ko'rinib turadi.

2) Jamoaviylik, e'tiqodda mustahkamlik, urf-odat, marosim orqali o'zlikni ifodalash fazilatlaridan unumli foydalanish lozim.

3) Ijtimoiy loqaydlik, befarqlik kabi salbiy noqis xususiyatlarini bilish darkor.

4) Psixologiyasida aniq xarakterga ega emaslik omili yotadi.

5) Ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy sohalarda aqliy - emotsional me'yorlarga rioya etmaslik katta qusuri, xususiyati ham bor.

6) Kitob o'qish darajasining pasayganligi, bu vorislik an'analariga jiddiy putur etkazadi.

**Kadrlar tayyorlash milliy dastur ida ilk bor mamlakatimiz ta'lim tizimida texnologiyalashtirish muammosi davlatning muhim buyurtmasi sifatida e'tirof etilib, o'quv tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'lik ta'minlanganligini ta'kidlash joiz. Barcha sohalar kabi ta'limni ham raqamlashtirish turli qog'ozbozliklar, turli illatlardan forig' bo'lishga olib keladi.**

SHunday sharoitda jamiyatning harakatlantiruvchi kuchlari bo'lgan ziyolilardan, nafaqat siyosiy-ma'rifiy, balki axloqiy-tarbiyaviy ta'sir ko'lamini kengaytirish kerak bo'ladi. Donolardan qolgan o'gitga ko'ra, maqsadni emas, maqsadga olib boruvchi yo'lni izlash kerak. Tarbiya-tarbiya uchun deb hammamiz tarbiyachilikni maqsad qilib olganmiz. Lekin ana shu biz berayotgan bilim, ma'ruzalar bolalar qalbiga kirib borayaptimi yoki ichki ruhiy qarshilik paydo qilib, tarbiyalanuvchilarning ko'ngliga urayaptimi? Yoshlar qalbiga ham quloq solish kerak. Hozirgi paytda rivojlangan davlatlar qudratli targ'ibot tizimiga ega bo'lishga intilmoqda. Masalan, o'z faoliyatining targ'ibotiga AQSH hukumati yiliga milliardlab dollar sarflayapti. Fransiya ham o'z siyosatini aholiga tushuntirish ishlariga yiliga millionlab frank sarflamoqdi. Bu ma'lumot targ'ibotlar nafaqat dinda, biznesda balki siyosatda ham, ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ham muhim ahamiyatga ega. Demak, rivojlangan demokratik davlatlar ham mafkuraviy faoliyatdan sira voz kechmagan.

Puxta ishlab chiqilgan strategik yo'nalish shu maqsadlar sari insonlarni safarbar qilish, ularni g'oyalar shaklida singdirish zaruratga aylanmoqda. Inson qadrini ulug'lash, YAngi O'zbekiston g'oyasini targ'ib etish har qachongidan muhimroqdir.

Milliy g'oyani O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarining hisobga olingan holda, yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muayyan tizimi va ustuvor yo'nalishlari mavjud. Bunda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanishni taqozo etiladi.

Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo - saodat - yo falokat

masalasi” deganlarida avvalo *farzand* tarbiyasini, *avlod* tarbiyasini, qolaversa *millat tarbiyasini* nazarda tutib aytgan edi.

Darhaqiqat, har bir davlat o‘z fuqarolari bilimli, haq-huquqini taniydigan, ma’naviy barkamol, bir so‘z bilan aytganda, *komil inson* bo‘lib voyaga etishi haqida qayg‘uradi. **Komil inson** azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma’na-viyatining uzviy bir qismi bo‘lib kelgan. U islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma’no-mazmun, kasb etgan. Tasavvur (so‘fiylik) ta’limotida inson ruhiy kamolotga erishishining asosiy yo‘nalishi-yo‘llari 4 bosqichdan iborat deb hisoblaydi: 1) shariat; 2) tariqat; 3) ma’rifat; 4) haqiqat. Barkamol inson haqidagi yuksak g‘oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida, ayniqsa teran ifoda etilgan. Aslida **komil inson**, bu - tariqat va riyozat yo‘li bilan qo‘lga kiradigan yuksak martabadir. Voiz Koshifay “Futuvvatnomai sultoniy” asarida tasavvufning komillikka daxldor binosi o‘nta asosga qurilgani aytiladi: 1) ilm; 2) hilm; 3) taqvo; 4) saho; 5) shukr; 6) sidq; 7) vafo; 8) rizo; 9) safro; 10) ishq.

Biroq ta’kidlash joizki, turli davlatlarda “barkamol inson” tushunchasiga turli sifatlar nisbati beriladi. Har bir davlat o‘z fuqarolarida zamon talablariga mos sifatlar va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarni qaror toptirishga harakat qiladi. Doimiy yuksalish haqida qayg‘uradigan etakchi davlatlarning bu boradagi tajribasi bilan tanishish foydadan xoli emas.

AQSHda fuqaro va yoshlarni g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyalash masalasi. Amerikaliklarga qanday g‘oya va qadriyatlar singdirilmoqda? Fuqaro va yoshlar tarbiyasi qanday g‘oyaviy ustunlarga tayanadi.

AQSH fuqarolari Konstitutsiyani, Amerika davlatchiligining asos-lari va demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar va bu tuyg‘uni yoshlar ongiga singdirish haqida tinimsiz qayg‘uradilar. YOshlarda erkin yashashga ishtiyoq, mustaqillikni qadrlash tuyg‘usi shakllantiriladi.

AQSH ning fan va texnologiyalar sohasida boshqa davlatlardan o‘zib ketgan-ligining sababi shundaki, avvalo Amerikada erkin va ijodiy fikr qadrlanadi hamda o‘zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan bag‘rikenglik qaror toptirilgan. Lekin



amerikalik fuqaroni tarbiyalashning eng asosiy jihati boshqa bir g'oyada yashirin. U ham bo'lsa, har bir insonni noyob iste'dod egasi deb bilish, har bir shaxsga hazrati inson sifatida murojaat qilishdir.

Insonga bunday munosabat, so'zsiz, uning salohiyatini yuzaga chiqa-rishga imkon beradi. Aynan shu g'oya ta'sirida amerikaliklar orasida o'zini "o'rtamiyona odam" deb biladigan yoxud "men bir oddiy odam" deb gapiradigan kishilar nihoyatda kam uchraydi. Amerika fuqarolari adolatni ham o'ziga xos tarzda tushunadilar: shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o'z aqli va iste'dodi bilangina etishadi.

SHunday qilib, har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. Har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg'otiladi. Huddi ana shu "Amerika orzusi" kishilarni yangi maqsadlar sari rag'batlantiradi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga shavq uyg'otadi. Umuman, demokratiya qoidalari va erkinlik Amerika mafkurasining poydevorini tashkil etadi. Bunday tarbiya natijasida faqat o'z kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qon-qoniga singib ketgan.

Albatta, "AQSH da bu borada muammo yo'q ekan" degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Oxirgi paytlarda erkinlikka hadeb urg'u beraverish oqibatida amerikaliklar erkinlikni jamiyat oldidagi majburiyatlardan ham ozodlik sifatida idrok eta boshladilar. SHu bois hozirgi kunda AQSHning ziyolilari tomonidan yangi mafkura - "liberal - natsionalizm" mafkurasini yaratish zarurligi haqidagi fikr o'rtaga tashlanmoqda. Bu mafkura milliy va irqiy jihatdan bo'linib ketgan ko'p sonli ijtimoiy guruhlarni "AQSH - millatlar hamjamiyatida" g'oyasi atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. E'tibor beradigan bo'lsak, yangi mafkurada milliy omilning ustuvorligi o'rnatilmoqda. Demak, gap AQSHda asta-sekinlik bilan yagona milliy vujudni shakllantirish, xalqning birdamligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mafkurani yaratish haqida borayotir.

Sharqning eng ilg'or mamlakatlaridan biri Yaponiyada fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani

sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi “ahloqiy tarbiya” tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda “axloqiy tarbiya” tizimi quyidagicha nomlanadi: 1) “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim”; 2) “davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat”; 3).“fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash”.

Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o‘taydi. Undan qudratli g‘oyaviy ta‘sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko‘pchilik olimlarning fikricha, aynan “axloqiy tarbiya” tizimi YAponiya mamlakati iqtisodiy ravnaqining g‘oyaviy asosini tashkil qiladi. Chunki bu tizim ishlab chiqarishda ma‘naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo‘naltirilgan. SHu boisdan ham ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679) “Davlatning qandayligi haqida xulosa chiqarish uchun avvalo odamlarning axloqi, qiziqishlari va fe‘l-atvorini o‘rganish joizdir” degan edi.

Ikkinchi jahon urushidan xaroba bo‘lib chiqqan YAponiya mamlakatining 30-40 yilda ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘ringa chiqib olgani ko‘pchilikning xayratini uyg‘otadi. “Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtda hunarmandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tganligini qanday tushuntirish mumkin?”. Mazkur savolga yaponlar quyidagicha javob beradilar: *Salohiyat insonlarda yashirin*. YAponiya menejmentining oltin qoidasiga ko‘ra, insondan qimmatroq boylik yo‘q. YApon kishisida quyidagi qadriyat va sifatlar qaror toptiriladi:

*Mehnatsevarlik, intizomlilik va jamoaviylik* yapon milliy xarakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Biroq, davlat bu bilan qanoatlanmay, o‘z fuqarolarida ushbu sifatlarni mustahkamlash va kuchaytirish vazifasini *maorifga* yuklaydi. Natijada, maktablarda *guruhiy birdamlikni tarbiyalashga* alohida e‘tibor qaratiladi. Bunda kollektivning yutug‘i ham, mag‘lubiyati ham guruhning har bir a‘zosiga bog‘liq ekanligi haqidagi g‘oya singdiriladi, o‘z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas‘uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko‘rgan fuqaro jamoa muammolarini o‘zining shaxsiy muammolari sifatida qabul qiladi. Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhiy “birdamlik”

(yaponchada “aydagarasyugi”) tufayli mamlakat misli ko‘rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi.

Mehnat yapon kishisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi. Uning qadriyat darajasiga ko‘tarilishida “axloqiy tarbiya” tizimining roli beqiyos. Gap shundaki, yapon kishisiga maktabdayoq quyidagi g‘oyalar singdiriladi: 1)“Faqat tirishqoqlik va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin”, 2). O‘z ustingda tinimsiz ishla - shunda birovdan kam bo‘lmaysan”. Bu kabi g‘oyalar ta‘sirida ulg‘aygan yapon kishisi o‘zining barcha harakatlarini quyidagi mantiqqa bo‘ysundiradi: “*Bor imkoniyatlaringni ishga sol!*”

Shunday qilib, davlat o‘z fuqarolarida tirishqoqlik va hafsala, qunt va g‘ayratni maqsadli ravishda qaror toptiradi. Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa yaponlar boshqalarga o‘rnak bo‘la oladi. “Ahloqiy tarbiya” natijasida YAponiyada fuqarolar mehnat inti-zomining buzilishini shunchaki salbiy illat deb hisoblamay, balki uni Vatanga hiyonat deb qabul qiladilar. YAponiyada *fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi*. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch deb biladilar. Ko‘rinib, turibdiki, millat kelajagini o‘ylaydigan hech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e‘tiborsiz qoldira olmaydi.

Adabiyot va san‘at sohasida ijod ahlining g‘oyaviy-badiiy salohiyatini komil inson tarbiyasiga yo‘naltirish ustuvor yo‘nalish bo‘lishi darkor. Ijodkorlarni murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalarini, bugungi hayot voqeligini, olijanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san‘at asarlarini yaratishga har tomonlama rag‘batlantirish. YOshlarga ibrat bo‘ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini barpo etish. Milliy g‘oyani tarannum etishga, istiqlol mafkurasiga zid g‘oyalarning zararli mohiyatini ochib berishga ayniqsa e‘tiborni kuchaytirish zarur. Hayot va ijoddagi mahdudlik hamda fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara, tanqid va tahlillar orqali mafkura muhitining sog‘lom bo‘lishiga erishish. O‘qituvchi, bugungi musiqamiz holati va zamonaviy musiqaning ahvolini qiyosiy tahlil etishi, mamlakatimizda teatr va kino san‘atiga bo‘lgan e‘tiborni keng tushuntirishi kerak bo‘ladi.

Adabiyot va san'at asarlari milliy-ma'naviy qadriyatlar tizimiga kirib, unda "milliylik", "madaniyat" va "ma'naviyat" tushunchalari tushunchalari tutashgan nuqtada milliy g'oya negizlarini o'z tarkibiga oladi. Insoniyat tafakkuridagi g'oyalarning dastlabki sarchashmalari adabiyot va san'at asarlarida o'z ifodasini topib, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida real mohiyat kasb etadi. Adabiyot va san'at inson tafakkurining, ma'naviyatining asosi va bosh mezonidir. CHunki unda hayot aks etadi. Ammo o'z holicha ko'zgudagidek emas, balki muallif maqsadiga bo'ysunib, uning nigohi orqali bizga ko'rinadi. Kishilar tafakkurida kechayotgan jarayonlar badiiylashtirilgan obrazlar orqali ifodalansa, boshqalar ongiga etib borishi mustahkam o'rin olishi tezlashadi.

Ilm inson aqliga taalluqli bo'lsa, haqiqiy san'at asari insonning ham aqli ham tuyg'ularini jumbushga keltiradi. SHu sababli san'atning ilmdan qamrovi kengroq .San'atning ta'sir kuchi timsoliy tafakkur qudratidandir.

SHu bilan birga adabiyot va san'at odamlarga u yoki bu axborotni badiiy ifoda vositalari bilan jo'shqin emotsional tarzda etazib, kishilar fikri, dnyoqarashiga ulkan ta'sir ko'rsatish kuchiga ega.

**O'qitish texnologiyasi atamasining vujudga kelishi hamda mazmun-mohiyati.** "O'qitish texnologiyasi" atamasining paydo bo'lishi tasodif emas. Mustaqillik sharofati ila barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi:

-mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishning O'zbek modeli yaratildi;

-kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mexnat turi sifatida bundan mustasno emas. Bugun davr o'zgardi, ayniqsa, zamonaviy mutahassis talablar davlat ta'lim standartlari doirasida kuchaytirildi: mustaqil bilimlarni to'ldirish va yangilash ko'nikmasi, izlanish olib borish, yangi echimlar topish, ijodkor shaxs bo'lish, mustaqil fikr yuritish kabilar shaxs sifatlari tarkibiga kirib ulgurdi. Bundan o'qitish jarayoniga tegishli qator holatlar kelib chiqadi, chunonchi, mustaqil ta'lim salohiyati kuchaydi,

yakka tartibda o'qitishga ehtiyoj sezilyapti, uning metodologik ahamiyati oshmoqda, ijodiy tafakkurni shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xo'sh, ta'limda izoxli tasvirli yondashuv — an'anaviy o'qitish texnologik yondashuvga o'z o'rnini bo'shatib berayotgani, ya'ni o'qitish jarayonini texnologiyalashtirish XXI asrda ustuvorlik kasb etayotganining boisi nimada? **Birinchidan**, an'anaviy o'qitish yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'radi hamda "axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanadi. Bunda o'qituvchi nafaqat talaba yoshlarning o'quv bilish faoliyatini boshqaruvchisiga, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolayotganligi xavfli holatdir. **Ikkinchidan**, axborotlar hajmining ko'payib borishi, ulardan foydalanish uchun vaqtning cheklangani hamda ularni saralash va tizimlashtirishning birmuncha murakkabligi xam yangicha yondashuvlarni takozo etadi. **Uchinchidan**, sanoat va boshqa texnologiyalarning auditoriyaga uzluksiz kirib kelishi va jonli o'quv ob'ektlariga aylanishi o'qituvchining an'anaviy metodika doirasidan chikib ketishiga va tabiiy ravishda, texnologik yondashuvlarni qo'llashga extiyojni tug'dirmokda. SHunday kilib, kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilk bor mamlakatimiz ta'lim tizimida texnologiyalashtirish muammosi davlatning muhim buyurtmasi sifatida e'tirof etildi: o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlandi. Bugun "o'qitish texnologiyasi" tushunchasi bilan bir katorada, ilmiy-metodik va ommabop adabiyotlarda "pedagogik texnologiya", "ta'limiy texnologiya", "tarbiya texnologiyasi" xatto "rivojlantirish texnologiyasi" atamaları keng qo'llanilmoqdaki, hozirgacha ular o'rtasidagi farqli jihatlar aniqlangani yo'q.

### **Tayanch so'z va tushunchalar**

**Targ'ibot** - insonni biror harakatga rag'batlantirish, "inson qalbining sozlovchilari". **Tashviqot** - kishida biror narsaga shavq uyg'otishga yo'naltirish. **Avtoritar tarbiya** - diktaturaviy tarbiya. **Kommunikativ** - muloqot. **Ommaviy axborot** vositalari - eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasi. **Ozodlik** - barcha demokratik erkinliklarga erishishning, haq-huquq-lari kafolatlangan va ta'minlangan jamiyatning bosh sharti. **Mustaqillik** - bu huquq. **Obod Vatan** - fuqarolari erkin, ozod,

yaratuvchilik faoliyati bilan band bo'lgan, xavfsizligi ta'minlangan farovon hayot qurish makoni. **Erkinlik** - bosh g'oyadagi inson hayotining mohiyati. **Demokratiya** - xalq hokimiyati. **Fuqarolik jamiyati** - iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohasiga to'g'ri keladigan tushuncha.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Milliy g'oya targ'iboti subektlarini sanang.
2. Targ'ibot texnologiyalarining an'anaviy va zamonaviy ko'rinishlarini ayting.
3. O'qitish texnologiyasi atamasi haqida fikringiz.
4. Fuqarolik jamiyatini bayon eting?
5. Milliy g'oya targ'ibotida adabiyot va san'atning roli nimada ko'rinadi?
6. Mafkuraviy g'oyaviy tarbiyaning mohiyati nima?

### **O'z-o'zini tekshirish chun test**

- 1. Xudbinlikni targ'ib qiluvchi mafkura nima deb ataladi?**
  - a). Kosmopolitizm
  - b). SHovinizm
  - v). Egotsentrizm
- 2. Milliy g'oyaning mohiyati qaysi javobda aniq ko'rsatilgan?**
  - a). Xalq baxt saodati, shaxs erkinligi, oila totuvligi
  - b). YUrt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi
  - v). Vatan ravnaqi, mahalla obodligi, inson huquqlari
- 3. Dunyo fuqarosi mafkurasining xavfi nimadan iborat?**
  - a). YOshlarga bewatanlik g'oyasini singdirish
  - b). YOshlarga shovinizm g'oyasini singdirish
  - v). YOshlarga millatchilik g'oyasini singdirish
- 4. Targ'ibot so'zining ma'nosi qaysi ustunda to'g'ri berilgan.**
  - a). Insonni biror harakatga rag'batlantirish
  - b). Insonni tarbiyalash
  - v). Insonni to'g'ri yo'lga boshlash

## **4- MAVZU MILLIY G'OYA FANINING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA O'QITISH NAZARIYASI.**

**1.Mamlakatimizda mafkuraviy maksadlarning tubdan yangilanishi**, milliy g'oyaning omma ongiga uzluksiz singdirib borilishi pedagogik tafakkurni xam o'zgartirayotganligi masallarini ko'rib chiqish masadga muvofiqdir. Mafkuraviy jarayonlar pedagogik voqelikni aks ettiradigan ta'limiy faoliyat loyihalarini asoslaydigan fan sohasini qamrab olishi bilan bog'liq jihatlar tahlili. **Milliy g'oya fanini pedagogik texnologiya asosida o'qitish konsepsiyasi.** Bugungi kunda mafkuraviy jarayonlarning yangilanib borishi, milliy g'oyani omma ongiga uzluksiz singdirib borilishi pedagogik tafakkurni ham o'zgartirmoqda. Olimlar oliy maktab o'qitish tizimida ma'ruzaning o'rnini alohida e'tirof etib, uning kamchiliklarini ham ko'rsatmoqda:

- ma'ruza talabani o'zgaralar fikrini sust qabul qilishga o'rgatib qo'yadi, mustaqil fikrlashini bo'g'adi;
- ma'ruza mustaqil shug'ullanishga moyillikni pasaytiradi;
- ma'ruza darsliklar yo'q yoki kam bo'lgan hollardagina kerak;
- ma'ruza davomida ba'zi talabalar mulohaza yuritishga ulgurishadi, biroq aksariyati matnni mexanik tarzda yozib boradi;
- auditoriyani boshqarish murakkablashadi, teskari aloqaning yo'qligi o'qituvchiga o'z faoliyatini kuzatishga imkon bermaydi.

Pedagogik texnologiya mavzulari bo'yicha oldindan loyixalanib, o'qitish jarayoniga ko'chirilsa, yakuniy natijani (talabaning o'quv materialini kamida 55% o'zlashtirishini) kafolatlash mumkin. SHu bilan birgalikda har qanday pedagogik texnologiya asosini ilmiy jihatdan quriladigan didaktik jarayon tashkil etadi. Uni ajratilgan o'quv vaqti doirasida muvaffaqiyatli amalga oshirish oliy o'quv yurti o'qituvchisining pedogogik mahorati darajasini belgilab beradi. Asosiy kanal (1) orqali o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quv elementlarining ro'yxati mazmuni ma'lum vaqt oralig'ida talabalarga etkaziladi. Bu jarayonda yangi bilimlarni qabul qilish, tushunish, o'zlashtirish amalga oshiriladi. Talabadan teskari aloqa (3) vositasi orqali tegishli aloqalar o'qituvchiga etib boradi, ya'ni o'qitish jarayoni natijalari to'g'risida ma'lumot olinadi. Bugun

qo'llanilayotgan reyting tizimi aynan shu vazifani bajarish lozim. O'qituvchida talabalarning o'zlashtirish darajasi to'g'risida aniq ma'lumot bo'lsagina, u o'quv-bilish faoliyatini samarali boshqarishi, tegishli axborotning mazmuniga zaruriy tuzatishlar kiritishi mumkin. SHu o'rinda biz ziddiyatli holatga e'tibor qaqrtmoqchimiz: professor-o'qituvchilar tortishuvlarga sabab bo'layotgan holatni aniqlashtirib olish kerak. Talabalar bilimni qaysi uslub yordamida nazorat qilish va baholash kerak? YOzma yoki og'zaki so'rov maqulmi, yo test-reyting maqulmi? Biroq o'qituvchi e'tiboridan reytingdan ko'zlangan maqsad - natijalar asosida o'z faoliyatini korreksiyalash (tuzatib borish) zarurati chetda qolib ketyapti. O'qituvchi nima uchun bir xil sharoitda talaba o'quv materiallarini yaxshi o'zlashtirayapti, degan savolga javob topishi kerak. SHunday qilib, mazkur texnologik jarayon tuzilmasi samaradorligini oshirish uchun:

1) talabalarga etkazilayotgan ilk o'quv axborotlarining to'liq mazmunini aniqlash;

2) talabalarning bilish faoliyatini samarali boshqarishni rejalashtirish va amalga oshirish;

3) "o'z-o'zini o'qitish" asosida talabaning o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlaridan keng foydalanish;

4) Talabalarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilishni tashkil etish zarur.

Milliy g'oya targ'ibotida bir qancha ilmiy negiz va asoslarga ega bo'lgan bir qancha targ'ibot usullaridan foydalaniladi va ular quyidagilar:

1. "Ekspert baholash" usuli;
2. "Delfi" usuli;
3. "Pattern" usuli;
4. "O'yinlar nazariyasi" usuli;
5. "Fokus guruhlar tashkil qilish" usuli va hak.

**"Ekspert baholash"** usuli bugungi kunda keng qo'llanilayotgan usullaridan biri bo'lib, uni vujudga kelishi bevosita Ikkinchi jahon urushidan so'ng etilgan iqtisodiy va siyosiy muammolari echimini topishga doir tadqiqotlar bilan bog'liqdir. Uning asosiy mazmuni - mutaxassislar fikrlari va qarashlari asosida biror bir jarayonning kelajakdagi ahvolini



o'rganish va tadqiq qilishdir. Bu usulning ijobiy xususiyatlaridan biri - uni asosan ilmiy mezonlarga tayanganligi bilan ajralib turadi. Ekspert baholari o'z navbatida 2 ga ajratiladi: **individual baholash** va **jamoaviy baholash**. **Individual baholashda** faqatgina bir mutaxassisning fikri inobatga olinadi, muammoning darajasiga (jiddiyligiga) qarab, esa jamoaviy xulosalar va baholar beriladi. Ushbu usulning milliy g'oya targ'ibotida muhim ahamiyati shundan iboratki, targ'ibot jarayonida mavjud bo'ladigan va kuzatiladigan muammolarni, (ham targ'ibotchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi) ilmiy asosda echimini topilishiga imkon beradi va bu kelajakda targ'ibotni keng ko'lamda amalga oshirishda o'zining samarasini beradi.

"Ekspert baholash" usulining davomi sifatida talqin qilinadigan usullardan biri - "**Delfi**" usuli bo'lib, unga bunday nom berilishining asosiy sababi, qadimda YUnonistonda biror hodisa-jarayon haqida xulosalar va taxminlar qilish jarayonida bir guruh qoxinlar Delfi (Gretsiyaning shimolida) ibodatxonasida yig'ilishgan va atamaga ana shu joyning nisbati berilgan. Ammo bu nomdagi usulning paydo bo'lishi AQSHda, 1960 yillarning boshlariga to'g'ri keladi va kelajakdagi ilmiy-texnikaviy jarayonlarning holati haqida tasavvur beruvchi usuldir. Bu usul davomida dastlab biror bir hodisa va jarayonning dastlabki holati haqida fikr ilgari suriladi va shu holat davomida vujudga keladigan har qanday mazmundagi (katta yoki kichik) muammolarni ilmiy dalillar asosida to'la o'rganiladi va avvalgi ko'rsatib berilgan jarayonlar o'rtasidagi ma'lumotlar saralab olinib, uni umumiy jamoaning fikrlari sifatida qabul qilinadi. Bu usulning yana bir muhim jihatlaridan biri uni ekspert guruxlarning aniq matematik xulosalari asosiga qurilganligi, muammoga nisbatan paydo bo'ladigan savollarga birgalikdagi munosabat bildirishga qodir bo'lgan fikrlar xilma-xilligiga ega bo'lganligidadir. Jamiyat rivojlanishining asosiy mazmun-mohiyati, unda ilgari surilayotgan g'oyalar va mafkuralarning maqsadi, qarashlari, intilishlari bilan bilan chambarchas bog'liqdir. Ayni shu ma'noda ana shu jamiyatning barcha a'zolari mana shu g'oya va mafkurani to'la anglab etgandagina, uning kelajagi porloq bo'ladi. Milliy g'oya targ'iboti o'z navbatida, mana

shu maqsadlarni birlashtiruvchi asosiy manba vazifasini bajaradi va turli usullar va tamoyillarga tayanadi. “Delfi” usulining milliy g’oya targ’ibotidagi o’rni shundan iboratki, avvalo, uni oddiy nazariya va qarashlarga emas, balki aniq maqsad sari intiluvchi ilmiy farazlarga ega bo’lganligidadir. Ma’lumki, targ’ibot oddiy ko’rinsa-da, ammo doimo bir yo’nalishda amalga oshirilmaydi, u turli yo’nalishlar va targ’ibot-tashviqot a’zolarining turli-tumanligiga asoslanadi. SHu o’rinda aynan “Delfi” usuli targ’ibot davomidagi nafaqat mavjud bo’lgan, balki, kutilishi mumkin bo’lgan muammolarni ham mutaxassislar yordamida o’rganib bartaraf etib borilishi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy ilmiy farazlar va targ’ibot dasturlarida keng qo’llanilayotgan usullardan biri - **“Pattern”** (Planning Assistance Through Technical Relevance Number so’zlarining inglizcha qisqartmasidan olingan) usuli bo’lib, u ham AQSHning boshqa “g’oya markazi” ya’ni, “Xonduell Inkorporeytid” tashkiloti tomonidan 60-yillarning oxirlarida ishlab chiqilgan. Va dastlab bu usul AQSHning mudofaa, harbiy-siyosiy maqsadlari uchun xizmat qiladi. Ushbu usulning mohiyati o’zi uchun kerakli bo’lgan voqea hodisalar to’g’risida ma’lumotlar yig’iladi. Va uni amalga oshirish uchun “Pattern” usulining birinchi qoidasi ya’ni amalga oshiriladigan “maqsadlar daraxtini” chizib olinadi va o’sha vaqtdagi muammolarga asoslanadi. SHu bilan shu muammoning holati bilan, keyingi jarayonlarning samarasi belgilab beriladi. Milliy g’oya targ’ibotida dastlabki jarayon bilan keyingi natijalarni bog’lab borish alohida ahamiyat kasb etadi. CHunki, milliy g’oya targ’iboti fikrlar erkinligi va hodisalarning turli-tumanligiga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Bu usulning milliy g’oya targ’ibotida qo’llanilishining asosiy mazmunini belgilab beruvchi xususiyatlaridan biri avvalo muammoni o’rganishga nisbatan “maqsadlar daraxtini” tuzilishidir. Va ayni shu erda, amalga oshiriladigan barcha ishlarning rejasi ishlab chiqiladi, shuningdek kutilajak muammolarni ilmiy tahlillar va nazariyalar asosida “xavfi” bartaraf etiladi.

Milliy g’oya targ’ibotida eng ko’p qo’llaniladigan usullardan biri - **“Fokus guruhlar”**dir. Aslida bu usulning paydo bo’lishi sotsiologiya fani bilan bog’liqdir. Ammo sotsiologiyaning o’zi

jamiyatni tadqiq qiluvchi fan bo'lgani uchun, ushbu usulning "qadri" jamiyatning boshqa sohalari uchun ham birdek qimmatlidir. Bu usulning mohiyati - tanlab olingan yoki boshqa guruhlarni intervyu asosida fikrlari o'rganish va shu asosida, qo'yilgan muammoning manzarasi ochib beriladi va bartaraf etiladi. Milliy g'oya targ'ibotida bu usulning qo'llanilishi, avvalo, targ'ibot samarasini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatdagi u yoki bu guruh ichidan ixtiyoriy tanlov asosida saralab olingan respondentlarning fikrlari asosida ana shu jamiyatda milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirishga doir fikrlar, yo'nalish va albatta ilmiy nazariyalar ilgari suriladi.

G'oya targ'iboti alohida mazmun kasb etadigan usullardan biri bu - "**O'yinlar nazariyasi**" usulidir. Bu usulning umumiy tuzilishi o'yinlardagi optimal maqsadlarni aniqlashning matematik qonuniyatlar asosida o'rganilishidir. O'yin deyilganda, bu erda biror-bir jarayonni tushuniladi. Bu usul davomida ma'lum bir maqsadlar ilgari surilgan holatni tahlil qilish jarayonida ikki yoki undan ortiq guruhlarga bo'linadi va guruhlar o'z manfaatlarini uchun kurashadi, aynan ma'qul deb topilgan guruh va uning maqsadi etakchi darajaga chiqariladi. Bu usul milliy g'oya targ'iboti bilan bilvosita chambarchas bo'lib, aynan g'oya targ'ibotining targ'iboti samarasi ham fikrlar, qarashlar erkinligi bilan izohlanadi.

**O'qitish texnologiyalarini loyihalash qonunlari.** O'qitish texnologiyasi (jarayon sifatida) – pedagogik jarayonlar, amal va usullar ketma-ketligi (qat'iy tartib shart emas) bo'lib, yaxlit didaktik tizimni tashkil etadi, u pedagogik amaliyotga joriy etilishi bilan kafolatli o'quv maqsadiga erishiladi va talaba shaxsning to'liq rivojlanishiga imkon yaratadi. Texnologiyani tashkil etadigan jarayonlar, amal va usullarni muayyan pedagogik natijaga erishish yo'lini batafsil yoritadigan algoritm sifatida talqin qilish yaramaydi. Ularga yaxlit tarzda ta'lim sub'ektlarining berilgan maqsadlarga harakatlanishini ta'minlovchi tayanch didaktik vositalar sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, **o'qitish texnologiyasi** deganda, didaktik masalalar echimiga yo'naltirilgan yoki oldindan loyihalangan pedagogik jarayonni amaliyotga rejali va izchil tadbiiq etadigan pedagogning

ketma - ketli o'zaro bog'liq harakatlari tizimi tushuniladi. Ta'kidlash joizki, o'qitish texnologiyasi nafaqat didaktik jarayonning o'zi sifatida, balki uni pedagog faoliyatining loyihalash natijasi sifatida ham qaralishi mumkin.

### **Mavzuni mustahkamlash bo'yicha savollar**

1. Milliy g'oya fanini pedagogik texnologiya asosida o'qitish konsepsiyasi haqida nima bilasiz?

2. Texnologik yondoshuvning izohli-tasvirli yondashuvdan farqli jihatlarini ayting.

3. O'qitish texnologiyalarini loyihalash qonunlari qanday?

## **5- MAVZU. MILLIY G'OYA TARG'IBOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI.**

**Milliy g'oya targ'ibotini jamiyat hayoti sohalari bilan bog'liqligi.** Milliy g'oya targ'ibotini jamiyat hayoti sohalari bilan bog'liqligini va uning ko'rinishlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. "**Jamiyat hayoti sohasi**" deganda, uning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini tushuniladi. Milliy g'oya targ'ibotida quyidagi muhim xususiyatlarni hisobga olish muhim. Ular:

1) Milliy g'oya mavhum tushuncha emas. Unda jamiyat hayotining moddiy va ma'naviy jihatlarini aks etadi;

2) Milliy g'oya iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Milliy g'oyaning maqsadlari iqtisodiy hayotning yutuqlari orqali ifodalanadi;

3) Ijtimoiy-siyosiy hayot sohalari ham milliy g'oya maqsadlari bilan uzviy bog'liq;

4) Milliy g'oya ma'naviy-ma'rifiy hayot sohasi bilan ham bevosita aloqador. Uni jamiyat hayotining boshqa sohalardan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Targ'ibot ana shu qonuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi. "...moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga"<sup>6</sup> qiyoslaydi va ushbu fikrni davom etib "Qachonki, ana

---

<sup>6</sup> Қаранг: Каримов И.А. "Юксак маънавият – енгилмас куч". Т: "Маънавият", 2008. – Б.67.

shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodaga qush qanotiga aylansa, shundagina inson, jamiyat va davlat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi"<sup>7</sup> deb alohida qayd etadi. Bu, milliy g'oya targ'ibotini jamiyat hayoti sohalari bilan bog'liqligini tushuntirishda muhim nazariy-konseptual ahamiyatga ega.

Miliy g'oya har bir inson va xalqning, millatning eng ezgu orzu niyatlari, intilishlari sifatida ularning erkin va farovon hayotda yashash maqsadlarini o'zida mujassam etadi. "Tabiiyki, milliy g'oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi"<sup>8</sup>. Bunga erishish insonlarning ruhiy dunyosiga, maqsad va intilishlariga, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotning mazmun-mohiyatiga bog'liq holda amalga oshadi. Masalan, rejali iqtisodga tayanib, farovon hayotni qurib bo'lmaydi. Yana, "ma'muriy-buyruqbozlik" tamoyillari asosida demokratik jamiyatni qurib bo'lmaydi. Boqimandalik ruhiyati saqlanib qolgan jamiyatda tadbirkorlik rivojlanmaydi. Demak, yurt tinchligi va Vatan ravnaqi mustahkam bo'lmaydi va hakazo.

Bizning bosh strategik maqsadimiz — bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. YUrtimizda yashaydigan barcha insonlar uchun, millati, tili va dinidan qat'i nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarni ta'minlash davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Bu — xalqimizning asriy an'alariga, muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatiga, milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda, rivojlangan davlatlarning tajribalaridan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirmasdan, o'zimizga xos va o'zimizga mos rivojlanish yo'lini izchil davom ettirish demakdir.

---

<sup>7</sup>Қаранг: Каримов И.А. "Юксак маънавият – енгилмас куч". Т: "Маънавият", 2008. – Б.67.

<sup>8</sup> Қаранг: Каримов И.А. "Юксак маънавият – енгилмас куч". Т: "Маънавият", 2008. – Б.72.

Ushbu strategik maqsadlar jamiyat hayotining barcha sohalariga dahddor bo'lgan quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

**Siyosiy sohada:**

Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash — mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishidir.

**Birinchidan,** mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish.

Bu jarayonda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, plyuralizm va inson haq-huquqlarini ta'minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga rioya etib yashash tamoyilini jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylantirish.

**Ikkinchidan,** jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik tamoyilini qaror toptirish.

**Uchinchidan,** demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun yanada kengroq shart-sharoit yaratish, hokimiyat tizimlari bo'linishining konstitutsiyaviy tamoyiliga qat'iy amal qilish, jamiyat a'zolarining barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini, tashabbus erkinligini ro'yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Bu — mamlakatimizda demokratiya tamoyillariga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchlarning sub'ektiv xoxish irodasiga qaram bo'lmasdan ishni faol tashkil qiladigan, o'z mohiyatiga ko'ra, jamiyatning olg'a siljishiga xalaqit berayotgan illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan samarali tizimni shakllantirish demaqqdir.

**To'rtinchidan,** mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalarining huquq va mavqeini oshirishni

ko'zda tutadigan "**Kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari**" konsepsiyasini hayotga joriy qilish.

Bu — odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgan sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi, ularga ko'proq huquqlar berilishi demakdir.

**Beshinchidan**, davlatning islohotchilik vazifalarini demokratik talablar asosida, xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos holda amalga oshiradigan iste'dodli, izlanuvchan, chuqur bilimli va yuksak malakali, Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli yosh kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va yangilashga imkon beradigan tizimni takomillashtirish.

Bu — hech qaysi zamonda osonlikcha hal bo'lmaydigan, odamlarning tafakkuri va dunyoqarashi o'zgarishini taqozo etadigan, odatda sub'ektivizm, manfaatgparastlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik kabi ko'p-ko'p illatlarni bartaraf etish, jamiyatni tubdan yangilashni talab qiladigan murakkab jarayondir.

#### **Iqtisodiy sohada:**

Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish — bu sohadagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridir.

**Birinchidan**, iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa — eng avvalo, davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini — funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash.

Bu — xususiy biznesga, umuman, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga ko'proq erkinlik berish, buning uchun tegishli huquqiy zamin, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlarni yaratish, institutsional o'zgarishlar, moliya va bank tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, rivojlangan bozor infratuzilmasini barpo etish, raqobat muhitini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratish demakdir,

**Ikkinchidan**, xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosda amadda mulkdorlar sinfini

shakllantirish, bu jarayonga tarmoqlarning asosini tashkil qiluvchi yirik korxonalarni jalb etish.

Bu — xususiy mulkning miqyosi va ulushi uzluksiz ortib boradigan ko'p ukladli iqqisodiyotni rivojlantirish, jamiyatda mulkdorlarning ko'pchilikni tashkil etishiga erishish orqali ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikni kafolatlash demakdir.

**Uchinchidan**, iqtisodiyotta xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqqisodiy omillarni yanada kuchaytirish.

Bu — salohiyatli xorijiy sheriklar bilan faol hamkorlik qilish, ular bilan birga zamonaviy, xalqimiz ehtiyojiga mos, dunyo bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshirish demakdir.

**To'rtinchidan**, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, uning xalqaro mehnat taqsimotida teng huquqli va o'zaro manfaatli shartlar asosida ishtirok etishi, iqtisodiyotimizning jahon iqqisodiy tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini yanada kuchaytirish.

Bu — Vatanimizning dunyo bozoridagi o'rni va nufuzini, fuqarolarimizning o'z yurti iqtisodiy salohiyati va qudrati bilan faxrlanish tuyg'usini yuksaltirish demaqqdir.

**Beshinchidan**, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish.

Bu — boy tabiiy zaxiralarimiz, intellektual hamda ilmiy-texnikaviy saloxiyatimizdan to'liq va samarali foydalakish, iqqisodiyotda mukammal texnologik jarayonni o'z ichiga oladigan, tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan, mineral va qishloq xo'jaligi xomashyosini sifatli qayta ishlaydigan quvvatlar etakchi o'rin tutishini ta'minlash, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, ularning iqqisodiyotdagi o'rnini kuchaytarish, qishloqda yangi ish o'rinlarini yaratish demaqqdir.

#### **Ijtimoiy sohada:**

Jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilayotgan, bozor munosabatlari ustuvor bo'lib borayotgan hozirgi sharoitda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish



taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolaberadi.

**Birinchi**dan, xalq moddiy farovonligini bosqichma-bosqich va izchil oshirib borishni ta'minlash, yurtdoshlarimizning munosib hayot kechirishi va kamol topishi uchun zarur shart sharoitlarni yaratish, aholini, eng avvalo, uning yordamga muhtoj qatlamlari — bolalar, qariyalar, nogironlar, o'quvchi yoshlarni ijtimoiy muhofazalashning aniq yo'naltirilgan mexanizmini yanada takomillashtirish.

**Ikkinchi**dan, xalqimiz uchun muqaddas qo'rg'on, ma'naviyat beshigi bo'lgan oila, onalar va ayollarimizning jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish.

**Uchinchi**dan, fuqarolarning huquqiy tengligi va qonun ustuvorligini, jamiyat manfaatlari va aholi xavfsizligini yanada samarali kafolatlovchi davlat tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish.

**To'rtinchi**dan, kelajagi buyuk davlatni sog'lom mafkurali, ma'naviy barkamol avlod barpo eta olishini nazarda tutib, komil insonni tarbiyalash borasidagi ishlarni istiqbolda ham davlat siyosati darajasida kuchaytirib borish va umumxalq harakatiga aylantirish.

#### **Ma'naviy sohada:**

Ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqpari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy g'oya va istiqloq mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik — bu boradagi asosiy vazifalarimizdir.

**Birinchi**dan, yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish. Ularning kuch va salohiyatlarini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ezgu maqsadlarga xizmat qildirish.

Bu - ma'naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish, ijgimoiy munosabatlarni insoniylik g'oyalari asosida rivojlantirish demakdir.

**Ikkinchidan,** turli qarash va fikrga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-ntilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oya — Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi — barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish.

Bu — ko'ppartiyaviylik va plyuralizm tamoyillariga amalda rioya qilgan holda, milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash demakdir.

**Uchinchidan,** ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish. Toki, bu din xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma'naviy hayotimizning ham asosi, muxtasar aytganda, Alloh doimo qalbimizda, yuragimizda ekani yurtdoshlarimiz ongiga singib borsin.

SHu ma'noda, buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshbandning "Diling Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin" degan hikmati biz uchun muhim hayotiy tamoyil bo'lib qolaveradi.

**To'rtinchidan,** Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida muttasil takomillashtirib borish.

Bu — davlatimiz qudrati, mamlakatimiz kelajagi bilimli, dono va ma'naviy barkamol kadrlarga bog'liq ekanini chuqur anglagan holda faoliyat yuritish demaqdir.

**Beshinchidan,** O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarni qadriyatlarini, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ko'maklashish.

Bu — ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida, ularning milliy va diniy mansubligidan qati nazar, hamjihatlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirish, "SHu aziz Vatan — barchamizniki" g'oyasining amalga oshirishini ta'minlash demakdir.

**Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari yo'nalishlari va vositalari.** O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini, milliy istiqloq mafkurasining mohiyatini keng

jamoatchilikka har tomonlama tushuntirish dolzarb vazifalardan biridir.

Istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Ular:

**Ta'lim va tarbiya.** Milliy mafkurani yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta'lim-tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi.

Bunda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

– ta'lim muassasalarida bolalar va talabalarining yoshiga mos ravishda milliy mafkurani singdirishning o'ziga xos pedagogik-psixologik dasturini yaratish; Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi-talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;

– o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini teran aks ettirish;

– maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish;

– pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

**Fan va ilmiy muassasalar** milliy mafkurani shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu borada quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi:

– aholining ijtimoiy xususiyatlarini (ma'lumoti, yoshi, jinsi, kasbi va boshqalar) hisobga olgan holda, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishning samarali yo'llarini keng ko'lamda ilmiy tadqiq etish;

– milliy istiqlol mafkurasining milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy, huquqiy, siyosiy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-psixologik asoslarini, urf-odatlar, an'analar va intellektual qadriyatlarining mafkurani shakllantirish va boyitishdagi o'rni va ta'siriga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini muntazam olib borish;

– mafkuralar kurashining jahonshumul jarayonini o'rganish, uning monitoringi, bu kurashning umumbashariy va mintaqaviy

muammolarini aniqlash;

– mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo‘llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Madaniyat va madaniy-ma‘rifiy muassasalar** mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog‘lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy-ma‘naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Bu dargoxlarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyatini har bir ijtimoiy qatlamga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo‘llanma va tavsiyalar tayyorlash ayniqsa muhim.

Madaniy-ma‘rifiy muassasalar yoshlarni haqiqiy san‘at, chinakam badiiy go‘zallik ruhida tarbiyalash maskanlari bo‘lmog‘i lozim.

Madaniyat va san‘at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, g‘oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot asarlarning etakchi o‘rinni egallab olishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyatga ega.

**Adabiyot va san‘at.** Bu sohada ijod ahlining g‘oyaviy-badiiy salohiyatini komil inson tarbiyasiga yo‘naltirish ustuvor yo‘nalish bo‘lishi darkor.

Ijodkorlarni murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalarini, bugungi hayot voqeligini, olijanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san‘at asarlari yaratishga har tomonlama rag‘batlantirish. YOshlarga ibrat bo‘ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini yaratish.

Milliy g‘oyani tarannum etishga, istiqlol mafkurasiga zid g‘oyalarning zararli mohiyatini ochib berishga ayniqsa e‘tiborni kuchaytirish zarur. Hayot va ijoddagi mahdudlik hamda fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara, tanqid va tahlillar orqali mafkuraviy muxitning sog‘lom bo‘lishiga erishish.

**Din.** Eng nozik va murakkab bo'lgan bu sohada, avvalo, din ma'naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri ekanini, barcha zamonlarda milliy g'oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg'un rivojlanishini nazarda tutish lozim. Din o'z mohiyatiga ko'ra poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ular orqali milliy istiqlol mafkurasining g'oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdiradi. Muqaddas dinimizga sog'lom va mo'tadil munosabatni shakllantirish — bu boradagi eng muhim mafkuraviy vazifadir.

**Jismoniy tarbiya va sport** sohasi insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga erishishida ham ulkan omildir. Sport irodani toblaydi, odamni aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan engishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Vatan, xalq shuxratini dunyoga tarannum etishda, yoshlarni **harbiy-vatanparvarlik** ruhida tarbiyalashda sportning o'rni beqiyosdir.

Sog'lom, bilimli va fidoyi farzandlari bo'lgan xalq albatta o'zining buyuk kelajagini barpo etadi. SHuning uchun jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini ta'minlash, uni rivojlantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim shartidir.

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan **urf-odat, marosim va bayramlar** ham milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini singdirishda muhim omil bo'ladi. Xususan, Mustaqillik, Navro'z, O'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi yangi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur.

Bugungi kunda urf-odat va an'alarimizning jamiyatni birlashtiruvchi xususiyatlaridan yanada to'liqroq foydalanish lozim.

Milliy an'analarni o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda to'y-ma'rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgar-chilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor.

**Oila.** Oila — mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. CHunki oila — jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy

mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibрати, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog'lom muhit — sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligani, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash — milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi.

**Mahalla.** O'zini o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatları va an'analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibрати, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.

Mahalla —avvalo, sog'lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu erda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. SHu ma'noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb ham atash mumkin.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mexr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatları kamol toptirishda mahallaning o'rni beqiyos.

**Mehnat jamoalari** inson umrining asosiy qismi o'tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma'naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, adolat tushunchasi, mehr-oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydigan o'ziga xos maskan bo'lib hisoblanadi.

Mehnat jamoalari turli millat va dinga mansub odamlarni do'stlik va hamjihatlix, o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatları uyg'unlashtirishga o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida sog'lom ma'naviy muhitni vujulga keltirishda muhim omil vazifasini bajaradi.

**Siyosiy partiyalar** o'z faoliyati bilan fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g'oyasining amalga oshishiga xizmat qiladm.

O'zbekistondagi har bir partiya o'z dasturiy qarash va maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega.

Har bir partiyaning o'z dasturiy g'oyalarini hayotga tatbiq etish jarayonida milliy istikdol mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi siyosiy haetning bosh mezonidir. CHunki xalq manfaatlari, istikdol g'oyalari, qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qati nazar, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddasdir.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faoliyat ko'rsatayotgan **nodavlat notijorat tashkilotlar** milliy g'oya targ'ibotida ishtirok etadi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining "Milliy g'oya ilmiy-amaliy markazi" va "Milliy g'oya targ'ibot markazi" bu boradagi amaliy ishlarni muvofiqlashtirib borishi, shuningdek, Oila ilmiy-amaliy markazi, Faylasuflar jamiyati, Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi kabi tashkilotlar milliy g'oya maqsadlarini targ'ibot etishda muhim o'ringa ega.

Shuningdek, milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini joriy etishga moddiy, tashkiliy va ma'rifiy jihatdan ko'mak beradigan "Sog'lom avlod", "Kamolot", "Oltin meros", "Amir Temur", "Iste'dod", "Mahalla" jamg'armalari va boshqa jamoat tashkilotlari ham katta imkoniyatlarga ega.

**Ommaviy axborot vositalari** jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz, avvalo, yosh avlod ongiga singdirishda alohida o'rin tutadi. Ular ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. **"To'rtinchi hokimiyat"** hisoblangan ommaviy axborot vositalari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo'l ochib berishi, hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg'otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim <sup>9</sup>.

SHunga e'tiborni qaratish lozimki, bular milliy g'oyani targ'ibotini amalga oshirishda o'ziga xos alohida sub'ektlardir. SHuning uchun, ular o'z faoliyatida bevosita amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalarni amalga oshirish bilan birga uni milliy g'oya maqsadlari bilan

---

<sup>9</sup> Қаранг: Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т: "Ўзбекистон", 2000. - .Б.62-69.

mushtarak ekanligini, hamda har bir yo'nalishda targ'ibot texnologiyalaridan bu xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish shu sohalarining rivojlanishiga hamda milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari bilan mos kelishiga ko'maklashadi. **Tayanch tushuncha:** milliy g'oya targ'iboti, milliy g'oya yo'nalishlari, milliy g'oya tamoyillari, keng qamrovlilik, me'yoriylik uzluksizlik, bosqichma- bosqichlik, xolislik, ishonch va e'tiqodlilik.

**Mavzuni mustahkamlash bo'yicha savollar.**

1. Milliy g'oya targ'ibotida jamiyat hayoti sohalarida erishilgan yutuqlarni hisobga olish zaruriyati.
2. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari yo'nalishlarining o'zaro bog'liqligi.

**6-MAVZU: MILLIY GOYA TARG'IBOTI  
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB  
VAZIFALARI**

**1. Milliy goyaning samaradorligini oshirishning targibot texnologiyalariga xam bog'likligi.** Uning axoli ongiga singdirish, tushuntirish va moxiyatini ochib berishda axamiyati juda yuqori hisoblanadi Targ'ibot texnologiyalarining samaradorligiga erishishda targ'ib etish yangiliklarni, ta'limiy jarayonlardagi mustakillikni ta'minlab berishi bilan ajralib turadi. "Izoxli-tasviriy yondashuv" texnologiyalarning samaradorlik darajasi o'lchamlari beqiyosdir. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligini sotsial, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy xayot, insonlarning turmush sharoitida yangilanishlar, o'zgarishlar bilan bog'likdir. Milliy g'oya O'zbekiston xalqining tub manfaatlari, asriy orzu-umidlari, ezgu niyatlari, buyuk maqsadlarini ifoda etib, xalqning o'z maqsad-muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat bo'ladigan poydevordir. Bu jarayon jamiyat a'zolarining tub manfaatlarini ko'zda tutadi, binobarin, har bir



fuqaroni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash shu yurtning farzandlari uchun muqaddas burchdir.

Tarbiya nima? Agar "tarbiya" tushunchasining tub ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu – insonning o'zi va o'z xulqi xaqidagi tasavvurining to'g'ri va xolis bo'lishini ta'minlovchi murakkab jarayondir. YA'ni, tarbiyalangan odam tarbiyasiz odamdan shunisi bilan farq qiladiki, birinchisi u o'zining kim ekanini, amalga oshirayotgan kundalik hatti-harakatlari, amallari, o'y-fikrlari o'zi va o'zgaralar uchun qanchalik manfaatli, foydali ekanini anglaydi, o'zini noxush harakatlardan tiyadi va nazorat qiladi. Tarbiyasiz odam esa, afsuski, o'z amallari nafaqat o'zgaralarga, hattoki, o'ziga ham ziyon, befoyda, bema'ni ekanini bilmaydi. SHundan kelib chiqib, har qanday tarbiyaning bosh mezoni tarbiyalanuvchida o'zi va o'z fazilatlari haqida to'g'ri tasavvurlarni shakllantirishdan iborat deyish mumkin.

Har bir davrning o'ziga xos tarbiyaviy usul va vositalari bo'ladi. Qadim zamonlardan tarbiya yosh avlodning keksa avlod tajribalarini o'zlashtirish shakllaridan biri sifatida qarab kelingan. Tarbiya asosan mehnat faoliyati (ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va shu kabi) jarayonida, turli urf-odatlar, marosimlar o'tkazish vaqtida amalga oshirilgan. U asosan jismonan baquvvat bo'lishga qaratilgan. Psixolog D.Elkonin bolalar o'yini tarixini tahlil qilib, taraqqiyotning ma'lum davriga qadar umuman bolalar o'yini kategoriyasining o'zi bo'lmaganini isbot qilgan. Lekin o'sha paytlarda kattalarning bolalarga ta'siri bevosita bo'lib, tarbiya jarayoni hozirgidan farqli sharoitlarda kechgan. Mehnat faoliyatining ko'p qirrali bo'lgani va murakkablashib borishi bois kattalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlarda ro'y bergan o'zgarishlar tufayli o'ziga xos bolalar jamiyati paydo bo'lgan va bu jamiyat a'zolari kattalar tajribasini o'zlashtirishning turli-tuman yo'llarini topib, o'z hayoti va faoliyatini takomillashtirib borgan. Bu birinchi navbatda kasb-hunar turlarining ko'payishi va takomillashib borishi bilan ham bog'liq bo'lgan.

Bola istagan soha bo'yicha ta'lim-tarbiya olib, o'zi xohlagan ixtisoslikni egallashga haqli. Lekin uning xohishi bilan jismoniy imkoniyati har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Odatda,

ota kasbini, to'g'rirog'i, bobo meros kasbni tutgan yoshlar hayotda ko'proq muvaffaqiyat qozonadi. Chunki bolada otaning qoni, uning layoqati bo'ladi. Demak, kasb tarbiyasi, bolani yoshlikdan el-yurtga foydasi tegadigan mehnat faoliyatiga yo'naltirish ham mafkuraviy ahamiyatga ega.

Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi – bu g'oyaviy tarbiyadir. Bu – inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra, g'oyaviy tarbiyadir. Chunki oilani olamizmi, bolalar boqchasinimi, mahalla, maktab, kollej, litsey, universitet yoki akademiyani olamizmi - hammasida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari talaba va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu ishlar bolaning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, insoniy munosabatlar borasidagi o'ziga xosliklar, axloq tamoyillari, go'zallik xaqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu – tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning asosi, poydevoridir. Shuning uchun mafkurasiz inson, mafkurasiz guruh, millat, xalq, jamiyat bo'lishi mumkin emas.

Nima uchun bir jamiyat, ijtimoiy guruh (masalan, siyosiy partiya, ijtimoiy harakat) mafkurasini boshqa bir ijtimoiy guruhga majburan singdirish noto'g'ri. Chunki mafkura – muayyan ijtimoiy guruh a'zolariga xos o'zlaridagi mavjud ehtiyojlar, tilak, orzu, umidlar hamda manfaatlar asosida o'sha guruhning qarashlari, tasavvurlari dunyosi hamda g'oyalarining mahsuli sifatida yaratiladi. **Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligini sotsial, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy xayot, insonlarning turmush sharoitida yangilanishlar, o'zgarishlar bilan bog'likdir.** Unda boshqalar manfaatlari ifodalanmasligi ham mumkin. Bas, shunday ekan, o'zgalar manfaatini ko'zlovchi g'oyani xalq ongiga zo'rlab singdirib bo'lmaydi. Masalan, amerikaliklarning o'z g'oyaviy qarashlari bor, bu qarashlar tizimi har bir amerikalikni yurti bilan faxrlanish, uning kelajagi uchun qayg'urish, bu yo'lda tinimsiz izlanish va mehnat qilishga undashi

tabiiy. Lekin bu qarashlarga suyangan va ularni chuqur taxlil qilib o'rgangan holda biz xam faqat shunday qilsak bo'lar ekan, biz ham faqat shu yo'ldan boraylik, deb bo'lmaydi. Chunki har bir jamiyat rivojining o'ziga xos an'analari mavjudki, o'sha jamiyat a'zolari ularni o'zlarining tub maqsad va manfaatlari asosida shakllantiradi.

Har qanday g'oyaviy tarbiyaning maqsadi – jamiyatning har bir a'zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhning tarbiyaviy darajasini ta'minlashdir. Bu pirovard natijada o'sha jamiyat rivojiga turtki beruvchi ilg'or g'oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini ta'minlaydi. SHu ma'noda, milliy istiqlol mafkurasi O'zbekistonda yashab, ijod qilayotgan har bir fuqaro ongi va shuurida asriy milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi eng sog'lom g'oyalar va fikrlar tarzida – xalq tafakkuri tarzida o'z ifodasini topishi lozim. Bu jixat g'oyaviy tarbiyaning bosh xususiyatlaridan biridir.

G'oyaviy tarbiya eng avvalo yuksak e'tiqod, imon, Vatan va xalq oldidagi ma'suliyat, vatanparvarlik, fidoiylik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Sog'lom g'oyalar tarbiyasi yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasini anglatadi. Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni jamiyatda o'zligini saqlagan holda munosib o'rin egallashga chorlaydi.

YAngi O'zbekistonda yangicha dunyoqarash, yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni tanlagan yo'li – kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. YAngicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsulidir.

YOshlik, o'spirinlik davri dunyoqarashning shakllanishi, e'tiqodning mustahkamlanishi uchun o'ta sezgir, psixologiya tili bilan aytganda, "senzitiv" bosqich hisoblanadi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, bu davr nafaqat shakllanish uchun, balki agar ma'lum bir qarashlar tizimi mavjud bo'lsa, ularni o'zgartirish

uchun ham qulaydir. SHu bois g'oyaviy ta'sirlar bevosita yoshlar auditoriyasiga, ularning qalbi va ongiga qaratilgan bo'ladi.

G'oyaviy tarbiya mezonlaridan biri bu ma'suliyat tuyg'usi bilan yashash xususiyatini shakllantirishdir. Ma'suliyat odamning har bir amali, faoliyati mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda, uning o'zi va o'zgalar uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Ma'suliyatni his qilgan inson ishni doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi.

SHaxsiy ma'suliyatni fuqarolik ma'suliyatidan farqlash lozim. Birinchisi – shaxsning kundalik faoliyatidan keladigan shaxsiy manfaatni nazarda tutsa, ikkinchisi jamiyat manfaatlarini nazarda tutadi. Fuqarolik ma'suliyatini his etgan inson eng avvalo o'zi mehnat qilayotgan jamoa yoki ta'lim olayotgan o'quv dargohi, o'z mahallasi va yurti ravnaqini o'ylaydi. Mustaqil O'zbekiston fuqarolari uchun yagona maqsad Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun xizmat qilish bo'lsa, demak, har bir fuqarolik ma'suliyatining ma'no-mazmunini ana shu g'oyalarni amalga oshirishda deb bilishi darkor.

Oxirgi yillarda g'arbda keng tarqalgan bir nazariyaga ko'ra, odamlar ma'suliyat nuqtai nazaridan ikki toifaga bo'linadi. Birinchi guruh o'z hayotida ro'y berayotgan voqea va hodisalarning sababchisi, mas'uli deb faqat o'zlarini tasavvur qiladi. ("Men o'zim barcha narsalarga ma'sulman. Mening hayotim va yutuqlarim faqat o'zimga bog'lik, shuning uchun o'zim uchun ham, oilam uchun ham o'zim javob beraman"). Ikkinchi guruh barcha voqea, hodisalarning sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar – ota-ona, o'qituvchilar, hamkasblar, boshliqlar, tanishlar, qo'ni-qo'shni va boshqalar deb hisoblaydi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ikkinchi shakldagi ma'suliyat ko'proq o'smirlarga xos ekan, ularning deyarli 84 % foizini mas'uliyatni faqat boshqalarga yuklashga moyil ekan. Amerikalik olim Dj.Rotter ana shu asosda "nazorat lokusi" tushunchasini ilmiy asoslab bergan. Uning kiritgan fikricha, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga o'rgangan bolalarda xavotirlik, neyrotizm, asabiylashuv, jaholat kabi salbiy sifatlar kam uchrar ekan. Ular har kimning

fikriga ergashib ketavermasdan, ko'p narsani o'z qarashlari asosida hal etar ekan.

Demak, mas'uliyatni his qilgan bolalar hayotga tayyor, faol, erkin va mustaqil fikrlovchi bo'ladi. Ularda ma'suliyat bilan birga, o'z-o'zini anglash, shaxsiy g'urur tuyg'lari ham yuksak bo'ladi. SHuning uchun ham mafkuraviy tarbiyaning muxim yo'nalishi sifatida yoshlarda ona Vatan oldidagi burch, o'z taqdiri uchun ma'suliyat, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilar hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalash muxim ahamiyatga egadir.

E'tiqod – psixologik hamda ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, odamning muayyan qarash, ta'limot nazariya, hayotiy aqida, qadriyat yoki faoliyat tamoyillarini emotsional-hissiy qabul qilish jarayonida shakllangan sobit fikr va tasavvurlar majmuidir. YOki boshqacha aytganda, e'tiqod ma'lum qadriyatlar, diniy yoki dunyoviy maslaklar, munosabatlarning inson qalbida yashash falsafasi, faoliyat dasturi sifatida qabul qilinishidir. Agar shu jarayonning oqibati o'laroq odamda diniy yoki dunyoviy maslak, ishonch kabi turg'un munosabatlar shakllangan bo'lsa, biz uni e'tiqodli odam deb ataymiz. Insonning insonligi, uning jamiyatdagi o'rni va nufuzi ham ma'lum ma'noda uning e'tiqodi bilan belgilanadi. Ayrim insonlar butun umr mobaynida faqat bitta narsaga e'tiqod qiladi. Masalan, fransiyalik mashhur sayyoh Kusto va uning komandasi haqidagi filmni hamma ko'rgan. Bir qarashda u butun umrini dengiz hayoti va undagi sirli voqealar, hayvonot dunyosini kashf etishga bag'ishlagandek tuyuladi. Dengizdan juda uzoqda yashaydigan, undan manfaat ko'rmaydigan odamlar uchun bu tadqiqotchiningn hayoti va ishlari keraksiz bir narsadek tuyuladi. Lekin bu olimning o'z ishiga sadoqati, e'tiqodi shu darajada kuchliki, uni butun dunyo, sog'lom fikrlovchi har bir inson juda yuksak qadrlaydi. Bu kabi odamlarning boshqa sohalardagi xizmati kam bo'lishi mumkin, ammo bashariyat uni yuksak e'tiqodi uchun hurmat qiladi. Demak, e'tiqodsizlikdan qo'rqish kerak, agar hech narsaga ishonmaydigan maqsad-maslagi noma'lum kishini ko'rsangiz, unga yordam berish lozim, chunki bu odamdagi e'tiqodsizlik nafaqat uning o'ziga, balki atrofdagilarga ham ziyon keltiradi.

E'tiqodli odam avvalo foydali ish bilan shug'ullanadi, o'zgalarga ziyon keltiruvchi amallar qilmaydi, yolg'on gapirmaydi. U har doim lafziga amal qiladi, ya'ni bir narsani qilaman, deb ahd etsa, butun kuchi va iqtidorini safarbar qilib, uni albatta bajaradi, boshlagan ishining oxiriga etkazadi. E'tiqodli inson nima qilayotganini, nima uchun aynan shu ishni bilan shug'ullanayotganini juda yaxshi biladi. SHu bois haqiqiy e'tiqod egasi ilmga intiladi, o'z oldiga aniq maqsad qo'yib yashaydi, har tomonlama barkamol bo'lishga turishadi, yaxshilarga oshno bo'lish, buyuklikka havas uning hayotiy shioriga aylanadi. Xaqiqiy e'tiqod sohibi o'zidan oilasiga, farzandlariga, insoniyatga nimadir qoldirishni istab yashaydi. SHuning uchun ham e'tiqod, shaxsdagi jur'at, mardlik, fidoiylik, iroda, vijdon, qat'iyat, halollik, insonparvarlik, vtaanparvarlik kabi fazilatlar bilan bo'liqdir.

“Iymon”» arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi ishonchdir. Haqiqiy e'tiqod egasi bo'lgan odmda iymon ham bo'ladi. Buyuk merosimiz hisoblanmish “Avesto”da imon va e'tiqodning o'zaro aloqasi va uning inson tafakkur tarzi bilan bo'liqligi xususida shunday deyilgan:

*Aqlli va imonli kimsalarga  
Bag'ishlayman shodlik, bardam ruh...  
E'tiqodman, Mitraman,  
Mudom saboq bermoqchiman,  
Iymon bilan fikr aylasin.  
Iymon bilan so'z so'zlasin  
Va iymonga amal qilsin.*

Iymon keltirish yoki ishonch shunday psixologik xolatki, unda shaxsning e'tiqodiga mos keladigan, muayyan narsa va hodisalar ta'sirida ongda o'rnashib qoladigan tasavvurlar majmui etakchi o'rin tutadi. Imonning nima ekani ko'pincha shaxs tomonidan chuqur tahlil qilinmaydi, tekshirilmaydi, chunki unda insoniyat tajribasi, shaxs e'tiqod qilgan ijtimoiy guruhning qarashlari mujassam bo'ladi. Masalan, Ollohga imon keltirish har bir musulmon uchun farz hisoblanadi. Muhammad ibn Abdulloh Olloh tarafidan keltirilgan barcha xabarlarga til bilan iqror bo'lib, dil bilan tasdiqlashga iymon deyiladi, ya'ni Qur'oni Karim va hadisi shariflar orqali Olloh to'g'risidagi, jannat va do'zax, qiyomat kabi

g'aybiy narsalar haqida berilgan xabarlarga ishonch – shariatda iymon deb yuritiladi, deganlar. o'sha hadis sharifda yana "Vatanni sevmok – imondandir" deb zikr etilgan. Bular oddiy fuqaroda shubha uyg'otmaydigan, xalq mentalitetiga uning imonga aylanib ketgan qadriyatdirki, ularga ishonish har bir musulmonning va sog'lom fikr xoinlarini eng avvalo "imonsizlar" deb la'natlaydi. Zero, tug'ilib o'sgan erni muqaddas bilish, kindik qoni to'kilgan tuproqni sog'inish, Vatan ravnaqi yo'lida baholi qudrat vijdon bilan mehnat qilish – iymonlilik belgisidir.

Iymon tushunchasiga faqat diniy tushuncha sifatida qarash to'g'ri emas. Chunki har kuni foydali bir amal, savob ish qilish, solih xulq sohibi bo'lish, butun insoniyat mehr-muhabbati bilan qarash, jamiyatdagi xulq me'yorlarini qalban his qilib, ularni buzmaslikka intilish ham iymonlik belgilaridir. Agar bola yoshlikdan go'zal xulqlarni egallashga intilib yashasa, ilmga chanqoq, mehnatsevar, o'z maslagiga sodiq qolishga intilsa, xalol-pok yashash, xaromxo'rlikning xar qanday ko'rinishga qarshi adolat uchun kurashsa, Vatanini, xalqini sevsa, uning munosib farzand bo'lib etilsa, uni iymonli inson deyish mumkin.

Sog'lom dunyoqarash, ma'suliyat, iymon va e'tiqodni yoshlar ongida shakllantirishning quyidagi asosiy ob'ektiv shart-sharoitlari va omillarini ajratib ko'rsatib o'tish mumkin:

a) ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muxit. Yoshlarga sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashning shakllanishi uchun ma'lum muhit ham zarur. O'zbekistonda bu borada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni xolis va chuqur o'rganish, buyuk ajdodlarimiz xotirasini yod etish, boy ilmiy-adabiy merosini o'rganish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish milliy siyosatimizning ustivor yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Ijtimoiy va siyosiy institutlar – davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalarning tashkil etilishi o'ziga xos ijtimoiy muhitni shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida yoshlarning buyuk kelajak bunyodkori bo'lib voyaga etishda muxim o'rin tutmoqda;

b) Sog'lom g'oyalar. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan, xalq tomonidan e'tirof etilgan ilg'or g'oyalar bugungi kunda shunday faol kuchga aylanganki, ular yoshlarning psixologik va ijtimoiy ehtiyojlariga to'la javob beradi. Zero, Vatanning ravnaqi, yurtning tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, komil inson tarbiyasi uchun yaratilgan sharoitlar, aynan kelajagimiz bo'lgan yoshlarning manfaati uchun xizmat qiladi;

v) Siyosiy ong va huquqiy madaniyatning o'sishida siyosiy partiyalarning o'rni va ahamiyati katta. Ular o'z faoliyati bilan fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g'oyasining amalga oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekistondagi har bir partiya o'z dasturiy maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega. Fuqarolar uchun qaysi siyosiy partiyaning qarashlariga qo'shilish yoki qo'shilmaslik ixtiyoriy bo'lib, bunday erkinlik yoshlarni fikrlashga, o'zicha mustaqil yo'l tanlashga xizmat qiladi. O'ar bir partiyaning o'z dasturiy g'oyalarini hayotda tadbqiq etish jarayonida milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi hayotning bosh mezonidir.

Fuqarolarning xuquqiy madaniyatini yuksaltirish chinakam demokratik fuqarolik jamiyati qurishning muxim omili. Bu o'rindashuni ta'kidlash joizki, shaxsning xuquqiy ongi yuksak, bilimi etarli bo'lishi, lekin unda xuquqiy madaniyat etishmasligi, u fuqaro sifatida o'z xalqi va Vatani oldidagi burch va ma'suliyatini teran anglamasligi mumkin. SHuning uchun ham fuqarolar, ayniqsa, yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish g'oyaviy tarbiyaning muhim shartidir.

Xuquqiy madaniyatni shakllantirish omillari quyidagilardir:

- \* xuquqiy madaniyatga oid ommabop adabiyotlar;
- \* ta'lim muassasalarida xuquqiy madaniyatga oid maxsus o'quv kurslari;
- \* ijtimoiy muloqotning xuquqiy tamoyillari mavzuiga oid tadbirlar;
- \* mustaqillikning inson manfaatlariga qaratilgan xuquqiy asoslarini keng xalq ommasi orasida targ'ib etish va boshqalar.



g) YOshlarning bilim darajasi. Ilg'or g'oyalarni amalga oshirishning yana bir muhim sharti ularni o'zlashtirishi lozim ma'lumotlilik darajasidir. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonun yoshlarning bilim va malakasini oshirishga qaratilgan tarixiy hujjatlardir, ular har bir yoshning bilim darajasini oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Agar o'smir yoki o'spirinda yoshlikdan kitobga, bilimga mehr shakllanmagan bo'lsa, uning bilimi sayoz, tushunchalari tor bo'lsa, u sog'lom g'oyani zararli g'oyadan, dunyoviylikni g'ayrilmilikdan, ziyoni jaholatdan farqlay olmaydi. G'oyaviy sog'lomlik har qanday g'ayritabiiy fikrlarga munosib javob berishni, yot va zararli g'oyalari nisbatan mafkuraviy immunitetni, turli aqidaparastlar bilan asosli va tanqidiy munozara olib borishni, o'z nuqtai nazarining to'g'riligiga ishonch-e'tiqod tuyg'usini kamol toptirishni taqozo etadi.

d) Odatiy, an'anaviy fikrlash tarzidan yangicha, ilg'or fikrlashga o'tish mafkuraviy yangilanishlar jarayonining muhim xususiyatidir. Ta'kidlash lozimki, inson o'zi uchun odatiy bo'lib qolgan fikrlash tarzidan osonlikcha voz kecholmaydi, chunki eskicha fikrlash bir qarashda qulay bo'lib ko'rinadi. Buni arifmetikadagi mantiq bilan algebradagi mantiq qoidasiga qiyoslash mumkin. Arifmetikani o'zlashtirgan bola algebradagi ayniyat, teoremlarni ruhan qiynalib qabul qilgani kabi, inson tafakkuri ham ijtimoiy hayot o'zgarishlarini birdan qabul qilolmaydi. Lekin yangi davr, yangicha islohotlar, demokratiya, bozor munosabatlari aynan tafakkur va fikrdagi o'zgarishlarni taqozo etadi va bu rivojlanishning, taraqqiyotning asosiy shartidir. SHuning uchun milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillarining keng omma qalbi va ongiga singishi birdaniga, tez va bir tekisda ro'y bermaydi. Bu – murakkab, bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon bo'lib, bu jarayonda, boshqa ijtimoiy qatlam vakillaridan farqli o'laroq yoshlar tashabbuskorlik ko'rsatishi va o'z dunyoqarashi va e'tiqodi bilan boshqalarga ta'sir ko'rsatishi kerak.

**G'oyaviy tarbiyalash samaradorligini oshirish va aniqlash mezonlari.** G'oyaviy tarbiyada yana bir omil – ma'lumotning nima vositasida uzatilishi masalasi muhim sanaladi. Albatta, odamlarga yuzma-yuz turib, o'z fikr va e'tiqodini bayon etish eng ta'sirchan usullardan biridir.

SHundan kelib chiqib, aytish mumkinki, tinglovchi bilan aloqa vositali yoki bevosita bo'ladi. YUzma-yuz uchrashuvlardagi muloqot yoki ta'lim-tarbiya jarayonidagi ta'lim beruvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi aloqa yoki ota-ona bilan farzandlar o'rtasidagi munosabatlar bevosita aloqaga misol bo'lsa, ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda, televidenie, radio, gazeta va jurnallar, kitob yoki risolalar vositasidagi muloqot bevosita aloqani bildiradi.

Ijtimoiy reklama ham, inson ongi va idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi kuchli vosita o'laroq, g'oyaviy tarbiyada katta o'rin tutadi. Masalan, taniqli va baobro' shaxslarning madaniy va ma'naviy merosimiz, obidalarimiz oldida turib intervyu berishlariga juda samarali bo'ladi. Misol uchun, Samarqanddagi Registon maydonida intervyu berayotgan shaxs shahardagi obodonchilik ishlari haqida gapirayotgan bo'lsa ham, asriy obidalar tomoshabinda milliy madaniyatimizga hurmat, undan g'ururlanish tuyg'ularini o'sha muqaddas qadamjolarni borib ziyorat qilish istagini uyg'otadi.

Auditoriya, ya'ni tinglovchilar xususida gap ketganda, qanday insonlar ishonuvchan bo'ladi, qanday odamlar sog'lom g'oyalarni yot, buzg'unchi g'oyalardan farqlay oladi, degan savol o'ta muhimdir. CHunki odamlar har xil. Masalan, ular birgina sifatlari – o'z-o'zlariga bo'lgan baholari nuqtai nazaridan farq qiladi. Masalan, o'zi, o'z qobiliyat va fazilatlari xususida kamtarona fikr yuritadigan odamlarning yangi ma'lumotlarga, notanish manbalarga ishonish, e'tiqod hosil qilish juda sekin sodir bo'ladi, ular o'zlariga qanchalik ishonmasa, boshqalarga ham ishonmaydi. o'zi haqida ancha yuqori fikrlar bilan yuradiganlar esa ma'lumotlarni tez qabul qiladi, lekin o'zlaridagi mavjud fikrlarga nisbatan ham kibor, g'urur bo'lgani sababli, boshqalarning fikriga tezgina ergashmaydi. Demak, xulosa shundayki, insonning o'ziga bo'lgan bahosi me'yorida, o'rtacha hamda xolis bo'lishi kerak.

Psixologik nuqtai nazardan auditoriyaning asosan to'rt xil turi farqlanadi:

1. Passiv o'zlashtiruvchi auditoriya. Bu yuqorida ta'kidlangan o'zini hali xolis baholay olmaydigan sodda insonlar bo'lib, ularga o'z navbatida sodda, tushunarli, mashg'ul qiluvchi ma'lumotlar yoqadi. Mafkuraviy mavzudagi axborotlar ham hayotiy, lo'nda fikrlarda bayon etilsa, ularda ijobiy munosabat shakllanadi.

2. Faol, ijtimoiy jihatdan barkamol auditoriya. Bular ma'lumotli, ziyoli, yangilikka o'ch insonlar bo'lib, ularga ta'sir ko'rsatuvchi har qanday axborot muammoli, dolzarb, bahstlab bo'lgani ma'qul. Talabalar, magistrant va aspirantlar, olimlar va boshqalar shular jumlasidandir.

3. "E'tiqodi sust" auditoriya. Bular, ma'lum sabablarga ko'ra, tarbiyasi og'ir kimsalar toifasiga kirib qolgan, hayotda aniq maqsadi va maslagi yo'q, o'z ustida ishlamaydigan insonlar. Ularning orasidagi asosan o'smirlar va o'spirinlar ko'p bo'ladi. Diniy aqidaparastlarning domiga tushib qolgan yoshlar ham shular jumlasidandir. Ular yangiliklarga, ularning tafsilotlariga boy bo'lgan axborotga o'ch bo'ladi. SHuning uchun bunday toifadagi kimsalarga baobro' shaxslar orqali ta'sir ko'rsatish ma'qul.

4."Muqim uy" auditoriyasi – bu asosan uy bekalari, qariyalar ma'lum sabablar bilan nogiron bo'lib, asosiy vaqtini uyda o'tkazadiganlar. Ularni hayotiy videofilmlar, qiziqarli ko'rsatuv va lavhalar o'ziga jalb qiladi. SHundan kelib chiqib, bunday insonlar uchun mafkuraviy axborot tayyorlanganda, ularning soddaligi, samimiyatga o'chligi va insoniy e'tiborga muhtojligini inobatga olib ish ko'rilsa, samarali bo'ladi. Ular ko'proq uy ishlari bilan band bo'lgani uchun muloqot va uchrashuvlar ularning dam olish vaqtlariga mo'ljallanishi, milliy udumlar, rasm-rusumlarimizning noyob jihatlaridan foydalanish, ta'sir vaqti va joyi masalasini mahallalar faollari va xotin-qizlar qo'mitalari bilan hamkorlikda o'ylab ko'rish kerak bo'ladi.

Mafkuraviy ishlarni tashkil etishda auditoriyaning katta yoki kichikligi ham inobatga olinishi kerak. 100-200 kishidan ziyod odam bo'lsa, bu katta, 15-100 tagacha odam bo'lsa o'rtacha, 15 tagacha bo'lsa kichik auditoriya hisoblanadi.

Voiz bilishi shart bo'lgan qoidalar:

- \* katta auditoriya – voizlik mahoratining o'ta yuqori bo'lishi;
- \* ko'rgazmali vositalardan foydalanishda o'ta aniqlik bo'lishi;
- \* savollarning minimal darajada kam bo'lishi;
- \* kichik auditoriyada – savol va javoblarning maksimal miqdorda bo'lishi;
- \* rasmiyatchilikdan holi barqaror bo'lishi;
- \* notiqning mavzuga oid bilimlarining mukammal bo'lishi;
- \* voizlik mahorati o'rtacha bo'lishi ham mumkin;
- \* mazmunni yoritishda ijodiy yondashuv.

Bundan tashqari, auditoriyaning yosh xususiyatlarini, ularning bilimlari darajasini ham hisobga olish zarur.

**G'oyaviy tarbiya ishlari samaradorligini baholash mezonlari.** Bu – o'ta nozik va ma'suliyatli ish. Agar bunday ish 15 kishigacha bo'lgan kichik auditoriyalarda amalga oshirilgan bo'lsa, unda tinglovchi – yoshlar, tarbiyalanuvchilar yoki talaba-o'quvchilarning dunyoqarashlarini bevosita suhbatlar, yozma ishlar va ularning ishga, voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatlari orqali aniqlab, mashQulotlarni qayta-qayta o'tkazish mumkin.

Agar auditoriya 15 kishidan 100 kishigacha bo'lgan o'rtacha kattalikda bo'lsa, unda odatda tadbir yoki turli mavzulardagi yig'ilishlardan jam bo'ladigan odamlar guruhi nazarda tutiladi, uning samarasini bir martada aniqlash mushkul bo'ladi. CHunki psixologiyada shunday qonuniyat borki, auditoriyani tashkil etuvchi odamlar soni ortib borgani sari uni tashkil etuvchilar bir-biriga juda o'xshab boradi. SHuning uchun 100 va undan ortiq, 200, 300 kishilik auditoriyani to'plab o'tkazilgan ma'naviy va mafkuraviy tadbirlar samaradorligini oshirishda juda ko'p omillar hisobga olinishi kerak. bunday sharoitda baxs yuritish, fikr almashish yoki odamlarning etkazilayotgan ma'lumotni qay darajada o'zlashtirayotgani bo'yicha monitoring olib borish ancha murakkab bo'ladi. Bunday paytlarda yangilikka o'ta o'ch tinglovchi ham voizga nisbatan neytral mavqeni egallashi, uning fikrlariga to'liq ergashmasligi mumkin. CHunki bu erda g'oyalarga ayrim alohida shaxslar emas, guruhlar ergashadi. Agar muayyan guruh axborotni qabul qilishga umuman moyil bo'lsa, unda

tinglash qobiliyati bo'ldi, aksincha, hech kim hech narsani tushunmaganday o'tiraveradi. Mabodo tinglovchilar orasida savol beruvchilar paydo bo'lsa, bu savol ko'pchilikka ma'qul bo'lmasligi yoki ayrimlarga yoqishi mumkin, bunday vaziyatda topqirlik va zukkolik qilib, barchaga ma'qul keladgan gaplarni topa olishi lozim.

SHuning uchun Vatan va yurt taqdiriga aloqador muhim mavzulardagi uchrashuv va ma'ruzalar imkon qadar torroq davralarda, to'garak stollar atrofida amalga oshirilsa samarali bo'lishi psixologiyada va ijtimoiy ta'sir amaliyotida isbot qilingan.

Mafkuraviy ta'sir samaradorligini o'lchash mezonlari quyidagilardan iborat:

- \* aholining siyosiy bilimdonligi, ijtimoiy faolligi;

- \* jamiyatning ma'naviy sog'lomligi, odamlarning o'zini ruhan tetik va bardam tutishi;

- \* vatanparvarlikning turli ko'rinishlari kundalik turmushda tobora ko'proq namoyon bo'lib borayotgani;

- \* aholda ma'lumotlilikdan manfaatdorlik kayfiyatining borligi, barchada bilim saviyasini oshirishga intilishning kuchayishi, gazeta-jurnal, vaqtli matbuot, nashriy ishlarga talab va taklifning ortib borishi;

- \* jinoyatchilik va xuquqbuzarlik holatlarining yil sayin kamayib borishi, ayollar va o'smirlar o'rtasida sodir etiladigan jinoyatchilikning bartaraf etilishi;

- \* giyohvandlik va turli zararli odatlarning yoshlar o'rtasida yil sayin kamayib borishi, bunda keng jamoatchilikning faol ishtiroki;

- \* diniy, dunyoviy bilimlarga muqobil munosabat, shu sohalaridagi adabiyotlarga nisbatan ehtiyojning bir maromda saqlanishi;

- \* oilalarning mustahkamligi, ajrimlarning kamayib borishi;

- \* fuqarolarda qonunlarga nisbatan itoatkorlikning shakllanishi;

- \* butun jamiyat miqyosida sog'lom ma'naviy va ijtimoiy muhitning shakllanishi.

Ijtimoiy fikrni o'rganish. Bu – ma'naviy-axloqiy tadbirlarning keng xalq ommasi va yoshlar ongiga nechog'lik chuqur singib

borayotganini o'rganishning ishonchli yo'llaridan biridir. Ijtimoiy fikr - guruh yoki jamiyat tomonidan yakdil tarzda izhor qilinadigan umumiy nuqtai nazardir. Ijtimoiy fikr ko'pincha ijtimoiy psixologiya hamda sotsiologiya fanlari tomonidan o'rganiladi. Lekin jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichiga xos bo'lgan jarayonlar ijtimoiy fikrni faqat ma'lum guruh mutaxassislarigina emas, balki barcha faol shaxslar o'rganishini taqozo etadi.

Kundalik hayotimizda, ayniqsa, o'zbekiston sharoitida ijtimoiy fikrning asosiy barometri, o'lchovi – bu mahalladir. Mahalla ahli har bir oilada ro'y berayotgan hodisalarni biladi, insonlar taqdiriga befarq bo'la olmaydi, faollar orqali ijtimoiy hayotdagi har bir o'zgarish, odamlar ongi va qalbidagi hissiy-kechinmalar o'rganiladi. SHu ma'noda, o'zbekiston sharoitida mahallaning haqiqiy demokratiya darsxonasi ekanligi uning ijtimoiy fikrni boshqarish imkoniyatlarida ham o'z tasdig'ini topgan.

SHunga qaramay, mafkuraviy ishlar amaliyotida, jamiyatdagi ma'naviy barqarorlikni ta'minlash uchun, ijtimoiy fikrni muttasil o'rganib borish, bunga jamoatchilikning eng ilg'or vakillarini jalb etish maqsadga muvofiq. Ijtimoiy fikrni o'rganish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin.

1. Sotsiologiya va psixologiyaning maxsus usullarini qo'llagan tarzda, mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladigan tadbirlar. Bunda asosan so'rov usullari – anketa yoki intervyu yo'li bilan jamoatchilik fikri o'rganiladi. Anketa yozma so'rov shakli bo'lib, unga kiritilgan savollar yordamida milliy Qoyaning mazmuniga aloqador masalalarning yoshlar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganini aniqlash mumkin. Anketa savollari tinglovchilar ongidagi bilimlar qay darajada mustahkam ekani xaqida ma'lumot olish imkonini beradi. Umuman, milliy g'oyalarning inson ongidagi monitoringini aniqlashda, ma'lumotlilik darajasiga ko'ra, ochiq savollar bilan yozma fikrlarni to'plash, intervyu yo'li bilan xilma-xil fikrlarni o'rganish samaraliroq hisoblanadi.

2. Joylarda, mahalla qo'mitalari, o'quv maskanlarida "Ishonch pochталari" tashkil etish ham mumkin. Bunda aholining xat, xabarları orqali ro'y berayotgan jarayonlarga, mafkuraviy o'zgarishlarga, mahalla-ko'y, turar-joylar va mehnat jamoalaridagi

ayrim salbiy hodisalarga munosabati aniqlanadi, xalqning islohotlardan manfaatdorligi o'rganiladi.

3. Hujjatlar, yozma manbalar va xatlarning mazmuni, televidenie, radio va vaqtli matbuot sahifalarida mehnatkashlarning fikr-o'ylarining bayonini ham sifat, ham miqdor jihatdan tahlil qilish orqali ularning milliy Qoyalar mohiyatini qay darajada tushunayotgani, ularga munosabati, bu jarayondagi ishtirokini o'rganish mumkin. Bu ham jahon tajribasida sinalgan ishonchli usullardan biri.

**Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligi tushunchasi, ma'no-mazmuni.** Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan bog'liqdir.<sup>10</sup> Ta'kidlash joizki, mafkura targ'ibotining samaradorligini oshirish bu sohada ko'zga tashlanayotgan muammolarni bartaraf etishni shartlab qo'yadi. Zero, har bir sohada bo'lgani kabi mafkura targ'ibotida ham ayrim muammo va kamchiliklar yo'q emas.

Milliy g'oya targ'ibotining samaradorligiga qanday omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda? Bu muammolarning echimi qanday? Mafkura targ'ibotida nimalar nazardan chetda qolmoqda? Targ'ibot ishiga qanday tarzda yondashgan ma'qul? Bugungi kunda milliy g'oyani xalqimiz ongi va qalbiga singdirish samaradorligini ko'tarish uchun nimalarga e'tibor berish zarur?

Ushbu bandda dasturni amalga oshiruvchi mutasaddilarga quyidagi talablar qo'yilgan:

– o'tkazilayotgan tadbirlarni kampaniyaga aylantirmaslik:

– o'qib berish usulidan voz kechish:

– tadbirlarni "majburiyat"ga aylantirmaslik:

– odamlar bilan ochiq-oydin va yuzma-yuz muloqatdan qochmaslik.

---

<sup>10</sup> Қаранг: Каримов И.А. "Юксак маънавият – енгилмас куч". Т: "Маънавият", 2008. – Б.76-77.

E'tiborlisi shundaki, yuqorida qayd qilingan talablar nafaqat davlat dasturining ijrosida, balki milliy g'oya targ'ibotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan bugungi kunda targ'ibot-tashviqot ishlarida kampaniyabozlikka berilish, mafkurani targ'ib qilish o'rniga uning ta'riflarini "yodlatish", turli tadbirlarga kishilarni majburiy to'plash, muammolar haqida ochiq gapirishdan qochish, odamlar bilan yuzma-yuz muloqatga voizlarning tayyorlanib kelmasligi, son ketidan quvib, sifatni unutib qo'yish, targ'ibotda ayrim tushunchalarning o'rinli-o'rinsiz ishlatilishi natijasida ularning qadrsizlanishi kabi muammolar mavjud.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1.Samarali g'oyaviy ta'sir ko'rsatishda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muhitni vujudga keltirish.

2.G'oyaviy ta'sir ko'rsatishda yangicha fikrlash tarzini shakllantirish.

3.G'oyaviy ta'sir ko'rsatishning bilvosita uslublari.

4.Qadriyat, baho va qadr.

5.Mustakillik va milliy kadriyat

6.Konstitutsiya – jamiyat huquqiy madaniyatning ko'zgusi.

7. Ubekistonning siyosiy tizimi.

8.Dars (auditoriya) dan tashqari ishlar.(Tarixiy obidalar, muzey, kino-teatrlarda)

9.Talaba-yoshlarda kutubxona fondidan samarali foydalanish malakasini xosil etishda turli usullardan foydalanish masalalari.

10.San'atning madaniyat bilan chambarchas bog'liqligi.

11.Madaniyat tushunchasi va uning mohiyati.

12.Madaniyat va sivilizatsiya.

13.Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning falsafiy mohiyati.

14.Demokratik fuqarolik jamiyat tushunchasi.

15.Turli ijodiy to'garaklar tashkil qilish va ularga yoshlarni jalb etish



## O'z-o'zini tekshirish uchun test

**1. Farzandlar tarbiyasiga eng kuchli ta'sir kursatuvchi omil nima?**

- A) Karindosh –urugchilik munosabati
- V) Oilaviy munosabatlar mazmuni
- S) Sayru sayoxatlar
- D) Marokli xordik
- E) Jismoniy mexnat

**3. «Oila» asari muallifining nomini aniklang?**

- A) Maxmudxuja Bexbudiy
- V) Abdurauf Fitrat
- S) Abdulxamid CHulpon
- D) Xamza Xakimzoda Niyoziy
- E) Abdulla Avloniy

**4.Xukukiy madaniyat bu .....**

A) jamiyat xar bir a'zosining siyosiy ongliligi, siyosiy kobiliyati.

V) xukukiy bilim, ong madaniyatidir

S) ijtimoiy munosabatlarni belgilovchi xulk-atvor, kunikma, kadriyat.

D) A va S \* E) A,V,S.

**5. Siyosiy madaniyat asosiy tiplarini aniklang.**

A) an'anaviy va yukori tabaka.

V) ibtidoiy va fukarolik

S) axlokiy va demokratik.

D) ommaviy va guruxiy

E) insonparvarlik, oshkoralik, tarixiy vorislik.

## **7-MAVZU: MILLIY G'OYA TARG'IBOTIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK USLUBLAR**

**1. Milliy goya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublar tushunchasi, uning ma'no-mazmuni.** Milliy g'oyani targ'ib kilishning an'anaviy va zamonaviy yunalishlari. Uni tushunarli, hammabop texnologiyalar asosida ommalashtirish. Yangi zamonaviy texnologiyalarni milliy g'oya takomilida aloxida nisbatga egaligini anglash. Zamonaviy texnologik uslublar to'g'risida an'anaviy nazariyalar, modernizatsiya jarayonlarini tahlil etish. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologiyalarning asosiy vazifasi - targ'ibot yullarini ko'rsatib berish, uning natijaviyligini, tezkorligini, texnikaviy qurollanganligini oshirishga qaratilganligini tushuntirish muhim. Milliy goya targ'ibotida zamonaviy o'zaro muloqot, bahs, munozara, masofali o'qitish, "Ekspert baholash" usuli, "Klaster" usuli, "Sinkveyn" usuli, "O'yinlar nazariyasi" usuli, "Akliy xujum" usuli, "Menyu" usuli va shu kabi interfaol usullarni tashkil kilish uslublaridan foydalanishning axamiyati masalalari tahlil etilgan. **Zamonaviy texnologik uslublar tushunchasi, ma'no-mazmuni.** Jamiyat hayotida "Zamonaviy texnologik uslublar" tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Uni jamiyatning iqtisodiy hayoti bilan bog'liq, ya'ni iqtisodiy sohaga keng kirib borayotgan zamonaviy texnologik uslub. Bu ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish va yuqori mehnat unumdorligiga erishish uchun qo'llanilayotgan fan-texnika sohasidagi yutuqlarini anglatadi. Bu ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, yangi texnologiyalarni joriy etishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, milliy g'oyani xalqimiz onggi va qalbiga singdirish maqsadida ham turli yo'nalishlarda yangi, zamonaviy texnologiyalardan (mahorat usullaridan) foydalaniladi. Uning ikki jihatini hisobga olish kerak:

- 1) fan-texnikaning turli sohalarida qo'lga qiritilgan yutuqlar;
- 2) milliy g'oyani targ'ibot-tashviqot qilishda ana shu ilmiy-texnika ko'rinishlaridan mahorat bilan foydalanishning g'oyaviy-mafkuraviy uslublaridagi yangiliklar, o'zgarishlar.

**"Zamonaviy texnologik uslublar"** tushunchasi milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarida o'ziga xos mazmunga ega. Bu milliy

g'oyani targ'ibot va tashviqot etishda foydalanadigan ilm-fan yutuqlarining eng so'nggi natijalariga tayangan texnik vositalar hamda undan foydalanish mahoratidagi yangicha g'oya, qarashlar, uslublar majmuini anglatadi.

Ularni quyidagi yo'nalishlarda ifodalash mumkin:

1) Ta'lim va tarbiya sohasiga doir zamonaviy texnologik uslublar;

2) Fan va ilmiy muassasalarda qo'llaniladigan zamonaviy texnologik uslublar;

3) Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida qo'llaniladigan zamonaviy texnologik o'zgarishlar;

4) Adabiyot va san'at sohasidagi yangiliklar. Undan foydalanishdagi texnologik uslublar;

5) Din sohasida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilayotganligi;

6) Jismoniy-tarbiya va sport sohasidagi yangi texnologiyalar;

7) Urf-odat, marosim va bayramlarni yangicha asosda tashkil etilganligi;

8) Oila, mahalla, mehnat jamoalaridagi yangi yutuqlar, o'zgarishlar;

9) OAV va jamoat birlashmalari faoliyatidagi yangi texnik va texnologik o'zgarishlarni hisobga olish.

Milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirishda zamonaviy texnologik uslublardan unumli foydalanishni takomillashtirishning birinchi muhim sharti – ularni tizimlashning o'quv jarayonini rejalashtirish amaliyotida qo'llash samaradorlikka erishish imkonini beradi. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy pedagogik interfaol usullardan foydalaniladi.

Milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirish yo'lida jamiyatimizdagi barcha kuchlar – partiyalar, davlat va nodavlat tashkilotlar ish olib bormoqda. Ilg'or jamoatchiligimiz, ziyolilarimiz bu ezgu ishga o'z hissasini qo'shmoqda. Bugun odamlarning ongi o'zgardir. Ammo biz o'z g'oyamizni yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirmasak, boshqalar o'z g'oyasini singdirishga harakat qiladi. SHuning uchun, yuqorida qayd etilgan sohalarning har bir sub'ekti bunga alohida e'tibor berishi kerak. Bu sohalarni zamon bilan

hamnafas holda faoliyat yuritishini, mamlakat istiqboli to'g'risida qayg'urishni, tinmay izlanishni, ilmiy ixtirolarni amalga oshirish va uni hayotga tatbiq etishni taqozo etadi.

Hozirgi mafkuraviy kurash davom etayotgan sharoitda milliy g'oya targ'iboti uning:

- 1) maqsadlarni aniq bilishni;
- 2) targ'ibot yangiliklarini o'rganib borish va hisobga olishni;
- 3) mafkuraviy sohalarda alohida e'tibor qaratilayotgan ijtimoiy qatlam, guruhlarning xususiyatlarini;
- 4) targ'ibot mavzularining mazmun mohiyatini, uning strategik yo'nalishlarini, o'zgaruvchanligini hisobga olishni taqozo etadi.

Milliy g'oyani singdirishning zamonaviy texnologiyalari tizimli, muntazam va doimiy bo'lishi kerak. Bu borada muhim ishlar davom etmoqda. Lekin zamon talablariga javob berish uchun targ'ibotning o'zi etarli emas.

Ma'naviyat sohasidagi bugungi tahdidlarni chuqur o'rganish, ularni aniqlash, ularga nisbatan o'z vaqtida munosib choralar ko'rish, aholida mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Ayniqsa, yoshlarni g'oyaviy tarbiyalash katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalardan mahorat bilan foydalanish g'oya va mafkuraning ko'lamini oshiradi. Ong va tafakkurdan joy olib, uni o'ziga qaratish, tobe qilish, g'oya orqasidan ergashib, unga taqlid qilishga sabab bo'ladi. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan foydalanish uning jozibadorligini oshiradi.

SHuning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq maqsadga qaratilgan holda olib borish uchun uning metodologiyasini yaratish, jahon maydonlarida ro'y berayotgan jarayonlarni o'rganadigan, ilmiy dasturlar ishlab chiqish muhim.

Axborotlashtirish sohasida ham ayrim yutuqlarimiz bilan birga muammolar mavjud. Masalan, virtual kutubxonalar, informatsion resurs markazlari paydo bo'ldi. Nodavlat nashrlar, xususiy teleradio studiyalari, nashriyot va bosmaxonalar, jurnalistlar uyushmalari vujudga keldi. Ularda ishlaydigan, ularni boshqaradigan odamlarning ongi va tafakkuri keskin o'zgardi. Holbuki, 90-yillarda bu narsalarni tasavvur ham qilib bo'lmas edi.

Albatta, axborot sohasidagi bu kuchlarning barchasi o'z nizomi, amaldagi qonunlar doirasida faoliyat olib boradi. Davlat tomonidan ularning faoliyatini cheklash yoki nazorat qilish holatlariga yo'l qo'yilmaydi. Bordiyu kimdir ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat o'rnatishni istagan taqdirda ham buni imkoniyati yo'q. Chunki tobora ko'payib borayotgan ommaviy axborot vositalari ustidan nazoratni amalga oshirishning o'zi imkonsizdir.

Ammo bir haqiqatni tan olish joiz. SHakli va faoliyat yo'nalishidan qat'i nazar, barcha ommaviy axborot vositalari yagona maqsadga – O'zbekistonimizning gullab-yashnashiga o'z xissasini qo'shadi. Bu yo'lda milliy g'oya birlashtiruvchi va safarbar etuvchi kuch sifatida xizmat qiladi.

**Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublardan foydalanish.** O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish aholining turli qatlamlari o'rtasida milliy g'oyaning mazmun va mohiyatini tushuntirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maksadli, bosqichma-bosqich, uzluksiz va tizimli tarzda olib borilishini ta'minlashda zamonaviy texnologik uslublardan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Ushbu yo'nalishda olib boriladigan ishlarni amalga oshirishda har bir ish rejasi, uni amalga oshiruvchi mas'ul shaxslar, tadbirlarni o'tkazish muddati, ularni tashkil etish, tadbir samaradorligini ta'minlash, yakuniy tahlil etish, sotsiologik so'rovlar, ijtimoiy fikrni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Belgilangan, maqsadga erishish, ya'ni aholi va yoshlar ong va dunyoqarashiga milliy g'oya, ma'naviyat asoslarini singdirishda zamonaviy siyosiy texnologiyalar, ayniqsa, jamoatchilik bilan aloqalar (PR-pablik rileyshnz) texnologiyalarini qo'llash muhim va dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Globalashuv jarayonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy mafkuraviy, ma'naviy va ekologiya kabi yo'nalishlarda tobora kuchayib borishini anglash, uning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil etish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari ta'sir doirasining tobora kengayib borishidan kelib chiqqan holda har bir shaxs, ijtimoiy qatlam, huquqiy manfaatlari, qiziqishi va jamiyatda tutgan

maqomini etiborga olish, turli omil, ehtiyoj, qoida va talablar doirasida kelib chiqib ish olib borishni, usullardan foydalanishni talab etadi.

A. Milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etishning zamonaviy texnologik uslublarida har bir shaxsning karashida muhim rol o'ynovchi omillar mavjudligini bu omillar milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etish va ijtimoiy fikrni boshqarish jarayonida hisobga olish zarur. Ular:

1. Madaniy xususiyatlarni hisobga olishi lozim.

2. SHaxsning ta'lim darajasini hisobga olish lozim. Bugungi kunda ko'plab odamlarning e'tiborini tortish, masalan, oliy ma'lumotlilar yoki turli jamoatchilik vakillari bilan muloqotlar tobora tabaqalashib bormoqda. Bu texnologiyalardan foydalanishda o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi.

3. Oilaviy muhit. Ma'lumki, bolalarning fikri, sezishi, dunyoqarashi, siyosatga munosabati va boshqalarni ko'pincha ota-onadan oladi. Insonning ijtimoiylashuvida oilaning o'rnini juda katta.

4. SHaxsning jamiyatdagi o'rnini hisobga olish. Odamlarning ijtimoiy maqomi o'zgarishi bilan ularning hatti-xarakati ham o'zgarib turadi.

5. Milliy, etnik yoki irqiy mansubligi bilan bog'liq xususiyatlarni bilish lozim.

B. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdagi ehtiyoj pog'onalari:

1. Jismoniy ehtiyojlar;

2. Ikkinchi darajali ekzistensial ehtiyojlar: o'zini yashashi uchun xavfsizlik talablarini yaratish, hayot faoliyatdagi himoya, sharoit, sokinlik va barqarorlik sharoitlari.

3. Uchinchi darajadagi sotsial ehtiyojlar: bog'liqlik, muhabbat va sadoqat, ma'lum guruhga mansublik.

4. To'rtinchi darajadagi ehtiyojlar: tan olinish, ishonch va etakchilik, layoqat va ta'sirchanlik, idrok va yutuqlar.

5. Yuqori daraja: - o'zini ifodalash yoki oddiy inson nimaga qodir bo'lsa, o'shanga erishish. O'zini namoyon etish, ijod orqali o'zini tan oldirish va maqsadiga etishdir.

Ushbu besh daraja har qanday shaxs yoki jamoatchilik guruhining milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy va ma'rifin ishlarni tashkil etish va boshqarishda e'tiborga olishi samara berishi mumkin bo'lgan muhim ehtiyojlar sanaladi.

v) Milliy goya targ'iboti, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etishning ayrim qoidalari:

1. Turli omillardan foydalanishda oshkora misol, rasm, ko'rgazmalarni namoyish etishga, kutilmagan harakatlar qilishga, ba'zi odamlarni koyish va urishishga shoshilmaslik, birinchi navbatda shart - sharoitni o'rganish va tahlil etish lozim.

2. Odamlarni o'zingizni qabulingizga chaqirmang, ularning ichiga o'zingiz boring. Ko'pchilik odamlar turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda umuman qatnashmaydi. Odamlarning cheklangan qiziqishini tushunib etgandan so'ng, jamoatchilik hissiyotlarini e'tiborga olish, nimaga qodirligi asosida real strategiyani ishlab chiqish mumkin.

3. Odamlarning xulq-atvorini o'zgartirish uchun umuman tadbirlarni birdaniga o'zgartirishni o'ylamang. Turli axborot va talablarni etkazishda asosli va bosqichma-bosqich xarakter qilish.

4. Axloqiy misollarni keltirishni asosiy dalil emas, qo'shimcha vosita sifatida qo'llash. Axloqiy qadriyatlarni o'zgartirish juda qiyin. Raqibni axloqsizligi haqida gapirishdan ko'ra, ko'proq o'z qaroringizni ustunligini namoyish eting, ko'pchilikning qo'llashiga alohida e'tibor bering.

5. Bosh mezondan foydalaning. Har qanday ish, tadbirlarda aholining barcha qatlamlarini quvvatlashiga erishing. SHart-sharoitni o'zgartirish uchun, unga barcha faol odamlarni jalb eting.

6. Ishontirmoqchi bo'lgan odamlarni xafa qilmang. Muammolarni o'rganish orqali olingan amaliy dalillar natijasiga qaraganda, odamlarga ularni ishontirgan, yoqadigan odam ko'proq ta'sir qilar ekan, chunki uni o'zimizning odam deb hisoblashadi.

g) Milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlariga oid ayrim talablar, milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy va ma'rifiy ishlarini tashkil etish ham ma'lum qonun-qoidalarga bo'ysunadi, o'zining ma'lum tuzilishiga egadir. Ma'naviyat dunyoqarashlar tizimi bo'lib, uning aniq tuzilmasi bo'lishi va ma'lum talablarga javob berishi

kerak. Ushbu talablar milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy va ma'rifiy ishlarining izchilligi, uning yanada rivojlanishi va hayotiyligi imkoniyatlarini belgilaydi:

1.Universal (har tomonlama) bo'lishi kerak. YA'ni, bir necha qonun-qoidalar, yo'nalishlardan tashkil topgan bo'lishi, ularning yordamida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda kechayotgan holatlarni yoritish kerak.

2.Tushunarli bo'lishi va aynan yo'naltirilgan aholi qatlamlari manfaatlariga javob berishi kerak. Bu aholinshg turli sotsial guruh, qatlamlariga nisbatan belgilangan vazifalarni echishi kerak. SHuning uchun g'oyaviy, ma'naviy, ma'rifiy masalalar birinchi navbatda dolzarb bo'lishi kerak.

3.G'oyaviy, ma'naviy va ma'rifiy ishlar texnologiyalari konservativ va "qotib qolgan", eskicha bo'lmasligi, ya'ni o'zgarib turuvchi voqealarga munosabat bildira olishi kerak. Biz axborotlar asrida yashamoqdamiz. Ilmiy texnika inqilobi, axborotlar texnologiyalari - ishlab chiqarish, tibbiyot, siyosat va boshqalarga juda katta ta'sir etmokda. Ilg'or texnologiyalarga ega bo'lgan mamlakatlar o'zining ta'sirini o'tkazishi mumkin va aynan, shuning uchun ham dunyoda ilmiy zahira va imkoniyatlar uchun kurash ketmoqda.

Ma'naviy va mafkuraviy ishlar sohasida esa, ularni doimo milliy g'oya, falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlarning zamonaviy ma'lumotlari asosida doimo rivojlantirib borilishi muhim. SHuning uchun g'oyaviy, ma'naviy va ma'rifiy ishlarini, doimo (o'tmishni xisobga olgan holda) takomillashtirish va o'zgarib turuvchi, yangi shart-sharoitlarga moslashtirish lozim, shundagina g'oyaviy, ma'navny-ma'rifiy ishlar ta'sirchan va samarali bo'ladi.

4. Ma'naviyat, ma'rifat va mafkura qoidalariga mos kelishi kerak. Uni jamiyatdagi turli qatlamlar ongiga singdirish, o'zligini anglash va jamiyatni boshqarish uchun muhim. Ma'naviyat va ma'rifatni ham, mafkurani ham, faqat bir soha bilan bog'lamaslik kerak. Ular g'oya, ma'naviyat va ma'rifat sohasining hamohangligi va qamrovida bo'lishi kerak. Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha aholi o'rtasida o'tkaziladigan tadbirlarda unda qatnashayotgan ishtirokchilar, ularning ma'lumot darajasi,



kasbi, jamiyatda o'rne, maqomidan kelib chiqqan holda tashkillashtirishni, izohlashni va atroflicha tushunchalar berish orqali amalga oshirishni talab etadi<sup>11</sup>.

### **Zamonaviy texnologik uslublardan mafkuraviy maqsadlarda foydalanishning salbiy oqibatlari va uni oldini olish yo'llari.**

YOshlarga qaratilgan yot g'oya va axborot-psixologik ta'sirdan kutilgan maqsad:

– yoshlar ongida siyosiy va mafkuraviy beparvolikni hosil qilish;

– ularning ma'naviy-axloqiy ongini izdan chiqarish;

– “olomon” yoki “to'da” ongini shakllantirish;

– davlatga nisbatan norozilik kayfiyatini shakllantirish;

– mavjud konstitutsion tizimga ishonchsizlikni keltirib chiqarish;

– tartibsizlikni vujudga keltirish;

– asosiy maqsad yoshlarni “zombi”ga aylantirishga qaratiladi.

Axborot xurujiga qarshi kurashda samaraga erishish uchun nishoniga aylangan ob'ektni aniq bilish lozim;

**Birinchidan**, axborot-psixologik xuruj ko'proq mo'ljalga olgan ob'ekt jamiyatning qaysi qatlamida? Qaysi ijtimoiy guruhdan iborat? Ularning muammosi nima? Qiziqishi nima? Hozirda va kelajakda nimani hohlashadi?-kabi savollarga javob aniq bo'lishi kerak;

**Ikkinchidan**, mamlakat miqyosida yangilik niqobida kutilayotgan axborot-psixologik tahdid va xavf-xatarlarning yo'nalishlarini, qaysi tomonga yo'naltirilganligini aniqlash kerak:

**Uchinchidan**, jamiyat hayotida, ayniqsa yoshlar oldida o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish lozim. Demak, axborot-psixologik xurujning ko'lamiga ega bo'lishini oldini olish maqsadida:

1.Echimini kutayotgan dolzarb muammolar haqida ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar haqidagi tahliliy axborotlarni intensiv ravishda xalqaro axborot makoniga chiqarishni kuchaytirish kerak;

---

<sup>11</sup> Қаранг: Миллий ғоя илмий-тадқиқотларининг назарий-методологик асоси. 1-китоб, Андижон., 2008. –Б.62-66.

2.Mavjud muammolarning echimi haqida, ularning bartaraf etilishi yuzasidan davlatning olib borayotgan ishlari haqida xalqaro jamoatchilik qanchalik ko'proq ma'lumotga ega bo'lishsa, axborot-psixologik xurujning ta'siri shunchalik kam bo'ladi, ya'ni xuruj bartaraf etiladim;

3.YOshlar ongida mushohada va tahlil jarayonlarini yana rivojlantirish chora-tadbirlarini jadallashtirish lozim;

4.Davlat olib borayotgan har bir islohot, har bir jarayon haqida, siyosiy va ijtimoiy yangiliklarning har taraflama tahlilini ommaviy-axborot vositalari orqali yaqin va uzoq xorijga tarqatish kerak;

5.Bugungi texnik imkoniyatlar natijasida buning qiyinligi yo'q, aksincha murakkabligi esa axborot tahlili va uning tezkorlikda tarqatilishidadir;

6.Nafaqat yoshlarda, katta yoshdagi alohida ham axborot immunitetini hamda hushyorlik va ogohlik refleksatsiyasini shakllantirish kerak.

Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi ham demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun qarama-qarshi nuqtai nazarlaridan iborat bo'lgan dasturlarni yaratish, turli chiqishlarda muqobil fikrlarga erishish lozim. SHundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va rag'batlantirishga qodir bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlardan ommaviy axborot vositalarining islohoti "g'oyalar bozori"da hali aytilmagan yangi fikrlarni uzatishga qaratiladi. Jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qiluvchi, bunyodkorlik tabiatiga ega, hayotimizni farovon qilishga yo'naltirilgan yangi g'oyalar taklif va tavsiyalar bu "bozor"da bemaol raqobat qila oladi.

Axborot-psixologik immunitetni shakllantirishga yo'naltirish va rivojlantirish, uning tarkibiy qismlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va yo'naltirish imkonini beradi. Natijada avvaldan loyihalashtirish, ta'sir ko'rsatuvchi "salbiy" va "ijobiy" omillarni aniqlash hamda harakat dasturini har tomonlama ishlab chiqish imkoniyati kafolatlanadi.

YOshlarning immunitetini shakllantirish uchun muayyan takomillashgan texnologiyani qidirib topib, uni mantiqiy-nazariy

jihatdan to'liq anglab olish va amaliyotga qo'llashgacha bo'lgan davriylik murakkab jarayondir.

Axborot-psixologik immunitetni shakllantirish alohida munosabat bilan yondoshishni, uslubiyotni hamda mavjud holatni to'liq o'rganishni taqozo etadi. Bunga asosiy sabab:

– immunitetni shakllantirishda muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrash tahdidining mavjudligi;

– yoshlar to'qnashadigan, ba'zan ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kurashadigan hayotiy holatlardan biri - bu fikrning o'ylaganidek ruyobga chiqmasligini anglash;

– YOshlar o'ziniig dunyoqarashi, tasavvuri darajasidan kelib chiqib, fikrlaydi va bu fikrlashni vaziyatning ijobiy yoki salbiy holatlari bilan bog'lab tahlil qila olmasligidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy g'oya targ'iboti siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi va ahloqiy tarbiya bilan uyg'unlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Mafkuraviy faoliyat ana shunday yaxlit tizim shakliga keltirilgandagina, mukammallik kasb etadi. Umuman olganda, targ'ibot-tashviqot texnologiyalarining ta'sirchanligini oshirishda quyidagi usullarni qo'llash kutilgan samarani berishi mumkin:

**Birinchidan**, targ'ibotda murakkab, chalkash mavhum fikrlardan foydalanish samarasizdir. Mazmun qanchalik sodda, aniq tushuntirilsa, ta'siri shunchalik yuqori bo'ladi.

**Ikkinchidan**, inson ko'proq hissiy ta'sirga moyil bo'ladi, shuning uchun uning aql-idroki bilan bir qatorda, his-tuyg'ularga ham murojat qilish samara beradi.

**Uchinchidan**, targ'ibot matnlari chuqur o'ylangan, mantiqiy izchil, ijodiy ishlab chiqilgan bo'lishi darkor;

**To'rtinchidan**, targ'ibotdagi qudratli usul ishontirishdir;

**Beshinchidan**, targ'ibot ishlarning samarasini oshirish uchun noan'anaviy usullarni qo'llash va ilg'or tajribalarni keng yoyish talab etiladi.

YAna bir fikr: mutaxassislarning ta'kidlashicha kishilarning faollikka chaqiradigan, harakatga undaydigan tashviqot ko'proq samara beradi. SHuning uchun "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" yoki "Vatanni sevmoq iymondandir" g'oyalari bilan

bir qatorda “Vatan sening xizmatingga muhtoj”, “Vatan uchun nima qilding” degan g’oyalarni ham targ’ib qilish zarur.

Bugungi kunda ayrim xorijiy ommaviy axborot vositalari bizga o’z mafkurasini singdirishga urinayotganini sezish qiyin emas. Bu haqda Prezident Sir emas, ba’zan beozorgina bo’lib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma’lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi”. Mazkur holat ham milliy g’oyaning targ’ibotining ta’sirchanligini oshirishni hamda har qanday mafkuraviy tahdidlarga nisbatan ogoh bo’lishni taqozo etadi.

Bu esa targ’ibot-tashviqot ishlariga yangicha texnologiyalar, yondashuvlar, uslub va vositalarni jalb etishni talab qiladi.

**Tayanch tushuncha:** zamonaviy texnologik usullar, yangi texnologik uslub sohalari, siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, ahloqiy tarbiya, no’anaviy usullar, yangi texnologiyalardan foydalanish usullari.

**Mavzuni mustahkamlash bo’yicha savollar.**

1. Milliy g’oya targ’ibotining zamonaviy texnologik uslublari.
2. Yangi texnologiyalardan foydalanish shart-sharoitlari.
3. Milliy g’oya targ’ibotining siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya bilan uyg’unligi.
4. Milliy g’oya targ’iboti ishlarining samaradorligini oshirishda noan’anaviy usullarning o’rni.

## **8-MAVZU: MILLIY G’OYA TARG’IBOTIDA "JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR"**

**1. Milliy g’oya targ’ibotida "Jamoatchilik bilan alokalar" tushunchasi, ma’no va mazmuni.** U axborotlarni, jarayonlarni turli xil tarzda qabul qilishi. Milliy g’oya targ’ibotida jamoatchilikning kabul kilish darajasi va yunalishlari. Jamoatchilik bilan ishlashda targ’ibot texnologiyalaridan foydalanish. Ulardan eng ko’p ko’llanilayotgani "Jamoatchilik bilan alokalar" texnologiyasi ekanligi. Uning ko’rinishlari, shakllari va o’ziga xos jixatlari. Texnologiyani ko’llash va uni kabul kilishning mohiyati. Mustaqillik psixologiyasi shundayki, unda har bir fuqaro o’zining erkin mehnati bilan o’zi va o’zgalar manfaati haqida birday

qayg'uradi, chunki fidokorona mexnat yoki tinimsiz izlanishsiz na bir shaxsning, na jamoaning biri ikki bo'lmaydi.

O'z istiqlol yo'lini tanlagan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar ham aynan shu yurt, shu zaminda tug'ilib, yashab, mehnat qilayotganlar manfaatini ko'zlashini har bir erkin fuqaro to'la anglab etish muximdir.

Har bir alohida shaxs ongi va shuurida shakllangan tuyg'ular, fikrlar va munosabat yaxlit jamiyat, xalqning fikri va g'ururiga aylanganda shunday qudrat kasb etadiki, oqibatda erkin va hur yashash, Vatan tinchligi va xar bir oilaning xotirjamligini ta'minlash xalqning e'tiqodi bo'lib qolishi lozim. Demak, ko'pchilikning istak va tilaklari, fikrlashi va munosabatiga aylangan g'oya, tasavvur va bilimlar tizimidagi yaqinlik xalq masligi, deb ataladi.

Xalq maslagi va uning ruhi shunday qudratli ta'sir kuchiga egaki, u har bir sog'lom fikrlovchi insonni ijodiy faoliyatga, kasbi-korining halol bo'lishiga zamin yaratadi. o'zbek xalqi ana shunday ilohiy marhamatga sazovor bo'lgan, o'z milliy e'tiqodiga ega millatlardan biridir. Buni biz buyuk insonlar, mutafakkirlar timsolida ko'rsak bo'ladi. Chunki xalq ruhi va undagi maslakni millatning eng ilg'or vakillari, mutafakkirlar ifoda etadi. Masalan, Amir Temurning davlat qurilishi va sarkardalik bobidagi yuksak iqtidori, xalqimiz ruhiyatidagi salohiyat va imkoniyat ifodasi bo'lgan Alisher Navoiyning ijodi xam xalq maslagining o'lmas namunasi.

Xalq maslagi, yuqorida e'tirof etilganidek, har bir shaxs e'tiqodining yqnalishini belgilaydi. Atrofdagilar va yaqinlari taqdiriga befarq bo'lmagan, ko'pchilik manfaatini o'z manfaatidan ustun bilgan inson bunday maslakka berilgan va undan ta'sirlangan hisoblanadi.

Agar inson bolasining tug'ilish onlaridan boshlab uning ilk rivojlanish davrlari xususiyatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, dastlab u tabiatan faqat o'z ichki hissiyotlari, tuyg'ulari domida – muayyan xudbinlik doirasida rivojlanadi. YA'ni, uning uchun o'z xoxish-istaklari, ehtiyojlari va ularni qondirishdan ortiq tashvish yo'qday. Lekin o'sha ehtiyojlar orasida ota-onasiga, eng yaqinlariga nisbatan hissiy intilish, ular bilan emotsional

muloqotga kirish istagi kuchli bo'lgani sabab u insonlar jamiyati va undagi munosabatlar me'yorlarini sekin-asta o'zlashtirib boradi. 3 yoshdan so'ng oiladagi muloqotga tengqurlar jamiyatidagi muloqotga qo'shilishi munosabati bilan bola xudbinlik kayfiyatidan yanada tezroq voz kecha boshlaydi. Aks holda jamiyat, ko'pchilik uning injiqliklarini ko'tarmaydi. SHu tarzda sog'lom muloqot muhiti bolani ko'pchilikning fikriga ergashish, ko'pchilik xaq deb e'tirof etgan ahloq me'yorlarini egallash, insongarchilik tamoyillariga amal qilishga o'gatadi.

SHunday qilib, bola uchun keng ijtimoiy muxitdagi sog'om g'oyalardan, xalq ruhining qadriyatlaridan to'l bahramand bo'lish imkoniyati tug'iladi.

"YAxshi so'z - qilichdan ham kuchli" degan gap bor. Darhaqiqat, o'rnida ishlatilgan so'zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, ba'mani fikr ham doim odamlarning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday fazilatlar sohibini odatda "Ba'mani odam" deb ta'riflashadi. Bunday shaxslar sog'lom muloqot muhitida fazilatlarini qzgalarga namoyish qila oladi, o'zini erkin tutadi va o'ziga ishonadi.

Muloqot jarayonida fikrga, sog'lom g'oyaga ega bo'lish – masalaning bir jihati. Uning boshqa bir muxim jixati ana shu fikrlarni bayon eta olish qobiliyatidir. Insoniy munosabatlar sohasida buyuk mutaxassis deb e'tirof etilgan Deyl Karnegining kuchi va mashhurligi avvalo uning gapirish va o'zgalarni tinglash qobiliyatida namoyon bo'lgan. U bir vaqtning o'zida minglab odamlarga murojaat qila olar va tinglovchilar vaqtning qanday o'tganini ham sezmas ekan. Demak, nima haqida gapirish emas, u to'g'rida qanday gapirish ham o'ta muhim. Ana shunday ta'sirchan gapirish mahorati va san'ati – ritorika fani bo'lib, u odamdagi notiqlik va o'zgalarni o'z qarashlariga ergashtira olish mahoratini nazarda tutadi. Mafkuraviy tarbiya va ta'sir jarayonida ham gapga chechanlik, so'z boyligi va uni auditoriyaga etkaza olish muhim axamiyatga ega.

Milliy g'oyalarni xalq ongiga etkazishda so'z asosiy ta'sir vositasi bo'lgan va bo'lib qoladi. SHu sababli qadimgi Gretsiyada ritorika maktabda tashkil etilgan va voizlar maxsus qoidalar va

qonunlar asosida omma oldiga chiqib so'zlashga o'rgatilgan. Odamlar ongiga muayyan g'oya asosan shu yo'l bilan singdirilgan.

XX asrga kelib, ritorikaga oid klassik yondashuv ham qayta ko'rib chiqildi. Amerikaning Yel shahridagi ritorikaning tajriba maktabi 60-yillarda ko'plab tadqiqotlar o'tkazib, mafkuraviy va siyosiy targ'ibot va ta'sir uchun so'z va nutqni mutloq samarali deb bo'lmasligini isbot qiladi. Chunki, ommaning siyosiy qarashlari va ongiga ta'sir ko'rsatishning boshqa mexanizmlari borligi tajribalarda asoslandi. Olimlarning e'tirof etishlaricha, mafkuraviy fikrlar ma'lum bir qarashlar tizimi bo'lib, unda mantiq etakchi o'rin tutadi. Lekin inson ongi xar doim ham mantiqqa bo'y sunavermaydi. Bu yo'l yoki vosita aniq fanlar sohasiga, umuman ilm-fanga taalluqli deb hisoblanadi. Ma'lum bo'lishicha, odamni o'zi ishonishi xohlamagan narsaga ishontirish o'ta mushkul ish ekan. Chunki u o'zining shaxsiy qarashlari, manfaatlariga mos keladigan narsalargagina ishonadi. YA'ni, ommaga chiroyli ilmiy iboralardan ko'ra, tabiiy, odatiy, kundalik hayotda ishlatiladigan iboralar, so'zlar tizimi tezroq va kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Tajriba o'tkir siyosatdonlarning hech qachon o'z nutqlarida g'ayritabiiy iboralardan foydalanmasligini ko'rsatadi.

SHunday qilib, tinglovchiga ta'sir etuvchi va uning ishonchini uyg'otuvchi nutq shunday bo'lishi lozimki, uni tinglaganlar har bir ifoda etilgan so'z ustida kamroq o'ylanishi, aksincha, tanish, o'ziga yoqimli narsalar xususida gap borayotganini qalban his qilib turishi kerak. Demak, notiq yoki voiz nutqida ishlatiladigan, jamiyat va xalq manfaatini ifodalovchi ijtimoiy ramzlar – so'zlar, iboralar, shiorlar, narsa yoki hodisalar o'sha tinglovchi talab-ehtiyoji, orzu-umidlari va manfaatlariga bevosita aloqador bo'lgandagina ta'sirchan va ishonchli bo'ladi. Davlatimiz rahbari o'zining o'ta ma'suliyatli lavozimi va mavqeidan qat'iy nazar, oddiy mehnatkashlar bilan uchrashganda yoki Vatan va yurt taqdiriga aloqador masalalar yuzasidan intervyular berganda, har bir O'zbekistonlik uchun tushunarli va ravon tilda, aniq jumlar bilan gapirdilarki, uning mazmuni keksa onaxonlardan tortib, talaba-qquvchilargacha - hammaga birdek tushunarli bo'ladi. Davlat rahbari chet ellik mehmonlar va davlat delegatsiyalarini qabul qilganlarida, ya'ni sof rasmiy marosimlarda esa siyosiy

terminlar, jumladan shunday oqilona foydalanadilarki, Prezident timsolida mehmonlarimiz butun jamiyat va xalqning aql-irodasi va intellektual salohiyati to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi. Mafkuraviy ta'sirning yana bir muxim xususiyati borki, u ham bo'lsa, muayyan qarashlar tizimini birdan, bir vaqtning o'zida ifoda etishga intilmaslik. Chunki oddiy tinglovchi ayrim-alohida fikrlar orqali o'sha mafkuraviy tizimning tub mohiyatini anglab olishi mumkin. Masalan, milliy qadriyatlarimizning axamiyatini uqtirish uchun ularning barchasini bir boshdan sanab o'tish shart emas. YA'ni, ona mehr-muhabbatining naqadar ulkan kuch ekani, bunga aloqador noyob udumlarimiz borligini anglash uchun oddiy ona allasining ta'sirchanligini anglash ham kuchli kechinmalarni uyg'otishi mumkin.

**Mustaqillik psixologiyasi shundayki, unda har bir fuqaro o'zining erkin mehnati** bilan o'zi va o'zgalar manfaati haqida birday qayg'uradi, chunki fidokorona mehnat yoki tinimsiz izlanishsiz na bir shaxsning, na jamoaning biri ikki bo'lmaydi. Inson e'tiqodsiz, g'oyasiz, fikrlashsiz yasholmaydi. Shaxs va uning e'tiqodi masalasi muxim muammolardan bo'lib, uning shakllanishi mohiyatan ijtimoiy omillarga bevosita bog'liq deb qaraladi. Bu masalaga e'tiborning ortib borayotganining boisi shundaki, shaxsdagi g'oyaviy immunitetning shakllanishda undagi ezgu g'oya va iymon-e'tiqod muhim axamiyatga egadir. Agar biz yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma'naviyati boy, mustaqil fikrli va olijanob shaxslar bo'lib kamolga etadi. SHu ma'noda, shaxs e'tiqodi undagi shunday barqaror va teran fikr tasavvurlar, bilimlar majmuiki, g'oyaviy dunyoqarash hamda milliy g'oyalar aslida ana shunday e'tiqodlar asosida shakllanadi.

**Insonning murakkab mavjudot** ekanligi. SHaxsning ma'naviyatini belgilovchi boshqa ko'plab psixologik birliklardan farqli o'laroq, e'tiqod va dunyoqarash nisbatan barqaror va uyg'un bo'lib, uni osonlikcha, tez fursatda o'zgartirib bo'lmaydi. SHuning uchun uning tabiatini o'rganish, uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatish omillarini aniqlash masalasi bilan bevosita bog'liqdir.

SHaxs kamoloti jarayonida uning turli ziddiyatlarga va zararli e'tiqodlarga berilish holati ham kuzatiladi. Masalan, psixologlar



etnik ziddiyatlar hamda diniy e'tiqodlar shakllanishi va o'zgarishiga katta e'tibor berib, ushbu jarayonga xos umumiy qonuniyatlarni o'rganganlar. Masalan, mashhur amerikalik psixolog Gordon Ollportning fikricha, e'tiqod va etnik ziddiyatlar o'ziga xos umumlashgan ustanovkalar bo'lib, agar shaxsda muayyan biror millat vakillariga nisbatan salbiy munosabat yoki ziddiyat mavjud bo'lsa, demak, unda boshqa bir millat vakillariga nisbatan xam xuddi shunday munosabatni kutish mumkin.

Shaxs e'tiqodiga aloqador bo'lgan shunday ziddiyatlardan biri diniy bo'lib, uni haqiqiy taqvodorlik yoki haqiqiy e'tiqoddan farqlash zarur. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, shaxsdagi tashqi va ichki diniy e'tiqodni yoki dinga moyillikni farqlaydilar. Amerika olimlari o'tkazgan ko'plab tadqiqotlarda sig'inish joylariga borish bilan e'tiqodlilik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'lanishni o'rgandilar. Bu bog'lanish bevosita bo'lib, muntazam cherkovga qatnaydiganlardagi tolerantlik o'rtacha qiymatli bo'lib chiqdi. Cherkovlarga muntazam qatnaydigan shaxslarda insoniylik darajasi yuqori bo'ladi. O'sha tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, diniy manbalarni to'la mutolaa qilib chiqqan odam odatda – ancha ziddiyatlardan xoli, tolerantligi esa yuqoriroq bo'lar ekan. Bu tadqiqotlardan qanday xulosalar chiqarish mumkin?

Birinchi, shaxs e'tiqodi uning jamiyatdagi xulqini belgilovchi omil bo'lgani uchun ham uni shakllantirishga eng avvalo jamiyat va jamoatchilik, oila va barcha turdagi ta'lim muassasalari jalb etiladi.

Ikkinchi, biz e'tiqodni shakllantiruvchi har bir omilning ta'sir kuchi nimalarga bog'liqligini bilishimiz kerak. Bular quyidagilardir:

a) ta'sir ko'rsatuvchi manba-shaxs yoki guruh, boshqacha qilib aytganda, kommunikator;

b) ta'sir mazmuni yoki ma'lumot;

v) ta'sir vositasi yoki ma'lumot etkazuvchi tarmoq;

g) ta'sirni qabul qiluvchi yoki auditoriya.

Ta'sir ko'rsatuvchi shaxs – ta'lim beruvchi. Ta'sir ko'rsatuvchi shaxsdan nimalar talab qilinadi? Avvalo, tajriba, bilimdonlik, ishonтира olish qobiliyati, uning nutqi, o'ziga ishonchi va

boshqalar. Ma'fkrachilarning asosiy ish uslubi, metodlariga o'zida mavjud bilim, tushuncha, g'oyalarni asos qilib olgan holda, birinchi navbatda yoshlarda, qolaversa, keng xalq ommasida mustaxkam e'tiqodni shakllantirish, ta'sir ko'rsatish va taqlid etishga chorlashdir. Bunda u muloqotning barcha samarali va ta'sirchan vositalaridan – monolog, dialog, baxs-munozara, breynshtorming kabilardan foydalanadi. Aynan ana shu faoliyat har bir ta'sir ko'rsatuvchining ritorika asoslaridan xabardor bo'lishini, nutq mahoratini egallashini talab qiladi. So'zlovchi o'z nutqida nutqiy va nutqiy bo'lmagan vositalardan o'z o'rnida maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishi shart. Agar voiz yoki notiq qziga berilgan minbarda faqat so'z va iboralar tizimidan foydalanish bilan cheklansa yoki qog'ozga tushirilgan matndan chetga chiqolmasa, uni auditoriya tinglamaydi, unga ishonmaydi. SHuning uchun hissiy ta'sir usullari – o'rinli ishlatilgan qarashlar, imo-ishora, mimika va pitomimika kabilar ham ta'sirni kuchaytiruvchi psixologik mexanizmlar ekanini unutmaslik kerak.

Tarbiyachidan talab qilinadigan yana bir muxim xislat – gapirayotgan kishining yoqimtoyligidir. Bu ham notiqqa nisbatan ishonch va e'tiqodni oshiradi. YOshlar auditoriyasida, voizning murojaatiga e'tibor jiddiyroq bo'ladi. Ziyoli, olimlar auditoriyada, mantiqiy, ilmiy tahlillarga asoslangan fikr va mulohazalar katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Axborotning mazmuni. Notiqning nima xaqida gapirayotgani ham ma'fkraviy tarbiyada muxim o'rin tutadi. Tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, odamlarga ham aqlan asoslangan – (ratsional), ham emotsional (hissiyot uyg'otuvchi) ma'lumotlar tez ta'sir qiladi. Bunda auditoriya xususiyati nazarda tutilishi kerak. Masalan, o'qimishli, tushungan odamlar auditoriyasi faktlarga tayangan asosli ma'lumotni tez qabul qilib, unga ishonsa, kichik yoshlilar, ma'lumot darajasi pastroq shaxslar ko'proq yurakka yaqin, emotsional ma'lumotga o'ch bo'ladi. Bundaylar hattoki ulardagi ayrim negativ xis-tuyg'ularni qo'zg'atuvchi ma'lumotlarga nisbatan ham faolroq bo'ladi. SHuning uchun xam kasallikka qarshi yoki zararli odatlarga qarshi qaratilgan reklamada ko'pincha dahshat uyg'otuvchi rasmlar beriladi. YOki fikrni o'zgartirish uchun berilayotgan ma'lumot tinglovchida mavjud

bo'lgan bilimlardan keskin farq qilsa ham unda yangi ma'lumotga nisbatan ishonch va uni qabul qilishga moyillik kuchli bo'ladi.

Mafkuraviy axborot yozma yoki og'zaki tarzda etkazilishi mumkin. Agar birinchisiga gazeta, jurnallar, kitob va darsliklar, yozma manbalarda mujassamlashgan ma'lumotlar kirsa, ikkinchisiga ma'ruza o'qish, darsni bayon etish, munozara va suhbatlar o'tkazish kiradi. Bundan tashqari, mafkuraviy g'oyalar turli badiiy va hujjatli filmlar, bolalar yoki kattalar uchun yaratilgan multfilimlar orqali ham etkazilishi mumkin. Muhimi, ular xalq ma'naviyati, o'lmas merosimiz, kelajakka ishonch uyg'otuvchi ma'no-mazmun bilan yo'g'rilgan bo'lishi kerak.

Ma'lumotlarning mazmundorligi va ta'sirchanligini ularning ommabopligi, bildirilgan yoki ifoda etilgan g'oyalarning sodda, ixcham va ravon bayon qilinishiga ko'p narsa bog'liq. Tinglovchi har bir so'zni tushunsagina, unda teran munosabat shakllanadi.

Bundan tashqari, birlamchilik va ikkilamchilik samarasi qonuniyati ham bor. Uning mohiyati shundan iboratki, dastlab qabul qilingan ma'lumotning mazmuni odamga kuchliroq ta'sir qiladi. Lekin, ikkinchi tomondan, tinglovchi tomonidan oxirida eslab qolgan ma'lumot ham xotirada mustaxkam o'rnashadi. Buni ham mafkuraviy tarbiya jarayonida albatta inobatga olish zarur.

Bolalar bilan milliy g'oyalarimiz xususida olib boriladigan suhbatlarda tarbiyachi yoki murabbiy avvaldan tayyor savollar tartibini ishlab chiqishi, ishlatiladigan tayanch iboralar katta ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir jumla yoki iboraning konkretligi, hayotiyliigi va obrazlilik muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

**Ommaviy madaniyatning namoyon bo'lish shakllari va zararli oqibati**

***Hayotiy misollar: Madaniy tovarlar bozorining "talab va taklif"lari***

Soatlar har xil bo'ladi – quyosh soati, suv, qum, mexanik, elektron, kvars soatlar... Quyosh soati - quyoshsiz, suv soati - suvsiz, qum soati - qumsiz, elektron soat – elektr tokisiz, kvars

soat – batareyasiz ishlamaydi. Faqat mexanik soatning ishlashi egasiga bog‘liq. Qulog‘ini burab, “dam solsa”, yuraveradi.

Kvars soat - boshqacha. “Avval batareyaning pulini to‘lab qo‘ying, xo‘jayin”-, deydi go‘yo. Batareyasiz soat – befoyda matoh. Soat sizniki, lekin uning yurishi sizga emas, batareyaga bog‘liq. Batareya esa uni ishlab chiqaruvchiga bog‘liq. Mana endi siz batareya ishlab chiqaruvchining muhtojiga aylandingiz. Kimdir sizning kompyuteringizga tushsin, deb “CHuvalchang”, “Troyan oti”, “Pochta jo‘natmasi” degan viruslarni tayyorlamoqda. Virus tushsa, antivirusini topishga ham o‘zlari yordam berishadi. Ana shunday. XXI asrda bir qo‘li bilan - kasalni, ikkinchi qo‘li bilan uning dorisini sotayotganlar ko‘p.

Razm solsak, nafaqat batareyaga, antivirusga, balki ulardan ham muhimroq qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojlarimizni egallab olishga intilayotgan guruhlar borga o‘xshaydi. Masalan estetik, madaniy ehtiyojlarimizni. Ular anchagina ishni qilib ham qo‘yishibdi. Ular kim bo‘ldi? Ular - “ommaviy madaniyat mahsulotlari”ni yasovchilar.

Futbolkalardagi yozuv, suratlardan, disklardagi qo‘shiq, filmlar, displey, ekran, audiopleerlardan, qurilayotgan xususiy binolardan, suhbatlardan, kitob, gazeta va jurnallardan bizga yog‘ilayotgan balolar ustidagi pinhonlik pardasini olib tashladi. Biz bilib-bilmay: “Ha, endi yoshlar boshqacha-da. Qo‘yavering, o‘ynab kulsin. Vaqti soati kelib, bosilib qolar. O‘zimizga qaytar. Qayoqqa ham borardi”, deymiz. Bugun bu befarqlikka, mas‘uliyatdan chekinishga o‘xshab ketmoqda.

Gibrid(yasama) bemaza olmalar o‘zimizning shirin, haqiqiy Baxmal olmalarini siqib chiqarmoqchi. Ayrimlari dasturxonimizning to‘riga chiqib ham oldi. CHiroyli gibrid olmaning ta‘mi suvnikiday. CHiroyliyu, zararli. SHunday ekan, endi ommaviy madaniyat tovarlarini ishlab chiqaruvchilar osib qo‘ygan yorliqlardan emas, ular kimlarni, nimalarga o‘rgatmoqchi ekanligidan, o‘rgatganligidan kelib chiqib xulosa qilish kerak bo‘ladi.

“Ommaviy madaniyat”ning o‘zbeklar ongi va qalbiga tajovuzi ancha oldin boshlangan. “SHum bola” filmini bir eslaylik. Unda bir evropalik Toshkentga kelib, o‘zbeklarning bir tangasini olib,

evaziga “oinai jahoni”dan yalang’och ayol suratini ko’rsatadi. Hozir o’sha janobning nevaralari bobolari kasbini davom ettirishayotir. Bu ishni industriyaga aylantirishdi. Uning nomini “ommaviy madaniyat”, ya’ni hamma ko’rib, pul to’laydigan, hirslarni uyg’otuvchi, hammabop, hammaga tushunarli madaniyat deb atashdi.

SHashmaqom, Betxovenni tushunish uchun odamdan yuqori musiqaviy madaniyat talab etiladi. Ibtidoiy, 2/4 o’lchovli sodda kuy-qo’shiqlarni hamma tushunadi. Biz “SHashmaqom, Betxovenni o’chir. “Qarg’alar”ni qo’y” deymiz. Nega shunday deymiz? Sabab – SHashmaqom, Betxovenning yomonligi emas, balki sho’rolar yillarida bizning musiqiy madaniyatimizning ajdodlarimizniki darajasidan pasaytirilganligida. Ana shuning uchun ham mamlakatimizda aholining musiqa madaniyatiga alohida e’tibor berilayotgani milliy ma’naviyat, san’at va madaniyatimiz rivojida ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Xullas, odamlardan puxta madaniy bilimni, didni, tayyorgarlikni shart qilib, talab qiluvchi milliy madaniyatni – malikaga, bo’yanib, pardoatlanib, odamlarning hirslarini uyg’otib, orqasidan ergashib yuruvchi ommaviy madaniyatni – xulqi noma’qul ayolga o’xshatish mumkin.

Xullas, odamlardan puxta madaniy bilimni, didni, tayyorgarlikni shart qilib, talab qiluvchi milliy madaniyatni – malikaga, bo’yanib, pardoatlanib, odamlarning hirslarini uyg’otib, orqasidan ergashib yuruvchi ommaviy madaniyatni – xulqi noma’qul ayolga o’xshatish mumkin.

Sho’ro davrining o’z hududiy ommaviy-sinfy madaniyati – “sovet madaniyati” bor edi. Sovet madaniyati nazariyasida milliy qadriyatlarga sodiq odamlarni qoloq, madaniyatsiz, millatchi qilib ko’rsatib, qatog’on qilish nazariy asoslandi. Afandinamo oshxo’r paxtakor - Qo’chqorboy obrazi yaratildi. O’zbeklar ana shunday qo’chqorboylar millatiga aylanishi kerak edi. SHunday “namuna”ni targ’ib qiluvchi kinofilmlar suratga olindi. Iqtidorli aktyorlarimiz etakchi rollarni o’ynadilar. (SHu topda xitoylik mashhur aktyor Jiki CHan haqidagi bir mish-mish esga tushadi. Unga gollivudda xitoyliklar to’g’risida salbiy tasavvur qoldiruvchi rolni taklif qilishibdi. U kesib: “Men Xitoy, xitoyliklar to’g’risida salbiy fikr

paydo qiluvchi rolni o'ynamayman", degan ekan. Gollivudlik prodyusserlar buni ko'rib: "Jiki CHan yaxshi aktyor-u, pul ishlashni bilmaydi-da", deb miyig'ida kulib qo'yishgan ekan).

**Misol: Inson = hayvon**

Ommaviy madaniyat ruhidagi filmlar inson qadr-qimmatini tobora tushira bordi. Hayotiy fojialar badiiy filmlarga syujet qilib olina boshlandi. Rossiyaning TV 3 telekanali 2007 yil soat 22da bir oila haqida badiiy film ko'rsatdi. Film tafsiloti: Bir chilangar pensiyaga chiqadi. Bekorchilikdan nima qilishni bilmay, hamma ekinlarni kesib, hovlini avtomobil turar joyiga o'xshatib qo'yadi. Farzand ko'rishmagan.

Ertalab. Er-xotin nonushta qilishmoqda. Xotini tashqaridan iti Bobni chaqirib, ovqatini beradi. Bob bir kilogramm lahm go'shtni ikki yamlab bir yutadi. Buni ko'rgan er bezovtalanib, xotinidan:

- Itga lahm go'sht berdingmi? – deb so'raydi. Xotini:

- Ha.

- Nega?

- Axir u ham ovqatlanishi kerak-ku, – deydi.

SHu topda deraza oldiga 7-8 qarg'a kelib qo'nadi. Xotini ular uchun maxsus pishirgan pishloqlarni beradi. Baliq, mushuk, olmaxonlarga ham maxsus pishirilgan ovqatlarni beradi. Buni ko'rib, erining joni chiqib ketadi:

- Kerri. Qachondan beri hayvonlarni shunaqa ovqatlantirasan?

- 36 yil bo'ldi, Klayd. Senga turmushga chiqqanimdan buyon. Nima edi?

Klayd tutaqib:

- Nega shu paytgacha aytmading? Sen hali 36 yil o'zimni ayamay, mehnat qilib topgan pullaringa hayvonlarni boqdingmi?, – deb o'shqiradi. Ana shunda xotini Kerri:

- Bob. Axir, ular mening do'stlarim-ku, – deydi.

Erining ismi Klayd, lekin xotini adashib, Bob (itining nomi bilan) chaqiradi. Itga beriladigan dorilangan buterbrodni adashib, eriga beradi. Uy g'urbatga to'ladi...

Hayotni qayta boshlashga kelishib olishadi. Klayd xotini bilan o'zining "qiziqishlarini yaqinlashtirish"ga kirishadi: it, mushuk, olmaxon, baliqlarni so'yadi. Terilariga somon tiqib, erto'laga qator

qilib, terib qo'yadi. Buni ko'rgach, xotining esxonasi chiqib ketadi va bolg'a bilan erining boshiga... tushiradi.

Oradan bir necha kun o'tib, terisiga somon tiqilgan Klayd hayvonlar orasidan joy oladi.

### **Eshik oldi nega supuriladi? Bir savolga ikki javob**

Bir samarqandlik olim hikoyasidan(2007 yil 12 mart):

Los Anjelesda bir fizik hamkasbim bor. Frenk. U 2006 yilning yanvarida ilmiy ishiga maslahatchi bo'lishimni so'rab keluvdi. Uyimda 3 kun mehmon bo'ldi. 24 fevral kuni ertalab tursak, qor yog'ibdi. Qizim darvoza atrofini supurayotgan edi. Buni ko'rgan Frenk:

- H-m-m. Sug'urta – jiddiy masala, dedi.

- Nimaning sug'urtasi, dedim tushunmay.

- Sizda er uchastkasi bor. Uning bir qismidan boshqa odamlar yurib o'tadi. Siz o'sha erning qorini kurab turishingiz kerak. Agar kuramasangiz, biror kishi sirpanib, qo'li sinsa, unga siz sug'urta pulini to'laysiz. SHuning uchun eshik oldini supurasiz, dedi.

Men unga o'zbeklarda har kuni, doimo quyosh chiqmay eshik oldi, hovli top-toza qilib supurilishini aytdim. Bu – milliy an'ana dedim.

U jiddiy tingladi. O'yladi. Meni tushunishga urindi. Lekin, bo'lmadi. Menga tabassum qilib, boshini sarak-sarak qilib, "Hamid, meni ko'ndirma. Bu - sug'urta" dedi.

Frenk o'zbeklar ham sug'urtadan qo'rqib eshigi oldini supuradi, degan o'z fikrida qoldi. Ishonmadi.

Eshik oldiga yoqqan qorni Bostonda ham, Bo'stonliqda ham, Forishda ham, Parijda ham kuraydilar. Ish – bir xil, lekin sabab – ikki xil. Bo'stonliq, Forishda – ma'naviy: supursam, savob bo'ladi. O'tganlar duo qilishadi. Uyim farishtali bo'ladi. Supurmasam UYAT BO'LADI. Boston, Parijda – moliyaviy. Supursam, zarar ko'rmayman. CHunki birortasi yiqilib, qo'li, oyog'i sinsa, sug'urta pulini men to'lashim kerak. Supurmasam, ZARAR BO'LADI.

Bir savolga ikki javobni ko'ring: birinchisi – o'zbekona madaniyatning, ikkinchisi – "ommaviy madaniyat"ning javoblari. Qaysi biri madaniyatliroq? Insoniyroq?

Barcha asosiy dinlar insonlar orasidagi, jumladan, erkak va ayol munosabatlarining madaniy me'yorlarini ham yaratgan.

Buning misollarini islom dini misolida yaxshi bilamiz. Xristian dini ham o'z qavmlarini biologik, tuban xohishlardan tiyilish, atrofdagilarni e'zozlash, sevish ruhida tarbiyalagan. Masalan, erkak va ayol muhabbati xristianlarda ham ikki yoshning oila qurishi uchun asos hisoblangan. Og'ir-bosiqlik va andisha ma'qullangan. Jinsiy buzuvchilik qattiq ta'qib qilinib, jazolangan. Sodomistik, besoqolbozlik, gomoseksualizm xudoga qarshi jinoyat deb hisoblangan. Buning uchun hatto qatl qilingan.

Ommaviy madaniyat esa buning teskarisi - "seksual erkinlik", "seksual mo'ljalni tanlash erki"ning tarafdori. Qachon, qaerda, kim bilan, nima bilan? Buning ahamiyati yo'q. Ana shu g'oya XX asrning 50 - 60 - yillarida AQSH va G'arbiy Evropada seksual revolyusiyani boshlab berdi. Bu aslida ommaviy madaniyatning xristianlikka, xudoga qarshi revolyusiyasi bo'ldi. Bugun xudo ularni jazolamoqda. Buzuvchi yigitlar 20-30 yoshida notavon, engiltabiat qizlar esa bepusht bo'lib qolishmoqda.

Barcha dinlar, milliy madaniyatlar o'smir qizlarga "O'zingni bokira tut. Asra", deb keldi. Ommaviy madaniyat esa "Kontratseptivdan foydalan. Partneringni hadeb almashtiraverma. Xo'pmi!", deb nasihat qilmoqda. Bugun u o'z nasihatini o'zbeklarning qizlariga aytish uchun kelayotir.

Ommaviy madaniyatga, u bilan yopirilib kelayotgan ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlariga nimani qarshi qo'ysa bo'ladi? Milliy madaniyatni, milliy tarbiyani, milliy ma'naviyatni, ota-bobolarimiz e'tiqod qo'yib kelgan islomiy qadriyatlarini. Ana shuning uchun ham O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida birinchi bo'lib maktab, kollej, institutlarda dinshunoslik asoslari predmetini joriy etdi. MDHning ayrim peshqadam davlatlari bu ma'rifiy tashabbusning samarasini tez his qildilar. Masalan, Rossiya Federatsiyasi maktablariga 2006 yildan boshlab "Pravoslav(Islom, Buddaviylik) madaniyati asoslari" o'quv predmeti joriy etila boshlandi.

Patrik Byukenen, Oleg Platov, Gerxox Rayzeggerlar faryodini hech kim eshitmayotir. Jilovlanmagan nafs g'arbni evtanaziyaga boshlab bormoqda. Lazzatli o'lim uni o'z og'ushiga tortib, yutayotir. G'arbni faqat tiklangan xalqchil, milliy ma'naviyat, axloqqa asrab qolishi mumkin. Lekin bu ishni tashkil etishga



g'arbning hafsalasi, irodasi etarmikan? Fikrimiz ana shu erga kelganida beixtiyor o'zimizning ildizi 3000 yildan ortiq chuqur, boy va teran tarixdan boshlanib, saqlanib, boyib borayotgan ma'naviyat sohiblari ekanligimizdan shukr qilamiz. Faxrlanamiz. SHunday emasmi?!

Olimlarimiz izlanishlari natijalari bundan ham asosli chiqmoqda. Faylasuf olimalarimizdan M.Qahhorova "Ma'naviy ideal" nomli risolasida G'arbda:

- erkak va ayollarning kiyinish madaniyatida farq yo'qolib borayotgani;

- avlodlar orasida o'zaro hurmat yo'qolib borayotgani;

- yashash – faqat "aysh-ishrat qilish" bo'lib qolgani;

- har bir narsa erkinlik manbai bo'la olishi;

- "nimani hohlasang o'shanga amal qil va unga bo'ysun" deb yashash;

- axloqiy munosabatlar(er-xotin, keksa-yosh)ni "tenglik" g'oyasiga qurbon qilish;

- faylasuf J.Sartrning "mutloq qadriyatlar yo'q. Asosiy muammo insonning qaysi qadriyatni tanlab olishida" degan fikriga amal qilish, biroq, uning "bu masalada mas'uliyatni unutmaslik kerak" degan fikrini unutish;

- psixolog Z.Freydning "inson uchun muhim tamoyil - ehtiyojni qondirish" degan qarashiga amal qilish, biroq, uning "jamiyatning umum institutlari bilan hisoblashish" tamoyiliga amal qilmaslik;

- iqtisodchi M.Veberning "odamlarni juda ko'p boylik orttirishga va xarajatlarni ko'paytirib borish" chaqirig'iga amal qilish, biroq bunda "protestantizm etikasiga amal qilish" kerak, degan talabini bajarmaslik;

- "Hech narsani o'ylamang, faqat qanday yo'l bilan bo'lsa ham mulk toping va eb iching" shioriga berilish(SHo'ro davrigacha Estoniyada yo'llar chetida bir chelak sut, yoniga piyola turarkan. Odamlar sutni ichib, pulini qoldirib ketarkan. SHo'rolar sovet ommaviy madaniyatini olib kelishdi va ... chelaklar suti, piyolasi bilan yo'qola boshladi. O'g'irlab ketaverishdi. Oqibatda bu an'ana yo'qolib ketgan ekan. Bizda esa "Birovning moliga tegma. Harom bo'ladi", degan qattiq tamoyil 2010 yil ham amalda. So'x tumanida 1887 yilda qurilgan sholi tegirmoni bor. Tegirmonga hamma o'z

sholini solib, ishi bitgach 10% sholini qoldirib ketaveradi. Hech kim birovning moliga xiyonat qilmaydi. O'g'irlamaydi. YOki Surxondaryoning Omonxonasida tog' bag'rida bir g'or bor. U erda aholi yillar davomida saryog'larini to'playdi, saqlaydi. Qorovul yo'q, lekin hech kim birovning moliga xiyonat qilmaydi. Hozir ham);

- olimlarning "an'anaviy madaniyatni saqlab qolish", "dunyo sivilizatsiyalari bilan muloqotga kirishish"(Yonas G. Prinsip otvetstvennosti. –M.: Astra. 2004. S. - 80.) va bunda musulmon mamlakatlaridagi sivilizatsiyani chetlab o'tib bo'lmasligi"(Xattington S. Stolknovenie sivilizatsiy. –M.: AST. 2005. s. 54.) haqidagi tavsiyalarini inkor qilish kabi qiziqarli faktlar keltirilgan.

Birovning echkisi hovlimizga kirib, bultur ekkan olma ko'chatimizni kemirsa, derazadan qarab turib, "To'ysa, ketar", deymizmi? Yo'q. Bolamizga achigan ovqatni edirmoqchi bo'layotgan odamni g'ajib tashlaymiz. Lekin ularning ma'naviyatini, didini zaharlayotganlarini yo bilmaymiz, yo bilib hech narsa qilmaymiz. Nega? Buning sabablari, bizningcha quyidagicha:

A. Buning zarar ekanligini bilmaymiz

B. Zarar ekanligini bilamiz. Biroq, unga qarshi nima qilish kerakligini bilmaymiz. Eshitmaganmiz. Ko'rmaganmiz.

V. Bilamiz. Eshitganmiz. Ko'rganmiz. Lekin amal qilmaymiz.

Qanday qilib ommaviy madaniyat turli irqqa, millatlarga, dinlarga, madaniyatlarga, yosh, turli kasblarga mansub millionlab odamlarning madaniy ehtiyojlarini egallab olayotir? Bu savol bizga "ommaviy madaniyat"ning tarbiya mexanizmini – shaxsni sayqallashtirish "yo'llari"ni ko'rsatib beradi. Buning birinchi yo'li – didni birxillashtirish. Bu bolalikdan boshlanadi. Bolalar yaxshi narsalarni emas, balki birovlarga yoqadigan narsalarni yaxshi ko'rishga o'rgata boriladi. YAngi narsami, demak, hozir eng yaxshi narsa – shu.

Bolaning savodi chiqadi. Ana endi u real odamlarga emas, supermenlarga, avval o'ylab, keyin ish qiluvchilarga emas, tavakkalchi avanturistlarga o'xshashga o'rgatila boshlanadi. CHunki minglab komikslar, bolalar telejurnallari shunga

qaratilgan. SHu tariqa “ommaviy madaniyat” bolani xalqidan, millatidan tortib oladi. Milliy tarbiya tizimi buziladi. O‘z tovarlarini sotib oluvchi iste‘molchilarning yangi avlodlari etishib chiqadigan inkubatorlarni yaratadilar. Ongini “ommaviy madaniyat” egallagan yigit-qiz hayotida mo‘‘tadillik, marom, orom yo‘qoladi. SHoshib yashaydi. SHoshib ishlaydi. SHoshib o‘ylaydi. SHoshib ovqatlanadi. To‘xtay olmay, yashay olmay,... o‘tib ketadi.

### **Misol: Barbi**

Dunyoda eng mashhur qo‘g‘irchoqning ismini bilasizmi? Ha, topdingiz – Barbi. Uning onasi – muallifi Rut Xandler – qo‘g‘irchoqlar yasovchi firma egasi edi. Barbi 2009 yil 9 mart kuni 50 ga kirdi. Uning to‘liq ismi Barbara Millisent Roberts.

Germaniyada o‘tgan asrning 50-yillarida karikatura va komikslarda, “sariq matbuot”da Lilli obrazi mashhur bo‘lib ketdi. Lilli – shahvoniy hislarni junbushga keltiruvchi, shaddod, o‘ziga boy-badavlat erni topish yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan sho‘x kotiba edi. U nemis erkaklarining qalbini rom etgan edi. Uning “Men badavlat erkaklarsiz yashashim mumkin, lekin mening byudjetim buni ko‘tarmaydi!” kabi iboralari latifalarga aylangan edi.

Kunlardan bir kuni Lilli ko‘cha aylangani cho‘milish libosida chiqdi. Politsiyachi unga “Ikki bo‘lakli cho‘milish libosida ko‘pchilik orasida yurish taqiqlanadi”, - deb ogohlantiradi. SHunda Lilli: “Xo‘sh, ikki bo‘lakdan qaysi birini echib tashlashimni istaysiz?”, deb javob beradi nozlanib.

Lilli gazeta, jurnallar sahifasidan chiqib, qo‘g‘irchoqqa aylanadi.

Barbining bo‘lajak onasi Rut xonim o‘sha paytda ijodiy g‘oya izlab Evropa safariga chiqadi va Lillini ko‘rib qoladi. Qo‘g‘irchoq o‘zida erkaklarning go‘zal ayol haqidagi barcha orzularini mujassam etgan edi. Nozik bel, bo‘liq ko‘krak, uzun oyoqlar, zavqli chehra... U - Lilli edi. Lillining jozibasi erkaklarni o‘ziga rom qilar edi. Do‘konda uning penyuarlari, ichki kiyimlari, liboslarini ham sotib olish, uni hohlagandek kiyintirib-echintirish mumkin edi. Lilli aslida kattalar uchun ana shunday o‘yinchoq sifatida

tayyorlangan edi. O'sha paytlarda Evropada seks-do'konlar yo'q edi. Lilli tamaki sotiladigan do'konlarda sotilar edi.

Rut xonim darhol Lillini yasab sotish uchun patentni sotib oladi. Qo'g'irchoqning qiyofasiga ayrim o'zgartishlar kiritdi: erkaklarga "menga qarang" deb "tashlanuvchi" nigoh biroz yumshatildi, toshib chiqqan ko'kraklar hajmi biroz kichraytirildi, boshi bolalarnikiga o'xshatildi.

SHunday qilib, ayollar tanasidagi eng muhim joylarni o'zida namoyish qiluvchi, qomati "lampa shisha"ni eslatuvchi qo'g'irchoq - Barbi dunyoga keldi. Unda erkaklarning talablari va ayollarning takliflari mujassam edi.

1959 yil 9 mart kuni Barbi Nyu-Yorkdagi bolalar magaziniga savdoga chiqarildi. U negadir birinchi qadamlaridanoq qoqildi. Sotuvchilar uni sotishdan bosh tortishdi. Nega deganda u bola emas edi. U o'zida balog'at yoshidagi ayol jismidagi barcha bo'rtib turadigan joylarini yaqqol ko'rinib turadigan, erkaklarning shahvoniy hislarini junbushga keltiruvchi yosh ayol siymosini gavdalantirgan edi.

Ana shunda Barbining "onasi" Rut xola uning ko'kragi bolalarnikidek emasligidan uyaldi, shekilli, ko'kragini kichraytirmoqchi bo'ladi. Psixoanalitik Ernest Dixterga maslahatga boradi. U ko'p o'ylab... Barbining ko'kragini... yanada kattaroq qilishni maslahat beradi. "Onalar norozi bo'lishsa nima qilaman", deydi Rut xonim. "Xavotirlanmang. Biz ularga: Barbi qizingizni did bilan kiyinishga, kosmetikadan qanday foydalanishga, o'zini qanday tutishga, go'zal va samarali ko'rsatishga o'rgatadi, deymiz. Hozir - 50-yillar. Urush azoblari ayollarning yodida turibdi. Ular qizlarini maza qilib rohatda yashashini istaydilar. Buni Barbi ko'rsatadi", deydi Ernest. SHunday bo'ldi ham. Barbi ikkinchi jahon urushidan keyin boshlangan iste'mol davrining ramziga aylandi. U qo'g'irchoq edi, lekin u odamlarni qo'g'irchoqqa aylantira boshladi. Barbi moda industriyasi, shou-biznes, glamur, ayol tanasiga sig'inish, kosmetika, plastik xirurgiya, fitnesning ramzi va motoriga aylandi. U ayollarning ongini ana shu tushunchalar sozlab bordi.

60-yillarga kelib uning Ken degan jazmani paydo bo'ldi. Aslida Ken - Rut xonimning o'g'lining ismi. Uning hayoti ham fojiali. U

1994 yilda OITS kasalidan o'lim topdi. Besoqolbozlikdan. G'arbdagi odatiy tushunchalarda aytganda, "noan'anaviy jinsiy aloqa"lar uni noan'anaviy o'limga olib keldi.

Ilgari qizaloqlar qo'g'irchoqlarini ovqatlantirib, yo'rgaklab, beshikka solib tebratib, onalik rolini o'ynab kelgan. Lekin Barbi bunga ko'nmas edi. U bilan boladek o'ynab bo'lmas edi. U chaqaloq, go'dak emas, balog'atga etgan, durkun, ayol edi. U bolalarning emas, erkaklar o'yinchog'i edi. Uni erkalashar, o'pishar, siypalashar, sevishar edi. Ana shunda 50-yillarning go'dak qizaloqlari bir sirni kashf qilishdi: demak, sevimli bo'lish uchun Barbiga o'xshash kerak! Barbidek ko'rinish kerak. Barbidek ko'rsatish kerak. Hamma narsani. Mana bunday:

SHunday qilib, Barbi qizaloqlardan beg'ubor, ma'sum bolaligini tortib oldi. Ularni bolalikning hayratga to'la, sodda ertaklar olamidan chiqarib, erkaklar olamiga soldi. Ularga erkaklarning jinsiy talablaridan "ko'rgazmali" dars o'tdi. 60-yillarda "ozod sevgi" inqilobini tayyorladi. Qizaloqlarning bir qo'lini - ota-bobolari, buvilaridan qolgan milliy ma'naviyat, ikkinchi qo'lini "ozod sevgi" tortdi. "Ozod sevgi" yengib chiqdi.



Barbi 50 yoshda. Endi o'zi ham ona, buvi. "Ozod sevgi"dan ko'p balolar tug'ildi. Ularning to'ng'ichi - OITS bo'ldi. O'rtanchisi - gomoseksualizm. Kenjasi - ommaviy madaniyat.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun test**

#### **1. YOt g'oyalarning tashkiliy asoslari qaysi?**

- A) diniy ekstremizm va xalqaro terorizm
- B) narkobiznes, noqonuniy qurol-yaroq savdosi, aqidaparastlik
- V) jarlikni targ'ib etish, soxta diniy aqidalar
- G) barcha javoblar to'g'ri.

#### **2. Zararli g'oyalar oldini olishning qanday yo'llari mavjud?**

A) tarbiya berish, e'tiqodni mustahkamlash, iftixor bilan yashash

B) komil shaxs tarbiyasi, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish

V) barcha javoblar to'g'ri

G) fuqarolar ongini milliy g'oyalarning shakllanishi

### **3. Milliy g'oyaga zid salbiy holatlar qaysi?**

A) befarqlik, maqtanchoqlik, hasadgo'ylik.

B) manmanlik, hushomadgo'ylik, haqiqatni mensimaslik.

V) tanish-bilishchilik, mahalliychilik, mansabparastlik

G) barcha javoblar to'g'ri

### **4. Milliy g'oyaga zid salbiy holatlarni qandayo bartaraf etish mumkin?**

A) jamiyatda erkin fikr, g'oyalar xilma-xilligi, tanqid, o'zini-o'zi tanqid muhitini yaratish

B) demokratiya va oshkoralik muhitini kuchaytirish

V) sog'lom raqobat muhitini yaratish, jamiyatda ilm-ma'rifatning mavqeini oshirish

G) barcha javoblar to'g'ri

### **5. AQSHda ijtimoiy hayotni mafkuradan xoli etishga urinishlar qachon yuz berdi?**

A) 21-asr boshlarida

B) 20-asr boshlarida

V) o'tgan asrning 60-70-yillarida

G) o'tgan asrning 80-90-yillarida

### **6. G'arbiy Evropa va Amerika g'oyaviy bo'shliq asorati himoya namoyon bo'lgan?**

A) "YOshlar madaniyati" hatti-harakatlarida

B) "Mafkuraviy yangilanishda"

V) "Qayta mafkuraviylashishda"

G) "YAngi hayot tarzida"

### **7. "Agar ijtimoiy fan o'qituvchisi maktab sinfidan o'zining liberal qarashlarini bildiradigan joy sifatida foydalanar ekan, u tez orada ishsizga aylanadi" deb, qaysi gazeta ogohlantiradi.**

A) "Liberoson" Fransiya

B) "El mundo" Ispaniya

V) "Nyu York Tayms"

G) “Ze Neshn” (Millon), AQSH.

**8. Xitoyda yoshlarning noroziligi namoyishlariga sabab bo'lgan, YUgoslaviyadagi elchixonona portlashi qachon ro'y berdi?**

A) 2000-yil 11-may

B) 1999-yil 11-may

V) 1998-yil 12-may

G) 1999-yil 12-may

**9. “Seining xavfsizliging, seining huzur-hulovating, sening farovonliging uchun vatan kerak bo'lsa, munosib fuqaro bo'l” aforizmi kimga tegishli?**

A) Ibn Sino

V) Aflotun

V) Gelvetsiy

G) Erosmus

**10. Jamiyat mafkuraviy immunitet necha pag'onaga bo'lib o'rganiladi va baholanadi?**

A) 3

B) 2

V) 6

G) 5

**11. YOt mafkuralar nimalari bilan o'ziga insonni tortadi?**

A) “betarafligi”, “do'stonaligi”.

B) “yoqimligi”, “mehrbonligi”.

V) “xolisligi”, “do'stonaligi”.

S) hamma javoblar to'g'ri.

## **9-MAVZU: MILLIY G'OYA TARGIBOTIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI**

**1. Milliy g'oyani yangi texnologiyalar asosida targ'ib qilish, uni bosqichma-bosqich asosida amalga oshirish. Milliy g'oya targ'ibotida Ommaviy axborot vositalarining o'rni.** Hayotimizni OAV siz tasavvur qila olmaymiz, ayniqsa, radio, televidenie, gazeta, jurnallarsiz. Odamlarni bugun dunyoda ro'y berayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan, yurtimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan xabardor qilish, hozirgi kunning dolzarb muammolari bo'yicha jamoatchilik fikrini bilish va shakllantirish, ma'naviy-mafkuraviy o'zgarishlarni, ma'rifatni etkazish matbuot xodimlarining muhim burchi hisoblanadi. Mamalakatimiz mustaqilligini e'lon qilish arafasida 1991 yil 14 iyunida "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" gi Qonun OAVning mustaqilligini ta'minlashda poydevor bo'lgan edi. 1997 yilda bu Qonun bekor qilindi va yangisi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67- moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur qoida O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmaydi. E'lon qilinayotgan xabarlar yoki materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek, ularning matni o'zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini talab qilishga hech kimning haqqi yo'q".

O'zbekiston ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish huquqiy asoslarining yanada takomillashuvi matbuotning iqtisodiy erkinligini mustahkamlash maqsadida, bizningcha, asosiy e'tibor quyidagi masalalarning echimiga qaratilmog'i lozim:

-so'z va matbuot erkinligi himoyasi, ommaviy axborot vositalariga oid qonunchilik me'yorlarining yangi qarashlar asosida talqin etilishi, aniqrog'i, ularga mukammal huquqiy sharhlar berilishi shart;



-jurnalistlarning huquqiy bilimlarini oshirish, huquqiy himoya markazlarini tashkil etish, ommaviy axborot vositalari xodimlarining axloq kodeksini ishlab chiqish lozim. Bu matbuotning "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilishiga xizmat qiladi;

Ommaviy axborot vositalarining ta'sirchanligining ortishi, ularning nafaqat davlat muassasalari, balki nodavlat, jamoat tashkilotlari faoliyatlarini nazorat qilish imkoniyatining muttasil kuchaytirilishi fuqarolik jamiyatining rivojlanish qonunlaridan biridir.

G'oyaviy ta'sir vositasi matbuot yoki ommaviy axborot vositalari keng va tor ma'noda ishlatiladi. Keng ma'noda barcha bosma mahsulotlar majmuasi. Tor ma'noda davriy nashrlar, xususan gazeta va jurnallarni ifodalaydi. Demokratik islohotlarni, milliy g'oyani hayotga tadbiq etishda, yangicha ong, yangicha tafakkur, yangicha dunyoqarashni shakllantirishni, ommani g'oyaviy qurollantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ommaviy axborot vositalari hozir sovetlar zamonidagidan tubdan farq qiladi. Sovetlar davrida u milliy zamondan uzilgan, yagona kommunistik mafkura quroli edi. 1996 yil 2 avgustda Oliy majlis tomonidan "Noshirlik faoliyati to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", 1997 yil 24 aprelda "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida", bu qonunlar noshirchilik faoliyatining, ixtirochilik va badiiy ijod mualliflarining O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalarining demokratik, insonparvar, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatga xos huquqiy tayanchlarini belgilab berdi. Ommaning erkin fikrlashiga, har kimning o'z mustaqil fikrini oshkora bayon qilishiga, nihoyat yangicha tafakkur, yangicha dunyoqarashga ega bo'lishga imkoniyat yaratdi. Vaqtli matbuot turlari va sonlari ko'paydi. Mustaqil gazeta va jurnallar vujudga keldi. 1990 yilda 345 ta vaqtli nashr chop etilgan bo'lsa, 1998 yilda ularning soni 670 taga etdi. Nashr etilayotgan 495 gazetaning 377 tasi davlat tashkilotlariga, 74 tasi jamoat tashkilotlariga, 50 taga yaqini tijorat, reklama va diniy nashrlardan iborat. Mamlakatda ayni damda 115 tadan ortiq jurnal nashr etiladi.

**Ommaviy axborot vositalarining "turtinchi xokimiyat" sifatidagi asosiy mezonlar.** Barcha viloyat, qator shahar, tumanlarda davlat, ayrim hududlarda xususiy televedenie va radio vositalari faoliyat ko'rsatib keladi. Ikkita axborot agentligi bor. Ularning yagona maqsadi – mustaqillikni mustahkamlashga, erkinlik va islohatlarni amalga oshirishga, yangicha tafakkur va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Mavjud ommaviy axborot vositalari shu maqsadda birlashadi. Darhaqiqat, O'zbekistonda barpo etilayotgan o'ziga xos demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyat ommaviy axborot vositalari faoliyatining ko'lamini, maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari milliy mustaqillikning Vatan, xalq, millat taqdiridagi o'rni va ahamiyatini, o'tmish rejalari va xalqimizning bunyodkorlik faoliyati misolida yoshlarni g'oyaviy tarbiyalaydi, ularda Vatanga muhabbat, mustaqillikka muhabbat tuyg'ularini avj oldiradi.

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari demokratik islohatlar ahamiyatini, davlatning ichki va tashqi siyosatini odamlar, yoshlar ongiga etkazadi. Inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda davlat va jamiyat o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi.

To'rtinchidan, axborot vositalari ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi omillardan biri. U jamoatchilikni hokimiyatni boshqarishda qatnashishga jalb etadi, qonunlar, qarorlar qabul qilishda qatnashishga da'vat qiladi, shu tariqa ularni siyosiy, g'oyaviy ruhda tarbiyalaydi.

Beshinchidan, matbuotda islom madaniyati, nazariyasi, tarixi va qonuniyatlari keng targ'ib etiladi. Bizda din jamiyatdan emas, balki davlatdan ajratilgan.

Oltinchidan, O'zbekiston axborot vositalari jahon axborot agentliklaridan ajralib qolgan, yirik komp'yuter tizimi "Internet" bilan aloqa o'rnatilgan.

Ettinchidan, mustaqil O'zbekistonda axborotlarning mafkurasidan mutlaqo xoliligi nazarda tutiladi, jamiyatning xolisona, haqqoniy, xilma-xil axborotlarga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi.

Sakkizinchidan, mamlakat aholisini, chet el jamoatchiligini O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'zgarishlardan xabardor qilish va hakazolar.

Nashriyot, noshirlik ham g'oyaviy ta'sirning vositalaridan biri. Unga kitoblar, gazeta, jurnallar, tasviriy san'at asarlari va boshqa bosma mahsulotlarni tayyorlash, nashr qilish va uni tarqatishlar kiradi.

Nashriyotlar chiqarayotgan mahsulotlarning turiga qarab – kitob nashriyoti, kitob – jurnal nashriyoti, gazeta – jurnal nashriyoti va boshqalar... ilmiy adabiyot, ommaviy adabiyot, bolalar adabiyoti nashriyotlari bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikga erishganidan so'ng noshirliklarda keskin o'zgarishlar bo'ldi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Noshirlik faoliyati to'g'risida" qonuni (1996 yil 30 avgust) huquqiy asos bo'ldi. Qonunga asosan noshirlik yo'nalishini, mavzularini, ixtisoslashuvini, chiqariladigan mahsulot nusxasini belgilashda, muallifni tanlashda mustaqil ish ko'radigan bo'lishdi. Yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tganidan va litsenziya olganidan keyin Noshirlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega. Nashrga tayyorlangan qo'lyozmalar va materiallarni senzurdan o'tkazish bekor qilindi. Matbaa mahsulotlarini shartnoma asosida tarqatish joriy qilindi. Nashriyotlar bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, xaridorgir kitoblar nashr etishga harakat qila boshladilar. O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi munosabati bilan o'zbek tilida kitoblar salmog'i oshdi.

Amir Temur mavzui, buyuk mutafakkirlar, diniy, milliy qadriyatlar bilan bog'liq o'nlab kitoblar chiqarildi. Bolalar adabiyoti, ilmiy adabiyotlar nashriga, istiqloq, milliy tafakkur g'oyalari singdirilgan, sharqona odob-ahloq, birodarlik, milliy g'ururni ko'tarishga undaydigan adabiyotlarga, maktab darsliklari nashriga alohida e'tibor berildi. Prezident Islom Karimov asarlari chop etildi. Bularning hammasida xalqimizning, millatning, O'zbekiston fuqarosi o'g'il-qizlarining g'oyaviy tarbiyasi hisobga olingandir. Demak, ommaviy axborot vositalari faoliyatini liberalashtirish davr talabi.

Hozirgi vaqtda jahonning turli nuqtalarida ro'y berayotgan voqea hodisalar haqida OAV orqali to'g'ridan-to'g'ri axborot olish

imkoniyatiga ega bo'ldik. Kelgusida bu jarayonning yanada kengayishi, yangicha ma'no-mazmun kasb etishi ommaviy axborot vositalari faoliyatining yanada erkinlashuviga xizmat qiladi.

Demak, Milliy istiqloq g'oyasini hayotga tadbiq etishda va milliy mafkurani OAV orqali targ'ib qilishda quyidagi tarbiyaviy tamoyil, uslub (metodlar)larga e'tibor berish kerak:

1) Tushuntirishda va bayon etishda oddiylik va lo'ndalik.

2) Talab va taklifni doimiy nazorat ostiga olish.

3) Ongga ta'sir ko'rsatishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish.

4) Ziyolilar mavqeini oshirish, ularga e'tibor va imkoniyat yaratish.

5) Turli bilimlarni egallashga bo'lgan ishtiyoqni qo'llab-quvvatlash.

6) Ommaviy-axborot vositalarida xalq ruhiyatiga yaqinlashtirilgan yangi mafkuraviy materiallarni ko'paytirish, doimiy "aks ta'sir" tamoyi-liga amal qilish.

7) Televidenie va radio zamonaviy ish usullari va shakllarini egallashi uchun rasmiy xabarlarnigina emas, balki xalqaro mezonlarga muvofiq matbuot sahifalarida va televideniya chuqur tahliliy material-lar, jiddiy siyosiy, iqtisodiy, xalqaro sharhlar, bahs-munozaralar ko'rini-shida bo'lishi lozim.

**Hayotiylik** - bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining faoliya-tiga qo'yilayotgan asosiy talab. Berilayotgan axborotlarning asosan yutuqlarni ko'rsatish, maqtovlardan iborat bo'lishi targ'ibotga qanchalik foydali yoki zararli ekanini chamalab ko'rish lozim. Hayot bor ekan, muammolar, kamchiliklar, nuqsonlar bo'laverishi tabiiy. Bu - isbot talab qilmaydigan aksioma. SHunday ekan, muammolarning mavjudligiga fojea sifatida emas, odatdagi narsa deb qarashga o'rganish kerak. Ularning borligini ko'rib, o'zini ko'rmaganlikka olish bilan faqat zarar keltirishi mumkin. Demak, muammolarni o'z vaqtida tan olish, ularni hal qilishga kirishish lozim Targ'ibotning negizida faqatgina g'oyaga ishonch emas, g'oyani targ'ib qilayotgan insonga ishonch ham yotadi. SHu bois, maqtash targ'ibotning yagona va hatto eng to'g'ri usuli ham emas. Demak, mafkuraviy hayotni faqat maqtash, uni benuqson tasvirlash orqali targ'ib qilish mumkin emas.

## **Tayanch tushunchalar**

“**Axborot**” arabcha xabarlar, **Targ‘ibot** - insonni biror harakatga rag‘batlantirish, «inson qalbining sozlovchilari». **Tashviqot** - kishida biror narsaga shavq uyg‘otishga yo‘naltirish. **Avtoritar tarbiya** - diktaturaviy tarbiya. **Noan‘anaviy usul** - an‘anaviy usulning teskarisi bo‘lib, unda «aqliy hujum», «bahs - munozara», intervyu, interfaol va h.k. dan foydalanish. **Komil inson** - ongi yuksak, jismoniy baquvvat, bilimli, ma‘rifatli, mustaqil fikrga ega bo‘lgan inson. **Kommunikativ** - muloqot. **Ommaviy axborot vositalari** - eng asosiy, qudratli va ta‘sirchan mafkura vositasi.

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Milliy g‘oyaini inson ongi va qalbiga singdirishning qanday usullarini bilasiz?
2. Komil shaxs ma‘naviyatini shakllantirishning qanday omillari mavjud?
3. Milliy g‘oyani targ‘ibot-tashviqot etishning qanday tashkiliy tamoyillari mavjud?
4. Milliy g‘oyani yoshlar ongiga singdirishning noan‘anaviy usullari haqida nima bilasiz?
5. Milliy g‘oyani yoshlar ongiga singdirishning asosiy sohalari va yo‘nalishlarini tushuntirib bering?
6. Komil inson fazilatlarini sanab o‘ting?
10. Ommaviy axborot vositalariga nimalar kiradi?
11. Matbuot degani nima?
12. Gazeta va jurnallar nashriga qanday baho berasiz?
13. Milliy g‘oyani hayotga tadbiq etishda OAV ni roli qanday?
14. Hayot haqiqatlarini aks ettirish degani nima?
15. OAV ning targ‘ibot va tashviqotdagi roli nimalarda ko‘rinadi?

## **O‘z-o‘zini tekshirish uchun test**

### **1. Mafkuraviy profilaktika qanday tushuncha?**

a) Mafkura poligonlaridagi kurash, yangi mafkuralarni rivojlantirish degani.

b) Ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g‘oyaviy-tarbiyaviy, ma‘naviy-mafkuraviy ishlar majmui.

v) Mafkuraviy siyosatning vazifalarini amalga oshirish usullari.

g) Odamlarni davolash va ularga yordam ko'rsatish sog'lomlashtirish muassasasi.

**2. Milliy istiqlol g'oyasining mafkuraviy tarbiya va targ'ibot jarayoni asosan nechta yo'nalishda amalga oshiriladi va ular qaysilar?.**

a). Ko'rgazmali targ'ibot, televidenie, radio, internet hamda turli plakatlar, fotosuratlar tasviriy vositalar asosida.

b). Og'zaki ya'ni, uchrashuvlar, suhbatlar, tadbirlar, ma'ruzalar va chiqishlar.

v). Milliy g'oyani yozma tarzda singdirish, bunda tarixiy va zamonaviy adabiyotlar, gazeta-jurnallar, vositasida amalga oshirish.

## **10-MAVZU: MILLIY GOYA TARGIBOTIDA XALK OGZAKI IJODIDAN FOYDALANISHNING UZIGA XOS USULLARI**

**1. Milliy g'oya targibotida xalk og'zaki ijodini o'rganishning ahamiyati katta ekanligi. Xalq o'yinlari, xalk og'zaki ijodining ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlari ommabopligi bilan ajralib turishi.** Avloddan-avlodga o'tib kelgan folklor janrlari o'zining mazmunan tiniqligi, sodda va ravonligi, shaklan mukammalligi va badiiy teranligi bilan tinglovchi kalbiga tez singib ketishi. Xalk ogzaki ijodining dostonchilik, baxshichilik yunalishlaridagi ijod namunalarida xam yoshlarning ma'naviy- ruxiy kamolotini yuksaltirishga xizmat kiladigan qator bunyodkor g'oyalar o'z aksini topganligi. "SHuningdek, o'qitish texnologiyasi, darslik, ijtimoiy fan salohiyatiga, ularni amalga oshirish omillariga bog'liq. **Milliy g'oya targ'ibotida xalq og'zaki ijodini o'rganishning ahamiyati.** Xalq og'zaki ijodi — bemisil boyligimizdir. Biz ertaklar, laparlar, aytishuvlar, topishmoqlar, allalar va maqollarni eshitib ulg'ayganmiz. Xalqimizning xayoliy dunyosi, yuksak tafakkuri mahsuli bo'lgan bu yanglig' xalq og'zaki ijodi

namunalarini tinglab tafakkur olamimiz kengayib, oqni qoradan, yaxshini yomondan farqlay oldik.

Insonni ma'naviy yuksaklik sari etaklovchi bu boy madaniy merosimiz asrlar osha o'z qadr-qimmatini yo'qotmay, yillar o'tgan sari sayqal topib bormoqda. Xalqimiz tomonidan og'zaki yaratilib, xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan badiiy asarlar o'zbek xalq og'zaki ijodini tashkil etadi. Og'zaki so'z san'ati "folklor" yoki "xalq og'zaki ijodi" terminlari bilan ifodalanadi. Folklor termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llangan bo'lib, u ikki so'zdan iborat - "folk" xalq, "lore" - donishmandlik, ya'ni "XALQ DONISHMANDLIGI" demakdir.

Folklor - xalqaro termin. Lekin u turli mamlakatlarda turli ma'noda qo'llaniladi. Masalan, Angliya va AQSHda xalq badiiy faoliyatining barcha turi shu termin bilan ataladi. Maqol so'zi arabcha bo'lib, "so'z" demakdir. Xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarni ixcham shaklda ifodalovchi asarlar maqollardir. "Vataning tinch - sen tinch". Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda". Ilmsiz bir yashar, ilmi ming yashar".

Matallar - ko'chma ma'noda ishlatiluvchi xalq ma'joziy iboralarining bir turidir. Matalda o'xshatish, kinoya, qochirma va boshqa til vositalari qo'llaniladi. Matallardan namunalar: "Tuyaning dumi erga tekkanda". "Ilon inidan chiqadigan". Ertaklar - xalq og'zaki ijodining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib otabobolarimizning turmush tarzi, vatanga muhabbati, jasorat va adolatlilik haqidagi ideal orzulari hayoliy va hayotiy uydirmalar dostonida hikoya qilinadi. Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Xatto, turli yoshdagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar yaratilgan.

**Madaniy meros, uni tiklash va rivojlantirishning g'oyaviy-mafkuraviy ahamiyati.** Barcha ijtimoiy-ma'naviy hodisalarning, shu jumladan g'oya va mafkuralar rivojlanishining moddiy va ma'naviy asoslari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini, bir tomondan, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy jarayonlar belgilaydi. Ikkinchi tomondan, g'oya va mafkuralar jamiyatning moddiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. SHu nuqtai nazardan

O'zbekistonning bugungi va kelgusi taraqqiyotida mustaqillik yillari shakllanayotgan milliy istiqlol mafkurasi g'oyat muhim o'rin tutadi.

Milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasining asosiy tamoyillarini yaratish masalasiga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvda so'zlagan nutqida: "Milliy g'oya oldiga qo'yiladigan asosiy talablar haqida gapirmoqchi bo'lsak, avvalo uning ikki suyangan tog'i – tayanchi haqida fikr yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda, milliy mafkuramiz xalqimizning tarixiy merosi, azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning duyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati va farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i darkor", deb ta'kidlagan edi.

SHu nuqtai nazardan jamiyatimiz hayotida, kishilarimiz ongi va qalbida milliy g'oyani shakllantirib, rivojlantirishda o'tmish madaniy meros va milliy ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash hamda o'rganib, o'zlashtirish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

SHuning uchun ham, mamlakatimizda benihoya boy va rang-barang tarixiy merosimizni tiklash, ulardan jamiyatimizni ma'naviy yuksaltirishda, g'oyaviy-mafkuraviy ishlarni rivojlantirishda samarali foydalanishning umumnazariy-metodologik asoslari hamda amaliy-tashkiliy, tarbiyaviy yo'l-yo'riqlari ishlab chiqildi. SHular asosida bugungi kunda yoshlarni milliy g'oyalarimiz ruhida tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviyat, intellektual salohiyat va milliy g'ururni shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifasidir. "Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan.

Bizning vazifamiz — shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish".

Ushbu vazifani to'la ro'yobga chiqishida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy va ma'naviy merosni o'rganib,



o'zlashtirish, ularni ma'naviy taraqqiyotimizdagi o'rnini teran anglab etish muhim o'rin tutadi.

SHunga ko'ra, hozirgi sharoitda milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda madaniy merosning o'rni quyidagi omillar bilan belgilanadi.

1. Xalqimizning haqqoniy tarixi, boy madaniy merosi va milliy ma'naviy qadriyatlari hamda mustaqillik yillari ularni tiklab, rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning mazmuni va ahamiyatini chuqur anglash.

2. Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimida yaratilgan keng imkoniyatlar va hozirgi davr talablaridan kelib chiqib, milliy istiqlol g'oyasini tarixiy meros bilan uzviy bog'liq jihatlarini o'qitishning zamonaviy uslub-vositalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish.

3. G'oyaviy ta'lim-tarbiyada madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va bu boradagi ishlarni milliy taraqqiyot manfaatlari asosida uzluksiz rivojlantirib borish.

Bu omillarning mazmuni va ahamiyati madaniy merosdan g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyada qay yusinda foydalanish mumkin, degan masalalar bilan bog'liq.

Dunyodagi har bir inson, millat, jamiyat ma'naviyati va mafkurasining real ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy asos-manbalari hamda uni rivojlantirish usul-vositalari o'ziga xosdir. Masalan, ba'zi xalqlarning ma'naviyati, ruhiyati, milliy g'ururi, ko'p jihatdan, ular yashayotgan mamlakat (davlat)ning moddiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy kuch-qudratiga asoslansa, boshqa ba'zilariniki, umuman, ma'naviy-madaniy jarayonlar bilan bog'liq. SHu nuqtai nazardan bizning xalqimizda milliy ma'naviyat va mafkuraning shakllanib, rivojlanishida o'tmish va bugungi ma'naviy-madaniy jarayonlar asosiy rol o'ynaydi. Umumlashtirib aytganda, milliy mafkura g'arbda ratsional manfaatdorlikka, SHarqda milliy an'anaviylikka asoslanadi, bo'ysunadi.

Keyingi to'rt-besh asrlar mobaynida rus, nemis, fransuz, ingliz kabi qator millatlarning mafkuralari, asosan, umumiy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq holda boshqa millatlarga rahna soluvchi ulug' millatchilik va buyuk davlatchilik shovinizm ruhi bilan birga shakllanib, taraqqiy qilgan bo'lsa, SHarqdagi

deyarli barcha xalqlarniki an'anaviy milliylikni saqlab, muhofaza qilishga qaratilgan ijobiy ma'nodagi millatchilik hamda milliy mustaqillik va taraqqiyot g'oyalari bilan rivojlanib kelmoqda. Binobarin, har bir xalqning g'oyaviy, ma'naviy-mafkuraviy taraqqiyoti o'ziga xos real ijtimoiy-tarixiy asoslarga ega bo'lib, uning rivojlanib, yuksalishi yoki pasayib, barham topishi to'g'ridan-to'g'ri ana shu omillarga bog'liq. Bunga dunyodagi xalqlarning o'tmishi va bugunidan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Darhaqiqat, "Qadimiylkda Misrliklardan qolishmaydi"gan (Pompey Trog) xalqimizning madaniy merosi va milliy ma'naviy qadriyatlari hamisha jahondagi ko'pchilik olimlarning diqqat e'tiborini tortib kelgan. Buning asosiy sababi - biz xaqiqatan ham ulkan va boy madaniy-ma'naviy merosga egaligimizdadir. SHuning uchun ham, turli tarixiy davrlarda dunyodagi har xil olim-mutaxassislar o'tmish merosimizni o'rganishga katta qiziqish bilan qarashgan. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan so'ng bu jarayon yanada kuchaymoqda. SHu tariqa tariximiz, milliy madaniyatimiz turlicha nuqtai nazarlardan turib, har xil talqin qilingan ko'plab manbalar yuzaga kelgan. Biroq, bu o'rinda, ushbu manbalarning aksariyatida xalqimizning o'tmishi (qolaversa, buguni ham) va madaniyati hamisha ham to'liq yoritilib, ob'ektiv baholanmaganligini ta'kidlash joiz. YA'ni, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojida butun SHarq xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi madaniy taraqqiyotini kamsitib, erga urgan "Ovropamarkazchilar", SHarq madaniyatini ma'lum ma'noda ideallashtirgan "Osiyomarkazchilar" ham, shuningdek, dunyoning turli joylarida muayyan maqsad-muddalarni ko'zlab tariximizni yozgan boshqa ayrim olimlar yoki o'tmishimizni soxtalashtirgan mustamlakachi sho'rolar zamonidagi fanlar ham milliy madaniy-ma'naviy merosimizni ko'p hollarda to'liq va xolis yoritmagan. Bu xususda Prezidentimiz Bu boradagi ishlar faqat mustaqillik yillarida to'g'ri izga tushdi. Prezidentimiz xalqimiz tarixiy merosini tiklash bo'yicha benihoya ulkan ishlar amalga oshirildi. O'tmish merosimizga mustamlakachilik davrlaridagi g'ayriilmiy mafkuraviy yondoshuvlarga barham berildi. Zero, xalqimizning boy o'tmish madaniy merosi va milliy ma'naviy qadriyatlari

kishilarimiz ongi va qalbida milliy g'oyani shakllantirib, rivojlantirishning g'oyat muhim manbaidir.

Madaniy meros - har bir xalqning ajdodlari tomonidan yaratilib, avlodlari hayotida yanada rivojlanib boruvchi moddiy va ma'naviy boyliklar majmuidir. "Har bir davr va avlod o'ziga xos madaniy meros yaratadi. Madaniy merosga qarab davr va avlodlar haqida hukm chiqariladi. Madaniy meros qanday bo'lsa, davr va avlodlar ham shunday" bo'ladi. SHu bois madaniy merosning inson, millat, jamiyat hayotidagi o'rni, ahamiyati va qadri, ularga nisbatan munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, bu meros har bir avlod tomonidan rivojlantirilib, boyitib borilsa, millatning kelgusi taraqqiyoti yuksalib borishi; unutilib yoki yo'q qilib yuborilsa, milliy madaniyat, binobarin millat ham barham topishi mumkin. SHu nuqtai nazardan, milliy g'oyani shakllantirishda madaniy merosning o'rni kishilarimizning bu merosga nisbatan munosabatlari bilan belgilanadi. CHunonchi, sho'rolar zamonida mustamlakachilik manfaat va ehtiyojlaridan kelib chiqib, madaniy merosga g'oyaviy-mafkuraviy nuqtai nazardan yondoshishga, butun tariximizni soxta mafkuraviy mezonlar asosida baholashga alohida e'tibor qaratildi. O'tmish merosimizga ob'ektiv yondoshish o'sha davrdagi kompartiyaning mafkuraviy manfaat va maqsadlariga mos kelmas edi. CHunki buyuk va boy o'tmishga ega bo'lgan xalqni undan ajratib, tarixiy xotirasini so'ndiribgina puch g'oyalarga ishontirish va ergashtirish mumkin bo'lardi. SHuning uchun mustamlakachilik tuzumi tariximizni o'z manfaatlariga mos keladigan tarzda, soxtalashtirib, qayta yozib, undan mafkuraviy maqsadlarda foydalanish yo'lini tutgan.

SHuning uchun ham mustaqillik yillari xalqimizning o'zligini o'yg'otib, ruhiy-ma'naviy yuksaltirish va milliy taraqqiyotimizni ta'minlash uchun o'tmish merosimizni tiklash va rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Endilikda ulug' ajdodlarimiz yaratib qoldirgan g'oyat boy va rang-barang moddiy hamda ma'naviy meroslar tiklanib, xalqimiz hayotiga yangi mazmun baxsh etmoqda. Xususan:

- xalqimizning o'tmish hayoti, milliy ongi, madaniyati va tafakkuri aks etgan "Avesto", "O'rxun-Enisey bitiklari", "Qutadg'u bilig", "Devonu-lug'atit turk", "Hibbatul haqoyiq", "Devoni hikmat",

“Temur tuzuklari”, Alisher Navoiyning 20 jildlik to‘la asarlari to‘plami, “Boburnoma”, “Turkiy guliston yoxud axloq” singari ma’naviy merosimizning ko‘plab durdonalari, “Alpomish”, “Guro‘g‘li”, “Ravshan”, “Avazxon” kabi o‘nlab dostonlar hamda turli ertaklar, maqollar, matallar, latifa, qiziqchilik asarlaridan iborat xalq og‘zaki va yozma ijodiyotining yuksak namunalari;

- o‘z davrlarida barcha ilm sohalarini beqiyos rivojlantirib, jahon ilm-fani, madaniyati va tafakkuri taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad YAssaviy, Burxoniddin Marg‘oniy, Bahovuddin Naqshband, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Abdulla Qodiriy va boshqa buyuk allomalarimiz yaratgan boy ilmiy, falsafiy meros;

- ajdodlarimizning yuksak badiiy didi va mahoratlari bilan yaratilgan hunarmandchilik, amaliy va tasviriy san‘at asarlari, raqslar, kuy-qo‘shiqlar, teran milliy qadriyatlar, urf-odat, an‘analar;

- o‘z hayotlarini yurt ozodligi va xalq farovonligi uchun kurashga bag‘ishlagan To‘maris, SHiroq, Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Mahmud Tarobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Dukchi (Madali) Eshon, Nomoz botir kabi milliy qahramonlarimiz haqidagi asl haqiqatlar;

- dunyo me‘morchilik san‘atining o‘ziga xos yuksak ko‘rinishini aks ettirgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, SHahrisabz, Toshkent, Farg‘ona vodiysi va boshqa hududlardagi noyob tarixiy yodgorliklar, yangidan bunyod etilayotgan xotira obidalari hamda moddiy madaniyatimizning yana ko‘plab nodir namunalari qayta tiklanib, yangi bosqichlarda rivojlanmoqda. Ular biz uchun faqat o‘tmishdan qolgan yodgorliklarga emas, balki ajdodlarimizning mehnati, aql-idroki va tafakkurining ulkan yutug‘i, bebaho boyligimiz, ma’naviyatimiz va milliy mafkuramiz shakllanishining bitmas manbai hamdir.

SHunga ko‘ra, o‘z taraqqiyotida juda qadimiy ildizlarga ega:

- ona tilimiz va u bilan bog‘liq og‘zaki va yozma ijodiyotimiz namunalari – adabiy merosni;

- jahon ilm-fani va tafakkuri taraqqiyoti tarixida katta o‘rin tutuvchi ilmiy, falsafiy merosni;

- turli tarixiy davrlarda yaratilgan moddiy madaniyatimizning nodir namunalari, ya’ni moddiy merosni;

- xalqimizning ruhiy-ma’naviy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega diniy qadriyatlarni;

- ko‘p asrlar davomida shakllanib, mustaqillik yillari yangi bosqichlarda rivojlanayotgan yuksak milliy urf-odat, an’analarni hamda ma’naviy madaniyatimizni kishilarimiz tomonidan chuqur o‘rganib, o‘zlashtirishi milliy g‘oya va mafkuraning rivojlanishida g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotchi olimlarning yozishlaricha, turli xil ertak, rivoyatlar, dostonlar, maqol-matallar shaklida bizgacha etib kelgan og‘zaki va yozma ijodiyotimizning ilk namunalari ajdodlarimiz tomonidan juda qadim zamonlardayoq yaratila boshlangan. Ularda o‘tmish ajdodlarimizning teran ijtimoiy-falsafiy, badiiy, ma’naviy-axloqiy, siyosiy, xuquqiy va boshqa qarashlari aks etgan. Bobolarimizning madaniyati, ongi, tafakkur saviyasi, turmush tarzi, turli davrlardagi ahvol-ruhiyasi, umid, orzu-intilishlari o‘z ifodasini topgan. Manbalardan ma’lum bo‘lmoqdaki, tariximizning turli davrlarida yashab o‘tgan ajdodlarimiz, o‘z davrlari darajasida, hamisha boy ma’naviyatga, yuksak ong va tafakkurga, mustahkam ishonch-e’tiqodga, teran bilim, salohiyatga, irsiy qobiliyatga ega bo‘lishgan. Ular milliy - umuminsoniy qadriyatlar yaratishda, ilmu-urfonda, san’at va adabiyotda, davlat va jamiyat qurishda, xo‘jalik yuritishda, shaharlar bunyod etishda, kasb-hunarda, harbu-zarbda ilg‘or bo‘lishgan. Bobolarimiz mehnat-mashaqqatlarga chidamli, avlod-ajdodlariga sadoqatli, tinchliksevar, vatanparvar, millatparvar, ornomusli, g‘urur-iftixorli bo‘lishgan. SHu tariqa millatni, o‘ziga xos milliy madaniyatni, milliy g‘oya va mafkurani shakllantirishgan, milliy g‘ururimizning asoslarini barpo qilishgan. SHuning uchun, Prezidentimiz Mustaqilligimiz tufayli asl hoida tiklanib hayotimizga qaytarilayotgan noyob va bebaho xalq og‘zaki hamda yozma ijodiyotimiz namunalari “Alpomish”, “Guro‘g‘li”, “Ravshan”, “Avazxon”, “Oysuluv”, “Qirqqiz” kabi qator dostonlar, badiiy adabiyotimizning boshqa ko‘plab namunalari, turli xil ertaklar,

maqollar, matallar, termalar, latifa va qiziqchilik, folklor asarlari endilikda xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotiga yangi mazmun baxsh etmoqda. Istiqlol yillari bunday meroslarimizni har tomonlama o'rganib, yangi bosqichlarda rivojlantirish va ulardan jamiyatimiz ehtiyojlari yo'lida keng foydalanish eng muhim vazifalardan bo'lib qoldi. Xususan, o'tmish ma'naviy merosimiz ichida alohida o'rin tutuvchi xalq dostonlari bugungi kunda g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyada juda katta ahamiyatga ega.

Umuman, noyob xalq dostonlarimizning tiklanib, hayotimizga qaytishi xalqimiz milliy ma'naviy uyg'onishining, o'z-o'zini anglashi va milliy mafkurasiga ega bo'lishining ramzidir.

Istiqlol yillari badiiy merosimizning muhim qismi bo'lmish dostonlarimiz va baxshichilik san'ati yangidan tiklanmoqda. Endilikda radio va televidinieda, turli matbuot nashrlarimizda bu san'at turi tez-tez namoyish qilinib, muntazam targ'ib etilmoqda. Bu sohani har jihatdan qo'llab-quvvatlab, rivojlantirish uchun mamlakatimizda turli darajalarda har xil tadbirlar o'tkazilmoqda, bu sohada xizmat qilayotgan baxshi - ijrochilar, tadqiqotchi, olimlar rag'batlantirilib, ular uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ayniqsa, dostonlarimizni asl holda to'liq nashr etilayotganligi, ularning milliy ma'naviy taraqqiyotimiz uchun ahamiyatini chuqur tushunib etgan jonkuyar yurtboshi va ziyolilarimizning amalga oshirayotgan keng ko'lamli ishlari tahsinga sazovordir. Bu ishlarning barchasi g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya jarayoniga katta ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir.

Ma'lumki, har qanday millatning ruhiy-ma'naviy kamolotini mavjud madaniy meros va milliy ma'naviy qadriyatlarning o'zlashtirish darajasi belgilaydi. Binobarin, kishilarning muayyan madaniyat va qadriyatlarga bo'lgan ehtiyoj, manfaat, intilishlari, ularni anglab, o'zlashtirish imkoniyatlari millatning ruhiy-ma'naviy saviyasini, dunyoqarashi, estetik didi, axloqiy me'yorlarining muhim ko'rsatkichidir.

SHu nuqtai nazardan, dostonlarimiz va ularni ijro etish bilan bog'liq baxshilik san'ati milliy madaniyatimizning g'oyat noyob hamda yuksak namunasi va darajasi hisoblanadi. SHuning uchun dostonlarimizni anglab, o'zlashtirish yoki ularga bo'lgan qiziqish

va intilishlar kishilarimizning ma'naviy-ma'rifiy kamolotida, milliy mafkurasining shakllanib, rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Dostonchilikning milliy kamolotga qanchalik ta'sir etishi dostonlar mazmuni va ijrochi baxshilar san'ati bilan ularni o'quvchi yoki tinglovchilarning madaniy saviyasi o'rtasidagi uyg'unlikka bog'liq. Taassufki, hozirgi vaqtlarda ham ko'pgina kishilarimizning dostonchilikka bo'lgan munosabatlarida millat bilan milliy madaniyat o'rtasidagi shunday bir g'ayrimantiqiy holat kuzatiladi: ko'pchilik kishilarimiz, ayniqsa yoshlarimiz o'ziga xos tabiiy ovozlarda aytiladigan doston yoki klassik qo'shiqlarimizni emas, ko'proq turli apparatlar va musiqa asboblari yordamida ijro etilayotgan kuy-qo'shiqlarni eshitishni xush ko'rishadi. SHu nuqtai nazardan, hozirda juda ommaviylashib ketgan aksariyat ana shunday kuy-qo'shiqlarning she'riy mazmuni, badiiy saviyasi istalgan doston yoki mumtoz qo'shiqlarga nisbatan juda sayozligi nazarda tutilsa, bundan ko'pchilik kishilarimizning ma'naviy-ma'rifiy kamoloti, estetik didi, san'atni baholay olish saviyasi qanday ekanligi haqida ancha noxush xulosa chiqadi...

Xalqimiz ongi va qalbida milliy g'oyani shakllantirish hamda jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirishda adabiyot va san'at o'ziga xos alohida o'rin tutadi. Ular yuksak ma'naviy qadriyatlarni, milliy madaniyat, urf-odat, an'analarni, ma'lum g'oya va mafkurani odamlar qalbiga singdirishda, xalqning ruhini ko'tarib, porloq istiqbol, buyuk kelajak uchun kurashga safarbar qilishda juda katta rol o'ynaydi.

Adabiyot va san'at insonlarga o'tmish hamda kelajakni idrok qilishga, hayot muammolarini to'g'ri anglab echishga, ijtimoiy ongini, tafakkuri va dunyoqarashining o'sishiga benihoya katta yordam beradi. Ular xalqning o'ziga xos ichki dunyosini, ruhiy-ma'naviy qiyofasini, olam va odam to'g'risidagi tasavvur-qarashlarini tasvirlashda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini, umuman insonlar hayotining mazmunini ochib ko'rsatishda cheksiz imkoniyatlarga ega.

Istiqloлга erishgunimizga qadar jahon adabiyoti va san'ati taraqqiyoti tarixida o'zbek xalqi adabiy merosining o'rni hamda ahamiyatidan deyarli bexabar edik. Nazarimizda, buni hamon to'la

va chuqur anglab ololganimiz yo'q. Chunki, endilikda jahon adabiyoti durdonalaridan bemalol o'qib, o'rganib, ulardan bahramand bo'lar ekanmiz, tabiiyki, ba'zan ular bilan o'zimizning bobolarimiz tomonidan yaratilgan turli adabiy merosimiz namunalarini qiyoslab qolamiz. SHunda bir qancha yillar mustamlakachilik zindonida faqat xalqimizning o'zi qamalibgina qolmay, uning yanada tubirog'iga o'tmishimizdagi ulug' bobolarimiz yaratgan ulkan ma'naviy meros ham tiqilganligi sezilib qolayotir. YA'ni, bu sohadagi tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, tarixda o'zlarining badiiy, ilmiy, falsafiy tafakkuri ziyosi bilan insoniyat hayotini yoritgan ulug' ajdodlarimiz adabiyotda, ilm-fanda shunday qasrlar yaratishgan ekanki, ularni mustamlakachilik tuzumi uzoq yillar davomida talab, o'maribgina qolmay, yana markscha-lenincha mafkura devori bilan to'sib ham qo'ygan ekan.

SHu boisdan jahon adabiyoti tarixidagi juda ko'p bo'sh joylar, kamchilik-kemtiklar, etishmayotgan adabiy mukammalliklar yaqinlardan boshlab dunyo qayta taniiyotgan o'zbek xalqining bobolari va ular ijodiyotining o'rni ekan. Bunga birgina buyuk bobomiz Alisher Navoiy ijodiyoti yoki ul hazrat o'rgangan yo uni ustod tutgan allomalarimizning ayrim asarlari, ayniqsa, ularga nisbatan dunyo va o'zimizda yuz bergan munosabatlar ham dalil bo'la oladi.

CHunonchi, bir tomondan, har qanday sharoitda, hatto sho'rolar tuzimida ham, Ollohni inkor qilib, yo'qqa chiqarib bo'lmagani kabi, o'zbek xalqi o'tmishida "Avesto"dan boshlab, sohibqiron Amir Temur va Alisher Navoiylar davrida yoki undan keyinlari ham yaratilgan boy merosning haqiqatdan ham zamini mustahkam va juda ulkanligidan umuman yo'qotishning iloji bo'lmagan. SHuning uchun sho'rolar mafkuraviy siyosatida ularni ataylab soxtalashtirish, noto'g'ri talqin qilish yo'li tutilgan. Boshqa tomondan, dunyoda haqiqatan yuksak badiiy, ilmiy, ijtimoiy-falsafiy tafakkur tabiatini o'rganish va o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj, zarurat mavjudligi tufayli, turli davrlardagi har bir tuzim, har qaysi xalq, har xil olim-mutaxassislar o'z ehtiyoj-manfaatlari, maqsad va qiziqishlaridan kelib chiqib, bu merosni ma'lum darajalarda o'rganib o'zlashtirganlar. SHu tariqa, turli nuqtai



nazarlar hamda maqsad-muddaolardan kelib chiqib tahlil va talqin etilgan merosimiz xususida, ko'p jihatdan noxolis, yuzaki tasavvur qarashlar, baho, xulosalar shakllangan. Chunki, bu borada har bir olim, aksariyat holatlarda xalqimiz manfaati va ehtiyojlarini ko'zlab emas, avvalo muayyan siyosiy maqsad-muddaolar hamda qiziqishlar doirasida tadqiqot olib borgan. Tadqiqot natijalarining millatimiz uchun ahamiyati boshqa manfaatlar soyasida qolib ketgan.

Endi, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz o'tmishimizning mana shunday ayancli, fojeali sahifalarini chuqur tahlil qilib, haqqoniy xulosa va saboqlar chiqarishimiz kerak. Miliy g'urur tarbiyasi, yagona xalq tuyg'usini yoshlar ongiga singdirish sohasida har kuni erinmasdan tinimsiz ish olib borishimiz, bu yo'lda eng ta'sirchan samarali vositalardan foydalanishimiz shart".

SHunday qilib, millatning boy tarixidan ajratib, ming yillar davomida yaratilgan madaniy meros, milliy ma'naviy qadriyatlarni, xususan, adabiyotimiz namunalarini avlodlar hayotidan yo'qotish maqsadida amalga oshirilgan ishlar, umuman yo'qotib bo'lmaganlarini esa mafkuraviy manfaatlar asosida soxtalashtirish yoki noto'g'ri tahlil, talqin qilishlar oqibatida o'tmish adabiy merosimizning nodir namunalari haqida ko'p jihatdan soxta, yuzaki, o'zgacha ruhdagi, ba'zan esa mutlaqo teskari talqin, ta'rif va tasvirlar yuzaga kelib, dunyo fani hamda ijtimoiy fikrida keng tarqaldi. Allomalarimiz ijodiyotining o'ziga xos xarakterini, asarlarining asl mazmun-mohiyatini tushunishga juda ojiz bo'lgan xuddi shu omillar asosida xalqimiz adabiy merosining jahon adabiyotidagi o'rni va ahamiyati belgilandi, tasavvur va tasvir qilindi. Hatto ko'pchilikda merosimizga nisbatan nigilistik qarashlar shakllandi. Masalan, mustamlakachilik davrlarida o'tmish madaniyatimiz juda kamsitilib, unga qoloqlik sifatida qaralar, milliy ong, dunyoqarash, umuman, an'anaviy turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarning ko'p tomonlari qoralanib, inkor qilinar edi.

SHuning uchun ham, bizning nazarimizda Dante, Gyote yoki Pushkin singari daholarning ijodiyotini to'la o'rganib, o'zlashtirgan badiiy, falsafiy, ilmiy-nazariy nuqtai nazarlar, ruhiy-ma'naviy darajalar o'z tabiatiga ko'ra, buyuk Navoiy tafakkuri

hamda asarlarining butun mazmun-mohiyatini to'liq o'rganib, teran anglab etish uchun zarur imkoniyat, sharoit bo'la olmagan.

Agar G'arb adabiyoti namunalarini o'zimizning yuksak ma'naviy-madaniy me'yorlardan, ya'ni masalan, buyuk bobomiz Navoiy ijodiyoti va tafakkuri darajasiga asoslangan ruhiy-ma'naviy nuqtai nazardan tahlil qilinsa, ularning milliy taraqqiyotimiz uchun ahamiyati ayon bo'ladi. SHuning uchun o'tmish badiiy adabiyotimizning yuksak namunalari, ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalar mohiyatiga, bu asarlarning jamiyat ma'naviy hayoti va taraqqiyotiga ta'siri, ayniqsa g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyatiga, shu bilan birga, zamonaviy adabiyotimizdagi g'oyaviy-mafkuraviy masalalar bilan bog'liq muammolarga ham alohida e'tibor qaratish zarur.

Istiqlol yillarida zamonaviy adabiyotimizda ham jiddiy ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, she'riyat juda yuksalib bormoqda. SHuningdek, tarixiy mavzularda yozilib, nashr etilayotgan bir qancha asarlar e'tiborga molikdir. Biroq, mustaqilligimiz sharofati bilan vujudga kelgan ulkan imkoniyatlar hozirgi adabiyotimiz oldiga ko'plab sharafli vazifalarni, echilishi lozim bo'lgan juda dolzarb muammolarni ham qo'ymoqda. CHunonchi, keyingi yillarda yozuvchilarimiz uchun zamonaviy qahramonlarning badiiy obrazlarini yaratish jiddiy muammo bo'lib qoldi. Bu boradagi izlanishlar, hozircha, etarli samara bergani yo'q. Ehtimol, hozirgi badiiy adabiyotimizda zamonaviy qahramonlarni tasvirlashdagi muammoning asosiy sababi - bizda hamon konkret tarixiy davrda qahramonlar obrazi uchun ijtimoiy-ma'naviy mezonlar aniq emasligidir. YA'ni, yozuvchilarimizning o'zlari hozirgi zamonaviy qahramonlarning qiyofasi qanday bo'lishi lozirligini to'liq tasavvur qila olishmayapti. "Hammamiz yaxshi tushunamiz - adabiyotda tarixiy haqiqatni tiklash bilan birga, xalqimiz adiblarimizdan bugungi kunimiz haqida, zamonaviy qahramonlari haqida yangi-yangi asarlar kutayotgani tabiiydir".

Xalqimizning milliy madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlarining katta qismini o'tmish ajdodlarimiz yaratgan falsafiy meros tashkil qiladi. Falsafiy merosimiz SHarq ijtimoiy-falsafiy fikrlari taraqqiyoti tarixida juda katta o'rin tutadi. Masalan, nemis klassik falsafasini bilmasdan turib, yangi zamon

evropa falsafasini, o'tmish o'zbek falsafasini o'rganmasdan turib esa, SHarq falsafasining mohiyatini to'la va to'g'ri tushunib bo'lmaydi. SHuningdek, Evropa va G'arb falsafasining shakllanishi tarixida bizning ham falsafiy merosimiz muhim rol o'ynaganligini alohida ta'kidlash lozim. CHunonchi, zardo'shtiylik dini tarixini chuqur o'rganib, to'rt jildlik kitob yozgan ingliz olimasi Meri Boys o'z tadqiqotlarida qadimgi YUnonistondagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyotini boshlab bergan Milet maktabi falsafasi, asosan, Avesto madaniyati, ya'ni zardo'shtiylik ta'limoti ta'sirida shakllanganligini ko'rsatadi. U Ioniya'dagi (Qadimgi YUnonistondagi) Milet donishmandlarining falsafiy qarashlariga "ta'sir faqat bir tomonlama, zardo'shtiylik tomonidan bo'lgan" deb yozadi<sup>12</sup>.

Darhaqiqat, mustaqillik sharofati bilan yuzaga chiqayotgan asl tarix haqiqatlari, bizning zaminimizda rivojlangan falsafiy tafakkur madaniyati insoniyat dastlab falsafiy fikrlay boshlagan zamonlardayoq yuzaga kelganligini ko'rsatmoqda. Endilikda, bunday fikrlarni birgina "Avesto" bilan ham isbotlash mumkin bo'lmoqda. SHuning uchun, xuddi qadimgi Hindiston, Xitoy yoki YUnoniston falsafasi kabi o'zbek xalqi o'tmishida ham o'z davrlari darajasida juda yuksak, o'ziga xos falsafa mavjud bo'lganligi va bu, tarixda dunyodagi boshqa xalqlarning (jumladan, Hind, Xitoy, YUnondagi) ijtimoiy-falsafiy fikrlari taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatib, hamda ta'sirlanib, rivojlanganligini ochiq-oydin aytib yozish mumkin va lozim.

SHu nuqtai nazardan, masalan, taniqli olimamiz Fozila Sulaymonovanning "SHarq va G'arb" asarlari singari yirik tadqiqotlarni keng ko'lamda olib borib, natijalarini muttasil chop etaverish kerak. Zero, milliy istiqloq mafkurasining rivojlanishi kishilarimizning ijtimoiy-falsafiy merosimizni to'la o'rganib, o'zlashtirishi va, shu tariqa, yangi bosqichlarda shakllangan falsafiy tafakkur madaniyati bilan ham bevosita bog'liqdir.

Diniy ta'limotlarga ko'ra, olam va inson mukammal qilib yaratilgan. SHu bois, ularning mohiyatini to'liq va to'g'ri anglab etish uchun o'ziga xos mukammal usul-vositalar, yondoshuvlar:

---

<sup>12</sup>Қараһг: Boyc M. A. History of zoroastianism, V. 1. leiden - Koln, 1982, -P. 153.

barkamol ong, ilmiy, falsafiy tafakkur taqozo etiladi. Falsafa (yoki falsafiy tafakkur madaniyati), shu maqsadga erishishda eng ko'p imkoniyatlarga ega. Uni shunday usul-vosita va yondoshuvlar ichida eng qulay, ko'proq imkoniyatlarga ega, ta'bir joiz bo'lsa, ma'lum ma'noda eng mukammali, deyish mumkin. Binobarin, falsafiy tafakkur madaniyati inson va millat kamoloti darajasining muhim ko'rsatkichidir. SHuning uchun ham mustaqillik sharoitida o'zbek xalqi ijtimoiy-falsafiy fikrlari taraqqiyoti tarixini, o'tmish ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ulkan falsafiy merosni har jihatdan chuqur o'rganish g'oyaviy-mafkuraviy sohadagi eng dolzarb vazifalardandir. Har qanday mafkura inson(lar)ning muayyan manfaati va maqsadlari asosida yuzaga keladi, ayni paytda, uning rivojlanishida falsafa asosiy o'rin tutadi. YA'ni, shaxs, ijtimoiy guruh yoki toifalarning g'oyalari jamiyat mafkurasiga aylanishi uchun, albatta ular ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan asoslanishi lozim. G'oya va mafkuraning nazariy-metodologik asoslari – konkret shaxs, ijtimoiy guruh, yoki millatning tub manfaatlarini va maqsadlarini ro'yobga chiqarish usul-vositalarining ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlariga mos (yoki zid) kelishini ko'rsatib berishdan iborat. G'oya va mafkura mustahkam ilmiy nazariyaga asoslansagina, jamiyatning strukturaviy elementlari bo'lgan, turli ijtimoiy-siyosiy guruh va toifalarni birlashtirib, ularning faoliyatlarini harakatga keltiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Bunda, bir tomondan nazariya insoniyat tarixiy taraqqiyoti tajribalarini umumlashtirishdan kelib chiqadi. Ikkinchi tomondan, ilmiy nazariya kundalik amaliy hayotning strategik va taktik vazifalarini belgilab beradi. SHuning uchun g'oya va mafkuraning amaliyotini va nazariyasini bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Mustahkam nazariy-falsafiy asoslariga ega bo'lmagan mafkura ijtimoiy-siyosiy hayotning tarixiy zaruriyati va ehtiyojlarini muayyan manfaatlar doirasidagina ifodalab, chegaralanib qolishi, shu tariqa jamiyat mafkurasiga zid kelib, milliy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. SHu bois, milliy taraqqiyot g'oyalarini va u bilan bog'liq nazariy va amaliy ishlarni ilmiy falsafiy asoslash milliy mafkuradagi maqsadlarning to'la ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, XVI asrlardan mintaqamizda qoloqlik va keyinroq

mustamlakachilik davrlari boshlanib, G'arb va Evropada esa ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy yuksalish ro'y bergach, umuman SHarq madaniyatiga munosabatlar, ularni o'rganib baholash mezonlari tubdan o'zgardi. YA'ni, yuqorida aytganimizdek, xalqimiz ma'naviy-madaniy merosini, ulug' allomalarimizning asarlarini G'arb va Evropa ruhi, u erlardagi mavjud ma'naviy, falsafiy me'yorlar bilan tahlil va talqin etish qat'iy odatga aylanib, bu hol tabiiy ravishda, o'tmish merosimiz xususida to'g'ri tasavvur-qarashlar shakllanishi uchun imkon bermagan. Boshqacha aytganda, jahon falsafiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan G'arb va Evropadagi ko'pdan ko'p buyuk daholarning haqiqatan ham yuksak ijodiyoti cho'qqilaridan turib, ulug' SHarq tafakkuri quyoshiga qaragan olam ahli-olimlari, tabiiyki, faqat uning nurini, kuchini ko'rib, payqab, o'zlashtira olishdi, ammo bu nurning asos-manbaini, ularning haqiqiy mazmun-mohiyatini, ilohiy-ma'naviy qudratini to'liq bilib, anglay olishmadi. SHuning uchun, masalan, o'tmish allomalarimiz ijodiyoti haqida yozilgan ko'plab asarlar, asosan, G'arb ruhi va tafakkuri darajasi hamda mezonlari asosida, bizning nazarimizda, nisbatan yuzaki tahlil va talqin etilib, baholangan. Ularning haqiqiy mohiyati va ayniqsa xalqimiz uchun ahamiyatli bo'lgan tomonlari esa to'la ochib berilmagan. Afsuski, o'zimizning xalqimiz ham siyosiy qaramlik sharoitida ma'naviy-madaniy va falsafiy merosimizni ana shunday asarlardan o'rganib, o'zlashtirdi. SHu tariqa milliy ong - tafakkurimizda, ma'naviy ruhiy qiyofamizda ko'plab salbiy illatlar shakllandi.

Xullas, insoniyat taraqqiyotining keyingi davrlarida har qanday dengiz okeanlarning tubigacha bermalol suzib bora olish imkoniyatlari bo'lsada, ammo u erlardagi hamma narsalarni olib chiqib bo'lmaganidek, G'arb ilm-fani va madaniyati ham xalqimizning o'tmish ma'naviy-madaniy merosini bermalol o'rganib, faqat o'z taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan, o'z ruhiga mos jihatlarni olib, o'zlashtirgan. G'arb taraqqiyoti uchun keraksiz deb topilgan, ular uchun tushunarsiz, ular ruhiga begona jihatlari esa hamon qoloqlik, bid'at, diniy xurofot, johillik va hokazo deb talqin qilinadi. Hatto, ayrim ovrupaparast olimlar, umuman SHarq xalqlari madaniyati va ijtimoiy-falsafiy fikrlari taraqqiyotining asl

mohiyatini tushuna olmay, yoki ataylab haddan ortiq kamsitib, buzib talqin qilishgan hollar ham ko'p kuzatiladi. Masalan, mashhur rus faylasuflaridan biri V.Solovev shunday yozadi: "Musulmon dunyosida, nafslambirin aytganda, ijobiy fan ham (dunyoviy fanlar nazarda tutilmoqda), haqiqiy teologiya ham mutlaqo mavjud emas, balki Qur'onning qandaydir qashshoq dogmalari hamda greklardan olingan tarqoq falsafiy tushunchalar, empirik ma'lumotlar yig'indisi mavjud"<sup>13</sup>. SHuningdek, G.Vamperi: "Yaponiyaliklardan tashqari Osiyolik xalqlardan birontasi ham o'zlari mustaqil holda taraqqiyot va yangilanish yo'liga chiqolmaydi. Osiyoliklar faqat evropaning bevosita yoki bilvosita ta'siri bilangina madaniyatga erishishlari mumkin", deydi<sup>14</sup>. YOki yana: SHarq tafakkuri "shunchalik diniy bo'yoqlar bilan bo'yalgan va shunchalik bizning evropacha tafakkurimizga begonaki, shuning uchun bu xalqlarning dunyoqarashi xususida to'xtalib o'tirish shart emas", deb xulosa qiladi Karl Forlender<sup>15</sup>.

Ammo, merosimizdagi ana shunday baholangan ko'p jihatlar biz uchun begona emas va aytish mumkinki, g'arbcha nuqtai nazarlardan "qoloqlik", "kamchilik" bo'lib ko'ringan xuddi ana shu tomonlar, ehtimol, bizning ma'naviy yuksalishimiz uchun asos, mustahkam poydevor bo'lishi mumkin. CHunonchi, evropacha nuqtai nazarlardan o'tmish merosimizdagi kamchilik - nuqson bo'lib ko'ringan va sho'rolar fanida o'zimizning olimlar tomonidan ham eng ko'p takrorlangan, endi esa musulmon SHarqi allomalarining ongi, tafakkur madaniyatini hamisha zamonaviy, ilg'or nuqtai nazarlardan turib ob'ektiv tahlil qilgan zukko olimlarning haqiqatdan naqadar uzoqlashib ketganligini, olam va odam xususidagi haqiqatni anglash, tushunish borasida allomalarimizga nisbatan qanchalik ojiz ekanliklarini ko'rsatuvchi, yuz yillardan buyon dunyodagi deyarli barcha fanlar uchun metodologik asos, tamoyil, maqsad va vazifa bo'lib xizmat qilib kelayotgan ba'zi «ilmiy haqiqatlar»ni puch, soxta, noto'g'ri ekanligini, aynan keyingi davrlarda insoniyat ijtimoiy

---

<sup>13</sup> Соловьев В. Три силъ. Избранное. -М.: 1990. -С. 45.

<sup>14</sup> Вампери Г. «Мир ислама». Т. 2. -М.: 1913. -С. 707.

<sup>15</sup> Карл Форлендер. «Общедоступная философия». -М.: 1922. -С. 8.

taraqqiyotining o'zi isbotlab bermoqda. Masalan, ko'pgina adabiyotlarda SHarq mutafakkirlarining ijodlaridagi cheklanganlik - kamchiliklardan biri: ular ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilmaganliklari tufayli, o'zlarining falsafiy qarashlarida olamni o'zgartirish xususida fikr yuritish darajasigacha chiqolmagan, deyiladi.

Haqiqatan ham, o'z davri darajasida nihoyatda yuksak ilmiy salohiyati, cheksiz tafakkur qudrati bilan, Evropa fanida Erning dumaloqligi isbotlanishidan bir necha asrlar avvalroq, Er sharining narigi yog'ida qit'a borligini aytib berolgan; inson va olam mohiyatini to'liq anglab, uni rivojlantirib kamolga (haqqa) etkazishning aniq nazariy va amaliy yo'llarini ko'rsata olgan; adolatli demokratik jamiyatning tuzilishi va mazmun-mohiyatidan, maqsad va vazifalarigacha batafsil ishlab chiqqan; ayniqsa, o'zlarigacha insoniyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida erishilgan barcha ilm-fan yutuqlarini to'la o'rganib, saragini-sarakka, puchagini-puchakka chiqarib, dunyo ilm-fanini va tafakkur taraqqiyotini bir necha asrlar oldinga surib yuborgan allomalarimiz, olamning egasi - Olloh, uni o'zgartirish ham, uning izmida, deb hisoblagan.

Xullas, ma'naviy-madaniy, falsafiy merosimizga munosabatlar xususidagi bunday misollarni yana juda ko'p keltirish mumkin. Ammo, mana shu misolda ham ko'rinadiki, dunyo fanida bizning o'tmish merosimizni tahlil qilib baholashda, qanday maqsad-muddaolarga yoki qanaqa mafkuraviy buyurtmalarga, qanchalik ob'ektiv ilmiy dalillarga asoslanganlikdan qat'iy nazar, endi bemalol aytish mumkinki, dunyodagi ba'zi olimlar bizning o'tmish allomalarimizning inson, olam hamda ilm-fan va tafakkur mohiyati xususidagi ko'p jihatdan to'g'ri, ob'ektiv falsafiy qarashlarini inkor qilib, fanlarda o'zlarining turli konsepsiyalarini joriy qilish bilan, nafaqat SHarq tafakkur madaniyati va falsafasining tub asoslariga putur etkazishgan, shu bilan birga, butun insoniyat ijtimoiy-falsafiy tafakkuri va ma'naviy-madaniy taraqqiyotini noto'g'ri yo'nalishga solib yuborishga harakat qilishgan. Buni keyingi asrlarda G'arb va Evropadagi ma'naviyat borasida yuz berayotgan taraqqiyot va muammolar isbotlab bermoqda. SHu bois, G'arb ma'naviy taraqqiyoti jarayonlaridagi

ziddiyatlarning tub asos-sabablarini qidirayotgan u erlardagi mutafakkirlar, ba'zan, "Taraqqiyot qanchalik yuksalgani sari madaniyat shunchalik tubanlashadi" (Blok), degan tahlikali xulosalar chiqarmoqda. SHu tariqa, SHarq mutafakkirlarining bejizga "xurofotga botib", "olamni o'zgartirishga harakat qilmaganliklari" ma'lum ma'noda, to'g'ri ekanligi ayon bo'lmoqda. Zero, millatlarning ijtimoiy hayotida hamisha yaxshilik va ezguliklar ustuvor bo'lishi yoki bo'lmasligini, insoniyat hayoti ma'naviy inqirozga qarab ketmasligini ana shunday masalalarda qanday yo'l tutish hal qiladi. SHuning uchun, "o'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko'hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga quygan olijanob maqsadlarga etishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim".

Ayni vaqtlarda, xalqimiz hayotida o'ziga xos an'nalarga ega bo'lgan teatr hamda zamonaviy kino san'atlari yangi bosqichlarda rivojlanib bormoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi mavjud turli xil va darajalardagi teatrlar faoliyatida tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Endilikda haqiqiy ma'naviy-madaniy maskanlarga aylangan teatrlarimiz eski tuzim asoratlaridan xalos bo'lib, o'tmish merosimizni tiklash, kishilarimizda yangicha dunyoqarashni, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish ishiga katta hissa qo'shmoqda.

**Milliy g'oya targ'ibotida milliy-madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi.** Milliy g'oya targ'ibotida xalqimizning tabiati, irodasi, orzu-intilishilarini ifodalaydigan quyidagi milliy-madaniy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

- xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqadasligi;



- ota-ona, mahalla-kuy, umuman jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;
- millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga - hurmat va kichikka - izzat;
- mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi – ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat va hokazo.

Milliy g'oya targ'ibotida quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi:

- qonun ustuvorligi;
- inson haq-huquqlari va xurfikrlik;
- turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- diniy bag'rikenglik;
- dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik.

– o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va hakazo<sup>16</sup>. Milliy g'oya targ'iboti vositalarining har biri o'z yo'nalishida:

1) milliy-madaniy merosga tayanishi uchun asrab-avaylash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berishi muhim;

2) Milliy-madaniy xususiyatlarni inkor etmagan holda, umumbashariy tamoyillarga sodiq qolgan holda targ'ibot ishlarini olib borish milliy g'oya maqsadlarini O'zbekiston xalqining ishonch va e'tiqodiga, hayotiy qadriyatiga aylanib borishiga xizmat qiladi. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarida bu uyg'un tarzda doimo ifodasini topib borishi, mamlakatda Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga xizmat qiladi.

**Tayanch tushunchalar:** Madaniy meros, badiiy meros, falsafiy meros, ilmiy meros, diniy meros, moddiy va ma'naviy meros, milliy meros, tarixiy xotira, milliy ma'naviy qadriyatlar, tarixiy merosni mafkuralashtirish.

---

<sup>16</sup>Қаранг: Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар ва тамойиллар. Т: “Ўзбекистон”, 2000. –Б.49-50.

### **Mavzuni mustahkamlash bo'yicha savollar.**

1. Milliy g'oya targ'ibotida xalq og'zaki ijodini o'rganishning ahamiyati qanday?
2. Ma'naviy va madaniy meros deganda nima tushuniladi?
3. O'zbekistonda o'tmish merosni tiklashdan maqsad nima?
4. O'zbek xalqi badiiy merosida umuminsoniy g'oyalar qanday ifodalangan?
5. Milliy g'oyani shakllanishida o'tmishdagi buyuk ajdodlarimizning roli qanday?
6. O'zbekistonda o'tmish merosni tiklashning g'oyaviy-mafkuraviy ahamiyati nimadan iborat?
7. Milliy g'oya targ'ibotida milliy-madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi.

## **11-MAVZU: MILLIY GOYA TARGIBOTIDA MILLIY-MADANIY MARKAZLARNING O'RNI VA ROLI**

**Milliy goya va milliy mafkura - bu nafakat o'zbeklarning, balki O'zbekistonda istikomat qiluvchi barcha o'zbekistonlik fukarolarinng g'oya va mafkurasi ekanligi.** Milliy g'oyada O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillari manfaatlarining ifoda etilganligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fukarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bulib, jinsi, irki, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chikishi, e'tikodi, shaxsiy va ijtimoiy mavkeidan kat'iy nazar, konun oldida tengdirlar", deb aloxida yozib qo'yilganligi. Mamlakatimiz hududida juda qadim zamonlardan turli millatlarga mansub xalqlarning vakillari qo'ni-qo'shnichilik, quda-andachilik, do'st-u birodarlik va oshnaog'aynigarchilik asosida tinch-totuv va o'zaro hamkorlikda yashab kelganlar. Moziyga nazar solsak, O'zbekiston hududida milliylik va millatchilik negizida hech qachon mojarolar bo'lmagan. Bu xalqimizning o'ziga xos xususiyati va bag'rikengligining yorqin ifodasidir. Mustaqil O'zbekistonimiz hududida bugungi kunda 137 millat va elat vakillari istiqomat qiladilar. Har bir kishi millati va irqidan qat'iy nazar yaratganning

mo'jizasidir. Insonning yaxshi-yomonligi uning u yoki bu millatga mansubligiga qarab belgilanmaydi. Balki, har bir insonning o'ziga xos yaxshi-yomon xislatlari, fazilatlari va xususiyatlarining shakllanib kamol topishida o'sha insonni o'rab olgan ijtimoiy muhit, u olgan ta'lim-tarbiya bosh omil hisoblanadi. SHu boisdan ham millatlararo totuvlik, o'zaro hamkorlik, birodarlik va bag'rikenglik — ulug' fazilat va umumbashariy qadriyatdir. Bu qadriyat turli millat va elatlar vakillari bilan birgalikda istiqomat qiladigan har qanday davlatning tarixiy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi milliy davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, mamlakatimizda siyosiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri bo'lgan O'zbekistonda qardosh xalqlar ijodkorlari bilan uchrashuvlar, ular ijodiga bag'ishlangan kechalar o'tkazish odat tusiga kirdi. Keyingi yillarda O'zbekiston kunlarining Qozog'istonda, Qozog'iston kunlarining O'zbekistonda o'tkazilishi qozoq va o'zbek xalqi o'rtasidagi qardoshlarcha aloqaning yanada ravnaq topishiga katta hissa qo'shdi.

Rus madaniyat Markazi Rossiyaning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda S.Esenin tug'ilgan kunining 100 yilligini, Qozoq madaniyat Markazi Qozog'istonning O'zbekistondagi elchixonasi bilan birgalikda buyuk qozoq shoiri Abay tavalludining 150 yilligini, milliy istiqlol uchun tolmas kurashchilar Turor Risqulov, Sultonbek Xojanovlarning 100 yilligini, Qirg'iz madaniyat Markazi Qirg'izistonning O'zbekistondagi elchixonasi bilan birgalikda «Manas» eposining 1000 yilligini keng nishonladilar. O'zbekiston Respublikasi milliy masalaga alohida e'tibor qaratib kelmoqda va adolatli milliy siyosat olib bormoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida milliy munosabatlar huquqiy asoslarining yuridik jihatdan adolatli tarzda hal qilib berilganligida yaqqol ko'rish mumkin. Unda barcha fuqarolar qonun oldida teng qilib qo'yildi. Har bir fuqaro qalbida yagona zamin, yagona makon, yagona Vatan uchun javobgarlik hissi kuchaytirildi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'p millatli har qanday mamlakatda hukmron mavqega ega bo'lgan millat vakillari faqat o'z milliy ehtiyoj va talablarini qondirish to'g'risidagina o'ylab

bosh qotirmasliklari lozim. Chunki, o'zga millat va elatlarning huquq va erkinliklarini kamsituvchi, uni mensimovchi millatning o'zi ham erkin bo'la olmaydi. Aksincha, hukmron millat tarixiy taqdir taqozosiga ko'ra turli davrlarda o'z yurti, eli, vatanidan begonashib, bu erlarga kelib qolgan o'zga millat va elatlarning vakillariga begonasiramasdan, ularning ham milliy talab va ehtiyojlarini to'la qondira oladigan shart-sharoitlarni yaratmoqlari joiz.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan: 8-modda. O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

18-modda. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart. Demak, O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashab, mehnat qilayotgan har bir kishi, millati va irqiy mansubligidan, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, mamlakatimizning teng huquqli fuqarosidir.

Mustaqillik barcha millat vakillariga hur va erkin taraqqiy etish imkoniyatlarini berdi. Milliy ong yanada rivojlandi, milliy uyg'onish jarayoni kuchaydi. Bu hol nafaqat o'zbeklarda, balki boshqa millat va elatlar orasida ham milliy jipslashish jarayonini keltirib chiqardi. Oqibatda milliy-madaniy markazlar vujudga kela boshladi. 1989-yilda Madaniyat ishlari vazirligi qoshida mamlakat millatlararo Madaniyat Markazi tashkil etildi. Uning tarkibida 12 ta, jumladan qozoq, koreys, arman, ozarbayjon, tojik kabi madaniyat markazlari faoliyat ko'rsata boshladi. Baynalmilal madaniyat Markazi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning yana bir yo'nalishi — bu 1994-yili boshlangan birinchi "Xalq ijodiyoti" festivali bo'ldi. Bu festival O'zbekiston mustaqilligining uch yilligi munosabati bilan tashkil etildi va uni har ikki yilda bir marta o'tkazishga qaror qilindi.

### **Mavzuni mustahkamlash bo'yicha savollar.**

1. Milliy madaniy markazlarni milliy g'oya targ'ibotiga kengroq jalb etish katta ahamiyat kasb etishi.

2. Milliy madaniy markazlar tomonidan o'tkaziladigan turli xil tadbirlar xalqlar o'rtasidagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol oynashi.

## **12-MAVZU: GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR ONGIGA MILLIY GOYANI SINGDIRISH TEXNOLOGIYALARI. DUNYO RIVOJLANISHINING YANGICHA BOSQICHI.**

**Globallashuv tushunchasi, ma'no-mazmuni.** “Globallashuv tushunchasi (lot. Globus — shar, Er sayyorasi ma'nosini anglatadi) XX asrning ikkinchi yarmi — XXI boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibot, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etadigan global jarayon. YA'ni jamiyat hayotining barcha sohalari – iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog'lanmoqda. “Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obektiv tan olish kerak- bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va raqnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida mintaq va hududlar bilan chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. SHu ma'noda, globallashuv-bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”.

1985 yilda taniqli amerikalik olim R.Robertson “Globalization” iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushuncha “odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda

anglanishi”ni aks ettirib, “dunyoning birlashuvi va kishilar o’rtasidagi o’zaro aloqalarining kuchayishini” ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi.

XX asrning 70 yillarigacha dunyo mamlakatlarining iqtisodiy – ijtimoiy hamda siyosiy taraqqiyoti har bir davlatning o’z hududi doirasidagi rivojlangan sur’atlari yoxud ularning o’zaro munosabatlari darajasidan iborat jarayon sifatida talqin etilar edi.

Globalashuv davriga kelib esa taraqqiyot borasida o’zgacha qarash voqea hodisalarni makon va zamondan ajratmagan xolda, sinxron tarzda talqin etish tamoyili ko’zga tashlana boshladi.

Jahonda 1946 yildan 1995 yilgacha 780 ta urush va konfliktlar bo’lib yiliga, 15,6 marta oshib borgan.

Bu urushlar va konfliktlarda 120 mlndan ortiq kishi halok bo’ldi, 400 mln.dan ortiq kishi nogironlikka duchor qilindi. 1990 yildan 1995 yil oxirigacha 93 ta urush bo’lib o’tdi (yiliga 19 ta urush). Bu urush yillarida 5,5 mln. kishi halok bo’ldi. Urushlar va konfliktlarning asosiy sababi - davlatlar orasidagi munosabatlardagi, odamlar orasidagi ijtimoiy nohaqlikdir<sup>17</sup>.

Globalashuv yana bir kuchli ob’ektiv asosi – bu demografik jarayonlarning shiddatlashib, dunyo aholisining soni quyidagi ko’rinishda oshib bormoqda:

- 1700 yilda dunyoda 600 mln. odam (300 yil avval) bo’lgan;
- XX asrning boshlarida 2 mlrd. kishini tashkil etdi;
- XXI asrga kelib esa 6 mlrd. kishiga etdi.

Er sharida aholining umumiy soni XXI asrning o’rtalariga kelib esa 12-13 mlrd. kishiga etishi taxmin qilinmoqda. Bu esa dunyo miqyosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni 5 marta oshirishi va ta’lim tizimining 3 marta kengayishini talab qiladi.

XXI asr boshlariga kelib, dunyo mamlakatlari o’rtasidagi o’zaro ta’sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to’la ihotalanib olgan birorta ham davlat yo’q, to’la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a’zo bo’lishni istamayotgan mamlakatlar ham

---

<sup>17</sup> Қаранг: Глобализация: проблемы международного сотрудничества и решение общечеловеческих задач // ФГОУ ВПО «Поволжская академия государственной службы им. П.А. Столыпина», 2005 г. С-58.

bu jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman degan mamlakatlar ham, uning ta'siriga tushiv qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir mamlakatlar va xalqlar hayotiga salviy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviyat salohiyatlari va siyosati bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salviy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmasdan turib, unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini shiddatli selning kuchiga boshqaruvchisiz qayiqni topshirish bilan barobardir. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi bevosita an'anaviy negizlarini asos qilib olgan holda, zamonaviylikni targ'ib qilish va uni qabul qilish uning mohiyatini keng ommaga etkazib berish bugun globallashuv jarayonlari avjiga mingan zamonda alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, bu jarayonda har bir axborot va ma'lumotlarni etarli asoslab berishga qaratilishi jarayonni bir yo'nalishda rivojlanishini ta'minlaydi. Turli ta'sirlarga moyil va qiziquvchan xususiyatga ega va hali hayotning "achchiq" tajribalaridan bexabar yoshlarni chidamli, o'z fikriga va dunyoqarashiga ega qilib tarbiyalash milliy g'oya targ'ibotining asosiy vazifalaridan biridir. Aynan yosh avlodimizni milliy g'oyani asrovchilari va keyingi avlodga etkazuvchi ekanliklari bu jarayonni nechog'lik muhim ekanligini yana bir bor isbotlab beradi. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tahlili bu sohada ishlar endigina boshlanganidan dalolat beradi. Globallashuv milliy ma'naviyatga ham ta'sirini o'tkazadi. Uning ta'siri kirib kelgan jamiyatning barcha sohalari tez bo'lmasada, ammo asta sekinlik bilan bo'lsada, o'z "iz"larini qoldiradi. Bunday turdagi "ta'sirlar"ga eng beriluvchan, uni oldida hali zaifroq

bo'lgan kuch bu yoshlar hisoblanadi. SHulardan kelib chiqqan holda, golovallashuv jarayonida turli g'oya va mafkuralarni aynan yoshlar orqali "ko'prik" sifatida foydalanishlariga yo'l qo'ymasliklari uchun, millatparvar, xalqchil, umuminsoniy tamoyillarga asoslangan milliy g'oya asosida qurollantirish bugun ushbu masalaning qanchalik muhimlik darajasini belgilab beradi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati qo'proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak va eng avvalo yosh avlodni kelajakda davlatimizni tayanchi sifatida tarbiyalashga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz, globallashuvning mohiyati, yo'nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilish zarur. Aynan shu jarayonni chuqurroq tahlil etish orqali siyosatchilar uchun to'g'ri yo'l tanlashi va qarorlar qabul qilinishi uchun imkoniyat yaratilishi mumkin.

Globalashuv - turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir.

Globalashuvga va uning jamiyat hayotiga ta'siri doirasi to'g'risidagi fikrlar xilma-xil, berilgan ta'riflar dunyoda ko'plab topiladi. Bu globallashuvning turli ko'rinishlarida kirib kelishi va sodir bo'lishi bilan bir qatorda uning "ta'sir" kuchini turli tumanligini ko'rsatib beradi. Lekin uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olgani, bizningcha, fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rifdir. Unda globallashuv jarayoning uch o'lchoviga alohida e'tibor beriladi:

- globallashuv - mutassil davom etadigan tarixiy jarayon;
- globallashuv - jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- globallashuv - milliy chegaralarning "yuvilib ketish" jarayonidir.

Davlatlar va xalqlar o'rtasida bunday munosabatlar tizimi mavjud ekan, avvalo bu o'rinda tug'ilishi va kutilishi mumkin xavflarni alohida ta'kidlashimiz kerak. Jamiyatning taraqqiyotiga jiddiy zarar keltiruvchi, ko'rinishi va tuzilishi jihatidan "muloyimlik va xushxulq" sifatida ko'ringan ta'sirlar jamiyatning barcha qatlamini o'ziga rom etadi va bundan dunyo tajribasi



bo'yicha yoshlar ko'proq zarar ko'radilar. Bunga XX asrning boshlarida Yaponiyada ishlab chiqilgan va dunyo mamlakatlari yoshlarini irodasidan mahrum qilib, zomvi - ya'ni, manqurtlarga aylantirishga xizmat qiladigan "AUM Senrikyo" diniy oqimining harakatlari misol bo'la oladi.

Globalashuv turli axborotlar, g'oyalar, mafkuralar bilan uzviy bog'liq. Globalashuv va turli tayziqlar "Axborot asri" deb atalagan XXI asrda biron-bir mamlakat yoki hududning taraqqiyotini faol axborot almashinuvisiz tasavvur etib bulmaydi. Albatta, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida jamiyat muayyan shakl va hajmda axborot bilim almashinuvi asosida rivojlanib kelgan. Globalashuvning salbiy ta'sirlari davlatning milliy statusini xavf ostiga qo'ymoqda, milliy qadriyatlar va an'anaviy madaniyatlarni buzmoqda, hatto oila hayotiga, insonning shaxsiy hayotiga ham kirib kemoqda.

YOshlarda axborot xavfsizlikni ta'minlovchi omillar:

– ta'lim va tarbiyaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, yoshlarga tegishli muammolarni bosqichma-bosqich hal etilishi, mehnatni taqsimlash, mahsulot ishlab chiqarish mehnat bozorini engillashtirish muammolarini birin-ketin bartaraf etishi natijasida yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligi oshib boradi;

– ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati yoshlar muammosini bartaraf etishga qaratilganligini kiritish mumkin.

Axborotning tez sur'atlar bilan tarqalishida, avvalo, telekommunikatsiya vositalarining kundan-kun rivojlanib borayotgani muhim rol uynaydi.

"Axborot asri"ning o'ziga xos talablari axborot oqimining benihoya kattaligi bilan belgilanadi. Gap shundaki, hozirga kunda telekommunikatsiya tarmoqlari orkali uzatilayotgan axborot har 2 yilda ikki barobar ortmokda. Bunday o'sish muayyan ziddiyatlarni ham keltirib chiqaradi: Axborot ko'lami va mazmuni ortdi, axborot tarmoqlarida iste'molchi uchun kerakli va keraksiz bo'lgan katta mikdordagi axborot jamlangan; natijada ulkan axborot zahiralari to'plangan bo'lishiga qaramay, odamlar imkoniyatlari har xilligi tufayli ulardan samarali foydalanishida farqlar mavjud.

**Globallashuvning turli xil g'oya va mafkuralar bilan bog'liqligi.** Insoniyatning keyingi taraqqiyot yillari globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy ongi, yo'naltiruvchi maqsadlari, qadriyatlarini, hayotiy tushunchalari, dunyoqarashi va oxir-oqibat uning jamiyat bilan munosabatlarida qanday o'zgarishlar sodir bo'layotganligiga bog'liq. SHuning uchun ijtimoiy va gumanitar fanlar globallashuvining jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalariga ta'siri masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Globallashuvning inson va postindustrial jamiyatlar hayotidagi o'rni hamda roli haqidagi alohida qarashlar shakllanmoqda. Globallashuv turli-xil g'oya va mafkuralar bilan bog'liq. Unda ezgu, bunyodkor g'oyalarni hamda aksincha jaholatga undaydigan tajovuzkor, buzg'unchi g'oyalar ham mavjudligini hisobga olish lozim.

Bu jarayonlar inson tafakkuri va ma'naviy dunyosiga ta'siri masalasiga etarli darajada e'tibor berishni taqazo etadi. Globallashuv sharoitida inson tafakkuri va ma'naviy dunyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

– globallashuv shaxsni shakllantiruvchi jamiyatning madaniy-ma'naviy sohalariga ta'sir o'tkazib, muayyan o'zgarishlar olib keladi, an'anaviy qadriyatlar tizimiga ham turli-xil ta'sir etishi mumkin;

– globallashuv ta'sirida ro'y bergan o'zgarishlar insonning ma'naviy-axloqiy, psixologik qiyofasiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va hozirgi zamon jamiyatining qiyofasini ham muayyan tarzda o'zgartiradi;

– globallashuvning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, uning ta'sirida ijtimoiy va individual ongda destruktiv o'zgarishlar ham qayd etilgan. Bu holat individualizm, egoizm, egotsentrizm insonparvarlik tamoyillarining evrilishi, ahloqiy tushkunlik, hayotiy ayrim maqsadlar va tasavvurlarning buzilishi kabi hodisalarda namoyon bo'lmokda;

Hozirgi zamon globallashuv konsepsiyalarida mualliflarning diqqat-e'tibori asosan inson faoliyatining turli sohalarini-ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalariga qaratilgan. Ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar inson dunyoqarashidagi o'zgarishlar natijasi ekanligi qayd etiladi. Bu hol atrof-dunyo

haqidagi tasavvurlar hamda global doirada insonlararo munosabatlar va o'zaro aloqalarni baholash mezonlari tizimini yanada chuqurroq o'rganish zarur. Bundan tashqari, ijtimoiy hayotning inson tabiati, talab va ehtiyojlaridan tobora uzoqlashib borayotgani hamda u inson ma'naviy inqirozining chuqurlashib borishiga moyilligi masalasi etarli darajada o'rganilmagani bilan ham izohlanadi.

Hozirgi davrda jahonda kechayotgan iqtisodiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida global axborotlashuvning yanada jiddiy salbiy oqibatlari namoyon bo'lmokda. Bu borada N.Umarova shunday yozadi: "Axborotni taraqqiyot kushandasiga aylantirayotgan kuchlar xam yo'q emas. Axborotlashtirish jarayonlarining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda axborot sohasidagi yutuqlardan yomon niyatlarda foydalanish xavfi ham tug'ilmoqda. Bunda axborotda jahonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning suveren tengligi tamoyillariga amal qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, kuchdan foydalanmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, inson huquqi va erkinliklarini hurmat qilish kabi maqsadlarga zid ravishda foydalanilmokda"<sup>18</sup>.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, 1998 yildan boshlab "Bi-Bi-Si", "Reyter" kabi xorijiy ommaviy axborot vasitalari, internetdagi siyosiy saytlarda MDH mamlakatlariga qarshi axborotlar intensiv ravishda, aholi qatlamlariga differensial asosda tarqatilib, ishlar tizimlashtirilmoqda.

Axborot xavfsizligini ta'minlashga vaqtida e'tibor qaratmagan ayrim davlatlarda "demokratik to'lqinlar"ning "xolisona axborot yondoshuvi" natijasida siyosiy muhitga ta'sir ko'rsatdi. Natijada, ixtilofli, turli manfaatlar, guruhlar o'rtasida to'qnashuvlar vujudga keldi.

Axborot xurujining tahliliga e'tibor qaratilsa, quyidagilar namoyon bo'ladi:

1.Mamlakatda olib borilayotgan barcha jarayonlar dezinformatsiya yordamida buzib talqin qilindi va davlatga qarshi talqinda barcha vositalar yordamida tarqatildi.

---

<sup>18</sup> Қаранг: Умарова Н. "Глобаллашув шароитида ахборот хуружларига қарши кураш". Т: "Академия", 2005. –Б.4.

2.Aholining ongiga siyosiy beparvolik va e'tiborsizlik, eng asosiysi davlatga qarshi kayfiyat va norozilik shakllantirildi, tizimli rivojlantirildi.

3.Tashqi kuchlarning bevosita yordamida qisqa vaqt ichida saviyasi past, ma'lumoti sayozroq, narkotikka muhtalo bo'lgan yoshlardan iborat soxta "demokratiya tarafdorlari" shakllantirildi.

4.MDHDagi etakchi davlatlarning ayrim axborot vasitalari, g'arbning mashhur ommaviy axborot vositalari, internet saytlarida aksil targ'ibot ko'rinishidagi ma'lumotlar tezkorlikda asosiy efirga uzatildi. Dunyo miqyosida millionlab odamlar, xalqaro tashkilotlar, davlatlar ayrim soxta va yolg'on axborotga ishonirildi.

Ta'kidlash joizki, globallashuv keng quloch yozgani, jahondagi integratsiyalashuv jarayonlari faollashgani, transmilliy korporatsiyalar va axborot tarqatish tarmoklari davlatlararo chegaralarga karamay, "milliy davlat hozirgi davrning asosiy geosiyosiy birligini tashkil etadi va davlatlar har doimgidek, xalkaro munosabatlarning bir-biri bilan muloqatga kirishadigan hamda bir-biriga muayyan munosabatda bo'ladigan sub'ektlari bo'lib kolmoqda. Alohida olingan davlat ma'lumki, o'z fuqarolari uchun "homiyl" va "himoyachi" vazifasini o'taydi. SHuning uchun har kandy davlatning asosiy maqsadi o'zini, o'zining yaxlitligi va "yashash makoni"ni saqlash hamda milliy manfaatlarni himoya qilishdan iborat.

**Milliy g'oya targ'iboti "Axborot xuruji"ning oldini olishning muhim sharti.** Globallashuv tahdidlari xuruj qilayotgan bugungi kunda milliy g'oya, yuksak vatanparvarlikni bo'lishini taqozo etadi. SHu bois Xalqning ma'naviy ruhini Vatan tuyg'usini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilm-xilligi asosida rivojlanadi Hech qanday mafkura davlat mafkurasifatida o'rnatilishi mumkin mumkin emas"<sup>19</sup>ligi belgilab qo'yilgan. Buni fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga

---

<sup>19</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., 2008. -Б.14.

qarshi ma'rifat bilan kurashishda hisobga olish, unga tayangan holda targ'ibotni amalga oshirish va axborot xurujlaridan himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy g'oya xalqimizning yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlariga tayanib u o'zida erkinlik, mustaqillik kabi tuyg'ularni aks ettiradi. Butun insoniyat tarixida muayyan millatga xos maqsadlarni ifodalashga xizmat qiluvchi g'oya, uning asosiy tushunchalari va tamoyillarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z vatanining ma'naviy-iqtisodiy salohiyatini kundankunga yuksaltirib borishida faol ishtirok etayotgan barcha kishilarning faoliyati shu vazifani bajarishga qaratilgan.

Millat o'zini xalq sifatida, el sifatida anglamaguncha, u o'zining obruyi, qadr-qimmatini, or-nomusi haqida qayg'ura olmaydi, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini to'la his eta olmaydi. O'zlikni anglash xalqni uyg'otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, uyushtiruvchi kuch. SHark va G'arbda, Osiyo va Evropa xalqlari hayotida ham o'zlikni anglash tuyg'usining uyg'onishi, pirovard natijada, uning yuksalishiga, birlashishiga, boshqa xalqlar bilan muloqatga kirishuviga turtki bo'lgan.

Milliy g'oya odamlarni ezgu g'oyalarga ishontirish, uyushtirish, olijanob maqsadlar sari safarbar etishda ma'naviy-ruhiy jihatdan ulkan ahamiyatga ega. CHunki, xalkning ruhi, kayfiyati, hissiy kechinmalari va faoliyat ko'rsatishiga shayligi uning harakat dasturi bo'lgan umummilliy g'oyaga ishonchi bilan belgilanadi. Ana shunday ishonch jamiyat a'zolarida mustahkam e'tiqodni shakllantirib, ularni jipslashtiradi, mamlakat fuqarolarini o'zaro totuv, do'st va inoq bo'lib yashashga, o'z manfaatlarini Vatan manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga chorlaydi.

Milliy g'oyaning maqsad va vazifalari umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyiliga to'la-to'kis mos keladi. U mamlakatning jahondagi ilg'or davlatlar tajribasi asosida mafkuraviy jarayonlarda fikrlar xilma xilligi va qarashlar rang-barangligi, demokratik erkinliklar va inson xuquqlarini saqlashga doir xalqaro andozalarga hamoxangligi bilan ham ahamiyatga ega. Globallashuv davrida milliy g'oya targ'iboti muhim ahamiyatga ega.

Globalashuv muammolariga turli sohalar bo'yicha yondoshuv hamda talqinlar bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Zero, globalashuv inson va jamiyat hayotining barcha tarmoqlarini qamrab olgan jarayonlardir. Xususan, u ob'ektiv jarayon sifatida, avvalo, jahon iqtisodiyotining turli jabhalari o'rtasida kuchayib borayotgan bog'liqlikni aks ettiradi.

Globalashuv ayniqsa yuqori texnologiyalar sohasida faollashmoqda. Jumladan, AQSH rasmiy manbalarining ma'lumotlariga ko'ra, "Internet"dan foydalanuvchilar soni 1994 yilda 3 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, 1998 yili 100 mln. kishiga etdi. Birgina Rossiya Federatsiyasi bo'yicha 2003 yilda Mobil telefondan foydalanuvchilar soni esa 2003 yil 10 mln kishini tashkil etdi<sup>20</sup>.

Ekspertlar xulosasiga ko'ra, radio orqali 50 mln. kishini qamrab olish uchun esa 13 yil kerak bo'lgan.

Talaba-yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlovchi omillardan biri ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashning shakllanganligidir. Ma'naviy-ma'rifiy ongning shakllanganligi natijasida, tashqaridan kirib kelayotgan ahloqsizlik g'oyalariga qarshi turish mumkin.

YOshlar ongiga translyasiya qilinayotgan axborot xuruji g'oyalaridan biri ahloqsizlikdir. Bu g'oya o'z ta'siri va etkazgan zarari bo'yicha ekstremizm, terrorizm, narkomaniya kabi ofatlardan qolishmaydi.

Mustaqil davlat yoshlarning ongiga g'oyaviy ta'sirlar yordamida buzish, g'arbning ta'biri bilan aytganda mustaqil davlat hayotga barcha xalqaro huquqiy norma va xalqaro hujjatlarga zid ravishda aralashishdir.

Nima uchun xalqaro huquq va normalarning buzilishiga g'arb jamoatchiligi, "Reyter", "Ey-Bi-Si", "Bi-Bi-Si" kabi axborot agentliklari siyosiy axloqsizlik agressiyasiga qarshi kurashish o'rniga kuzatuvchi va tomoshabin bo'lib turibdi.

---

<sup>20</sup> Қаранг: Глобализация: проблемы международного сотрудничества и решение общечеловеческих задач. //ФГЛУВПО "Поволжская академия государственной службы им. П.А. Столыпина", 2005 г., с. 16.

Ammo dunyoda har bir millatning, xalqning o'zi tomonidan qabul qilingan milliy g'oyasi, ma'naviy-ahloqiy normalari, madaniy rivojlanish tamoyillari bor. Buni hech kim hech bir qonun va huquqshunos inkor eta olmaydi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahondagi ilg'or mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarini olib borayotgan bugungi kunda jamiyatimizda milliy g'oyaning roli katta.

Milliy g'oya har bir kishining jamiyat, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir.

Axborot xurujlarini oldini olishda milliy g'oyaning ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- mamlakatning mustaqilligining mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarxadlar daxlsizligini ta'minlashda yordam beradi;

- qonun ustuvorligi, demokratiya va o'zini-o'zi boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallayotganiga asoslanganligi;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga tayanish;

- xalqaro huquq qoidalariga mos keladi.

U davlatning bosh islohotchi ekanligi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning hamohangligi, jamiyat xayotining barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiyligiga xizmat kilishi bilan belgilanadi.

**Tayanch tushunchalar:** Globallashuv. Globallashuvni turli-xil g'oya va mafkuralar bilan bog'liqligi. "Mafkuraviy xurujlar". Mafkuraviy xurujlarning oldini olishda milliy g'oyaning zarurligi.

**Mavzuni mustaxkamlash bo'yicha savollar.**

1. Globallashuv tushunchasining mazmuni hamda mohiyati.
2. Globallashuvning ijtimoiy, mafkuraviy hayotga ta'siri.
3. Globallashuv jarayonida O'zbekistonning tutgan yo'li.
4. Globallashuv sharoitida milliy g'oyaning ahamiyati.
5. Axborot xurujlarini oldini olish omillari.

## **13-MAVZU: MILLIY G'OYA TARG'IBOTI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIXATLARI**

**Milliy goyaning asosiy tashuvchisi - yoshlar ekanligi. YOshlarning ongiga milliy g'oya xususiyatlarini singdirish, ularni an'analarimiz, tariximiz, taraqqiyotning kafolati ruhida tarbiyalash milliy siyosatimizning asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligi.**

O'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga etishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir”.

Milliy g'oya hayotga tadbiiq etish, milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda:

1) Nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ularning imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur.

2) Mustaqillikni mustahkamlab, ma'naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jadallashtirish, yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirib, yagona maqsad yo'lida safarbar etishni taqozo etadi. Ayniqsa fuqarolarni kamol toptirishga yo'naltirilgan va tuzilgan ma'naviyat va ma'rifat Respublika Kengashi targ'ibot-tashviqot ishlarini uzluksiz olib borishni davr taqozo etmoqda.

3) Maktablar, litseyler, kollej va oliy o'quv yurtlarida bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutassaddi mutaxassislar lavozimlarini joriy etib, ular hayotini yanada faollashtirish lozim.

4) Oila, mahalla, umumiy o'rta, umumiy maxsus, kasb-hunar ta'limi, maktabdan tashqari muassasalar, oliy ta'lim tizimida bolalar, o'smirlar, talaba yoshlar ongini yuksaltirish, ularni ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qiladigan turli xil tashkilot va to'garaklar tuzish, ongni fikrlashga o'rgatish, ularning tafakkurida bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.



Demak, milliy g'oyani ommaga tushunarli tarzda etkazish, qurollantirish, shakllantirish, to'g'ri idrok qilish malakasini hosil qilish uchun quyidagi omillarga e'tibor bermoq zarur:

Oliy ta'lim maktabi bitiruvchi talabalarning milliy g'oyaga sadoqat va g'oyaviy immunitetni shakllantirish, ularning oliy o'quv yurtidan va darsdan tashqari faoliyatini tashkil etish hamda oila, mahalla muhiti va jamoatchilik o'rtasida olib boriladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini ta'minlashga ham bog'liq.

SHu nuqtai nazardan darsdan tashqari ishlar jarayonida xalqimizning boy madaniy merosi vositasida oliy maktab talabayoshlari ma'naviy madaniyati va g'oyaviy immunitetni shakllantirishning samarali andozasini yaratishda quyidagilarga asosiy negiz sifatida tayanish mumkin:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga yangicha metodologik yondashuv;

2. Falsafa, pedagogika, milliy istiqlol g'oyasi, etnografiya, tarix, etika, estetika, ruhshunoslik, uslubshunoslik fanlariga hozirgi zamon talabi jumladan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy yangilanish konsepsiyasi; uzluksiz ta'lim tizimini milliy lashtirish, insonparvarlashtirish, ta'lim-tarbiya mazmuni shakl va usullarini yangicha talablar asosida takomillashtirish va amaliy ahamiyatini kuchaytirish.

Madaniy-ma'naviy qadriyatlar asosida uyushtiriladigan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakl va usullari samaradorligi uning xarakterli xususiyatlarini aniqlab belgilab olish bilan bog'liq:

Talabanning g'oyaviy immuniteti va ma'naviy madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni, shakli va uslublari, aqliy (intelektual) va tarbiyaviy ahamiyati zanjiri samaradorligi unga rahbarlik va nazorat qilish bilan xarakterlanadi. Tarbiyaviy tadbirlarga rahbarlik va nazoratning mantiqiy-pedagogik tizimini ishlab chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

- 1) oliy o'quv yurti miqyosida darsdan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish;

- 2) tarbiyaviy tadbirlar tizimini aniqlash;

3) tarbiyaviy tadbir uchun moddiy va ma'naviy shart-sharoit yaratish;

4) tarbiyaviy tadbir natijasini nazorat qilish va umumiy rahbarlikni amalga oshirish;

5) tarbiyaviy tadbirlarning shakl, usul va vositalari haqida pedagogik jamoaga (gruppa rahbari, fan qituvchilari, kutubxona mudiri, yoshlar jamoalari va h.k.) uslubiy yordam berish;

6) ma'muriy tashkilotchilik va uslubiy vazifani yaxlit amalga oshirish;

7) tarbiyaviy tadbirlar uyushtirishda ota-onalar, jamoatchilik bilan hamkorlik o'rnatish;

8) dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbir uyushtirishda ta'lim-tarbiya birligini uyushtirishga erishish;

9) talaba-yoshlarning bo'sh vaqtlarini tashkil etishda ularni madaniyat, tarbiya va jamoa muassasalaridan keng foydalanishni uyushtirish;

10) oliy o'quv yurti va gruppa tarbiyaviy tadbirlar rejasiga mos tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, hamkorlikda uyushtirish;

11) tarbiyaviy tadbir uchun madaniy va ma'rifiy manbalar bilan o'quvchi talabalarni ta'minlash;

12) o'quvchi-talabalar savodxonligini oshirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish;

13) maktab kutubxonasini ma'naviy markaz sifatida tan olinishiga erishish;

14) o'quvchi-talabaning dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar, oilada olgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar yuzasidan bilimi, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash, to'ldirish va boyitish;

15) davr, jamiyat, o'quvchi-yoshlar talabi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishiga mos mazmun asosida o'z faoliyatini tashkil etish;

16) qadimiy an'analar asosida xalqimizning boy ma'naviy merosini o'quvchi-yoshlar kuz qatnashida gavdalantirish; onglik va faoliyat yakdilligiga erishish;

17) ma'naviy qadriyatlar mohiyatini talaba ongiga singdirish asosida milliy g'ururni shakllantirishda ko'rgazmali targ'ibot axborotining etakchiligi.

Demak, *madaniyat va madaniy - ma'rifiy muassasalar* mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy-ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Bu dargohlarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyatini har bir ijtimoiy qatlamga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo'llanma va tavsiyalar tayyorlash ayniqsa muhim.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar yoshlarni haqiqiy san'at, chinakam badiiy go'zallik ruhida tarbiyalash maskanlari bo'lmog'i lozim.

Madaniyat va san'at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, g'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot asarlarning etakchi o'rinni egallab olishga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega.

**YOshlar "mafkuraviy kurash" sohasi ob'ekti.** Millat o'z kuchini, taraqqiyoti zaminlarini avvalo yosh avlod orqali topadi va rivojlanadi. Jamiyatning eng o'zgaruvchan va harakatchan qatlamini jamoaga va jamiyatga xos qilib tarbiyalash, intellektual salohiyatini oshirish, milliy ana'analarimiz, qadriyatlarimizni asrab-avaylashning asosiy tashuvchilari yoshlar hisoblanadi. O'zbekistonda ular aholining 64% (17 mln.) tashkil qilib, juda katta strategik kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.

Milliy g'oyani aynan shu qatlam orasida targ'ib qilish, ularning ongiga singdirib, ishonch va e'tiqodga aylanib borishining bir qancha o'ziga xos jihatlari mavjud. Bu jihatlarda davlatimizning kelajakdagi taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy manbalaridan biridir.

**Birinchi**dan, milliy g'oya bir tomondan yoshlarni o'zini ob'ekti sifatida qarasa, **ikkinchi tomondan** yoshlar milliy g'oyani asosiy tashuvchilari va bir paytning o'zida keyingi avlodga etkazib beruvchilari hisoblanadilar. **Uchinchi**dan, yoshlar qanchalik

darajada milliy g'oya bilan qurollangan va uning mazmun mohiyatini anglagan bo'lsalar, bugungi kunda avj olgan "mafkuraviy kurashlar"ning oldi olingan bo'ladi. edi. Aynan yuqoridagi holatlar milliy g'oya va yoshlarni o'zaro bog'liqligini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, milliy g'oya qanchalik mazmunli, har bir kishining uzoqqa mo'ljallangan maqsad va manfaatlari, pirovardida esa, millatning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo'lsa, uni yoshlar shunchalik tez qabul qiladi va unga nisbatan ijobiy munosabati shakllanadi. Demak, targ'ibot texnologiyalari milliy g'oya orqali yoshlarda qanday g'oya va fikrlarni taklif etsa, shunga mos ravishda g'oyaviy jihatdan chiniqqan, vatanparvar, zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarga ega bo'ladi. Eng asosiy shundaki, yoshlar boshqa aholi qatlamlariga nisbatan, tashabbuskor, ishonuvchan, tez qabul qiluvchi hisoblanadilar. Jamiyatda qanday maqsadga qaratilgan bo'lmasin, turli g'oya va mafkuralarga o'zining shaxsiy nuqtai nazarini qaratadi. CHunki yoshlar fiziologik va psixologik jihatdan shakllanish bosqichida bo'lganligi uchun ularda yangiliklarga nisbatan qiziqish kuchli bo'ladi va e'tiqodga aylantirish va odatga aylantirish hissi kuchli bo'ladi. SHuningdek, yoshlar o'zlarining ijtimoiy-ruhiy va boshqa jihatlariga ko'ra salbiy hodisalarga beriluvchanlik, jamiyatdagi o'zgaruvchan sharoitga moslashish qobiliyatining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Ular jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ular o'tkir bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyot mutanosibli holatlarining kuchliroq sezadilar. Jamiyatning bunday qatlamini to'g'ri maqsadga yo'naltirish uchun avvalo ularning aniq, bunyodkor millatparvar g'oyalar asosida tarbiyalash va ta'lim berish alohida kasb etadi. Bu jarayondagi asosiy "ma'naviy tarbiya" rolini milliy g'oya bajaradi. Milliy g'oyani yoshlarni safarbar etish, ilhomlantirish, buyuk kelajak sari chorlash uchun ahamiyati, ta'lim va tarbiyada tutgan o'rni va roli hayot xaqiqatlariga, real borliqqa, xalq turmushiga qanchalik mos va muvofiqligiga qarab belgilanadi. YOshlarning ongiga milliy g'oyani singdirish, ularni shu asosda tarbiyalash, avvalo, jamiyatdagi barcha ijtimoiy va siyosiy institutlar orqali amalga oshirilishidagi jarayonda davlatning alohida o'rni va roli mavjud. YAna shuni alohida

ta'kidlash lozimki, 90-yillarda dunyoda bir biriga qarama qarshi bo'lgan ikki "qutb"ning barham topishi, xavf xatarlarni, tayziq, ayniqsa, mafkuraviy ta'sirlarning yangicha ko'rinishlarini paydo bo'lishiga olib keldi. Bu ta'sirlarning ikki asosiy jihati mavjud bo'lib, buni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ularning birinchisi, odamlar ko'proq kutgan va erishishiga moyil bo'lgan "erkin demokratiya" shiori ostida yashiringanligi bilan, ikkinchidan, davlatlarni ta'siriga olishning zamonaviy ko'rinishi hisoblangan yoshlarni turli g'oyalar ostida ergashtirish kabi keyinchalik mudhish oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan, ammo o'ta yashirin ko'rinishga ega bo'lgan bunday mafkuralarning tarqalishi bilan bog'liqdir. Aynan shunday "demokratik" deb atalgan, asl maqsadlari davlatning tuzumiga zarar etkazish bilan bog'liq bo'lgan bu turdagi xavflarni oldini olishda milliy g'oya va yoshlarning o'zaro bog'liqligi asosiy jamiyatning o'ziga xos ravishda himoyasini tashkil etib beradi. "Har qaysi davlat va har qaysi millat nafaqat erosti va erusti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyatli va ma'naviyatli yoshlari bilan kuchlidir".

Milliy g'oya targ'ibotining yosh avlod orasida amalga oshirish jarayonida bir qancha bosqichlarda amalga oshirilishi, uning oldiga qo'ygan maqsadlari bilan muvofiqligini ta'minlab beradi. Chunki, milliy g'oya bir kunda yoki bir yilda shakllanib, singdiriladigan jarayon bo'lmasdan, balki tadrijiy ravishda amalga oshiriladi.

Avvalo, milliy g'oya bu qatlam orasida bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilishi kelajakdagi uning keng tarqalishining asosiy mazmunini belgilab beradi. Chunki, yosh avlodning ma'lumotlarni qabul qilishi psixologik va fiziologik jihatlarini bilan alohida bog'liq ekanligi turli-tumanligi ularning milliy g'oyaga xos bo'lgan jihatlarni asta – sekinlik bilan o'zlashtirishlarini bildiradi. Avvalo, milliy g'oya targ'ibotini jamiyatning eng asosiy va muhim instituti hisoblanmish - oilalarda joriy qilish (ya'ni, an'analarmiz, urf odatlarimiz haqida dastlabki tasavvurlar) keyingi bosqichlar, ya'ni, maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi kabi darajalarda davom

ettirish yoshlarni milliy g'oyani to'la mazmunda, chuqur tarzda egallashlarini kafolatlaridan biridir.

**Ikkinchidan**, milliy g'oya juda keng mazmunga ega bo'lgan va albatta an'analarimiz va tariximizning barcha ko'rinishlarini o'zida mujassam etganligi, shuningdek mamlakatimizning mustaqilligini turli mafkuraviy xavflar ximoya qiluvchi vosita ekanligi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, uning targ'iboti masalasi ham yanada muhim hisoblanadi. SHu maqsadda, uning jamiyat bo'yicha ko'lamini oshirishning yagona yo'llaridan biri uni doimiy ravishda targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkillashtirishga qaratilganligidir. Uzluksizlik tamoyili milliy g'oyani xalq ongiga singdirish uchun mamlakatda muayyan mafkuraviy maydon yaratishni taqozo qiladi. Bu maydondagi har bir harakat va holat, jumladan ta'lim tizimidagi o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, sinf va auditoriyalar ko'rgazmali qurollarning milliy g'oyaga uyg'un bo'lishi muhim.

Milliy g'oyaning targ'ibotida muhim ahamiyat kasb etuvchi jihatlardan biri uni keng qamrovlilik tamoyili asosida amalga oshirishdir. Bunda jamiyatning barcha a'zolariga g'oyalar xilma-xilligi asosida mafkurani singdirish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi. Natijada jamiyatning barcha bo'g'inlari g'oyaviy ta'sir doirasida qamrab olinadi; - umumiy maqsadga yo'naltirilganlik; -faol insonni tarbiyalash va inson salohiyatini yuzaga chiqarish mafkuraning bosh maqsadi qilib olinadi.

**YOshlar bilan ishlashda milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan foydalanishning xususiyatlari.** Bugungi kunda milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirish bevosita yoshlar bilan bog'liq ekan, bu albatta ta'lim tizimi bilan aloqador holda amalga oshiriladi. Ta'lim tizimida milliy g'oya targ'iboti va umuman targ'ibot-tashviqot texnologiyalarida bir qancha usullar mavjud bo'lib, ulardan biri - **“Modelli mashg'ulot”** usuli hisoblanadi. Ushbu usul ko'p ilmiy manbalarda “keys usuli” deb ham yuritiladi. Bu usulning umumiy manzarasi quyidagicha: mashg'ulot o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ilmiy munozaraga asosida tashkil qilinadi. Bu jarayon davomida bir-birlarining (o'qituvchi va talaba) fikrlari rivojiga ikki taraf ham motivatsion

xatti-harakatlar bilan ta'sir o'tkazishadi. Bu jarayonlar, debat, munozara, fikrlar xilma-xilligi asosida amalga oshirilib, ikki taraf ham bir-birlaridan turli yangiliklarni o'zlashtiradilar va dars oxirida kerakli tavsiyalar berilgan holda xulosa qilinadi. Milliy g'oya targ'iboti davomida qanchalik turli g'oyalarga nisbatan mustaqil fikr yurita olish xususiyatini shakllantirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Targ'ibot texnologiyalari ichida yana keng tarqalgan usullardan biri—"Sinkveyn" ya'ni axborotlarni yig'ish usuli hisoblanadi. Metodni qo'llash jarayonida talabalardagi tarqoq axborotli jarayonlar asta-sekin bosqichma-bosqich yo'naltirilgan axborotli jarayonga aylantirib boriladi. YA'ni o'rganilmagan bilimlar mavzuni o'rganish davomida o'rganiladi, muayyan obektiv voqelik to'g'risida yakdil fikrga kelinadi. Odatda, sinkveyn mavzu bo'yicha biror muammoli vaziyatni echish yoki alohida o'quv elementlarini mukammallashtirishda talaba tafakkurini charxlash uchun tuziladi.

Milliy g'oya fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi va turli tayziq va fikrlarni "ideallashtirish" kabi xususiyatlardan yiroq. Va me'yoriylik holati bilan alohida ajralab turadi. Uning mazmuni aksiltarg'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishiga olib keladigan balandparvozlik, rasmiyatchilik va takrorlanishlariga yo'l qo'ymasligi bilan ajralib turadi. "Albatta, mafkurani bir kunda yoki bir yilda yaratib bo'lmaydi. Chunki mafkura shakllanadi, shakllantirib boriladi. Uning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish mumkin. Ana shu tamoyillar real hayotda o'z o'rnini topmasa, bunday mafkura va g'oya qog'ozda bo'ladi, xolos"<sup>21</sup>. Aynan milliy g'oyaning millatparvarlik va bunyodkorlik kuchi ham ana shundadir. Milliy g'oya davlat mafkurasi sifatida ham talqin etilmaydi.

Milliy g'oyani singdirish usullari, texnologiyalari, ustuvor yo'nalishlari XXI asrda insoniyat o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo'ydi. Dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonlarni o'zlashtirishning yangi usullari, jumladan yangi texnologiyalari keng rasm bo'ldi. Texnologiyalar asri deb atalayotgan XXI asrda ishlab chiqarishda

---

<sup>21</sup> Қаранг: Каримов И.А. "Жамиятимиз мафкура халқни –халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин". Т: "Ўзбекистон", 1998. -Б.45.

joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini oshirmoqda. Biroq yangi texnologiyalar faqatgina qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida balki, ma'naviy va mafkuraviy jarayonlarda ham o'z samarasini (ijobiy) va ta'sirini (salbiy) ko'rsatmoqda. Mamlkatimizning mafkuraviy jarayonlarga ham shu nuqtai nazardan yondashish milliy g'oyani targ'ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko'rsatadi. Milliy g'oyani yoshlar qalbi va ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me'yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar ham qamrab olinadi. Masalan, targ'ibotda milliy g'oya to'g'risida hadeb va noo'rin gapiraverish, me'yorni bilmaslik teskari samara berishi mumkin. Targ'ibot texnologiyasi milliy mafkura mazmun mohiyatiga mos bo'lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin. O'zbekistonda mafkuraviy jarayonlarni aholining barcha qatlamlari xususan, yosh avlod orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o'tkazilishini ta'minlash;
- milliy g'oya targ'iboti sifatini muntazam oshirib borish;
- davr talablaridan kelib chiqqan holda, targ'ibot ishlarini tashkil etishning yangi, samarali yo'llarini izlash;
- bu sohada eski targ'ibot uslublarining mutlaqlashtirilishiga, andozalashtirishga yo'l qo'ymaslik;
- g'oyaviy targ'ibot jarayonlarni tashkil etishda ijobiy muhitni hisobga olish;
- g'oyalar xilma-xilligi va maqsad mushtarakligini ta'minlash;
- g'oyaviy targ'ibot ishlarini tashkil etishda uchraydigan rasmiyatchilik va masjlisvozlik ko'rinishlariga barham berish;
- g'oyaviy targ'ibotning yoshlar orasida keng tarqalishining asosiy mezonlaridan biri hisoblangan turli munozaralar va debatlar asosiga qurish asosida uning ma'no-mohiyatini anglashga katta imkoniyat beradi;
- mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganligini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.



Milliy g'oya millatni etaklovchi kuch hisoblanadi unda davlatning an'analari, shu zamin xalqlarining urf-odatlarini, tarixi va ma'anaviyati mujassamlangan mustaqilligimizni asrashning ma'naviy-ruhiy asosi hisoblanadi. YUrtboshimiz: "SHuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalikda hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ma'naviy hayotimizning uzviy qismiga aylanib ketgan hashar odati istiqloq davrida yangicha ma'no-mazmunga ega bo'lib, umumilliy an'ana tusini olgan barchamizni mamnun etadi"<sup>22</sup>. Bu jarayon milliy g'oyaning o'z-o'zidan davlatimizning kelajagi bo'lmish yoshlar bilan qanchalik chambarchas ravishda to'ldiruvchi butunlik ekanligini isbotlaydi. Milliy g'oyaning amaliyotida qo'llanishi uning taraqqiyotini bildiradi. Bu o'rinda milliy g'oya ikki asosiy vazifani bajarib berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, shu Vatanga muhabbat ruhida, uning oldida doimo ma'suliyatni sezadigan, xalq, davlat manfaatlarini o'zinikidan ustun qo'yishga qodir bo'lgan yangi avlodni tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, milliy g'oya yosh avlodni bugungi kunda "mafkuraviy xavf"larning oldini olish va ayniqsa, hissiyotga beriluvchan, ishonuvchan yosh avlodni o'ziga xos ravishdagi himoyasining ham amaliy-nazariy manba sifatida namoyon bo'ladi. Chunki mamlakatning kelajak poydevorlarining tom ma'nodagi me'morlari bu -yoshlardir. "Barchamizga ma'lumki, har qaysi davlat, har qaysi millat avvalo o'z farzandlari qiyofasida, unib o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarini namoyon etadigan, uning azaliy orzu-intilishlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi"<sup>23</sup>-deydi YUrtboshimiz.

---

<sup>22</sup> Қаранг: Каримов И.А. "Юксак маънавият-енгилмас куч". Т: "Маънавият," 2008. – Б.96.

<sup>23</sup> Қаранг: Каримов И.А. "Асосий мақсадимиз - юртимизда эркин ва обод, фаровон ҳаёт барпо этиш йўлини қатъият билан давом эттиришдир". Т: "Ўзбекистон", 2007. –Б.34.

Mamlakatdagi ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarlardagi yangilanishlar uchun davlatning bosh islohotchi ekanligi muhim. Milliy g'oyani davlat homiyligida va nazoratida avvalo ijtimoiy institutlarda, shuningdek, maktab ta'limi bilan bog'liq ravishda targ'ib qilishga qirishildi. Buning mohiyati yosh avlodni bugun, ayniqsa globallashuv va axborotlar xuruji oshayotgan paytda aniq maqsadga qaratilgan, millatparvar sifatida tarbiyalash, har qanday g'oya va mafkuralarga "ongsizlarcha" taqlidiy ergashish dardidan xalos qilishdagi asosiy rolni bajarishi bilan belgilanadi.

**Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari yoshlarni mustaqil fikrlash, ijodiy faolligini shakllanishi omili.** YOshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish va yo'naltirish uchun birinchi navbatda, ularda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish kerak:

1. Axborotni qabul qilish va tahliliy fikrlash. Har qanday jarayonda qatnashuvchi shaxs analitik fikrlashga ega bo'lishi kerak. Voqea-hodisa haqida etarlicha ma'lumotga ega bo'lishi, jarayonning borishini tahlil qilish hamda natijaviy ko'rinishini aniq tasavvur qila olishi kerak. Bundan tashqari, tahlillarga tayangan tarzda ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlay olishi hamda differensiyalashi lozim.

2. SHaxslararo munosabatlarni tashkil qilish malakalari. SHaxs uchun eng muhim holatlardan biri - kommunikativlikdir. CHunki shaxslararo munosabatda-shaxsning kirishimligi, bermalol aloqa o'rnata olishi muhim ahamiyatga egadir.

3. Motivatsiya, tashabbus va faoliyatni tashkil eta bilish. Ijtimoiy jamoada shaxs doimo tashabbus ko'rsatish va bunga yarasha intilishga ega bo'lishi kerak. Buning uchun shaxs etarli bilimga ega bo'lishi bilan birga, o'z taktika va strategiyasini tashkil eta olishi kerak.

4. Nutqning rivojlanganligi. SHaxsda ijtimoiy aloqalarni yaxshi tashkil eta olishi uchun nutq har tomonlama rivojlangan bo'lishi kerak. Ayniqsa "og'zaki" yoki "gaplashuv", "yozma" nutqni boyitish ustida tinimsiz ishlash kerak.

5. Mustaqil fikrlash. Jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish uchun shaxsdan mustaqil fikrlash kuchli talab etiladi. Bundan tashqari

mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega shaxslar doimo ijtimoiy guruhda o'ziga xos mavqeiga ega bo'lishadi.

6. Mustaqil qaror qabul qilish. SHaxsdan har qanday jarayonda birinchi navbatda, mustaqil fikr yuritish talab etiladi.

7. Ma'suliyatni o'z zimmasiga olish. SHaxsda ma'suliyatni o'z zimmasiga olish shakllangan bo'lishi kerak. Hozir paytda shaxsning siyosiy faolligini boshqarish XXI asrdagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, bu esa siyosiy jarayonlarda inson omilining oshishi bilan izohlanadi. Insonda liderlikka erishish, muvaffaqiyatga intilish, o'z atrofida gilarga tan oldirish kabi shaxsiy sifatlar siyosiy jarayonlarning borishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiydir.

Globalizatsiyaning salviy ta'sirlari davlatning milliy statusini xavf ostiga qo'yimoqda, qadriyatlar va an'anaviy madaniyatlarni buzmoqda, hatto oila hayotiga, insonning shaxsiy hayotiga ham kirib kelmoqda.

YOshlarda axborot xavfsizligini ta'minlovchi omillarga quyidagilar kiradi:

– Ta'lim va tarbiyaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi;

– Mehnat bozorini kadrlar bilan ta'minlashdagi davlat siyosati;

– Davlat boshqaruvida yoshlar ishtirokini keng ta'minlanishi;

– Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati yoshlar muammosini bartaraf etishga qaratilganligini kiritish mumkin.

YOshlarga tegishli muammolarni bosqichma-bosqich hal etilishi, mehnatni taqsimlash mahsulot ishlab chiqarish, mehnat bozorini engillashtirish muammolarining birin-ketin bartaraf etish natijasida yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligi oshmoqda.

Globalashuv sharoitida axborot xurujiga qarshi kurashishda, uni bartaraf etishda ta'lim-tarbiya jarayonining omil sifatida o'rni beqiyos bo'lib, asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi:

– yoshlarning onggi, tafakkuri, dunyoqarashi shakllanadi hamda shaxsi voyaga etkaziladi;

– yoshlarga Vatan tuyg‘usi, mehr-oqibat, tarixiy xotira, ma‘naviyat va ma‘rifat singdiriladi;

– yoshlarda xavf-xatarga qarshi kurashish sezgilari va ko‘nikmalari shakllantiriladi.

YOsh avlodning tarbiyasi, ularning ma‘naviy salohiyatini yanada oshirish bugun davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda, mustaqilligimizning asrovchi ma‘naviy dastur vazifasini bajaruvchi milliy g‘oyani bilish, uning targ‘ibotida barchaning ma‘nulligini ta‘minlash-davrning ustuvor maqsadlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston jamiyati manfaatlarini o‘zida mujassam etgan milliy g‘oyani ta‘sir doirasini aynan yoshlar orasida oshirishning asosiy omillaridan biri. SHuning uchun ham yoshlar mustaqil fikrga ega bo‘lishlari muhim. SHunda ular, fikrni-fikrdan, g‘oyani-g‘oyadan farqlay oladilar. Ma‘rifatni jaholatdan tubdan farq qilishni anglab etadilar. Ayrim nosog‘lom fikr, g‘oya orqasidan ergashmaydilar, uning ta‘siriga tushmaydilar. Buning uchun yana:

1) Milliy-madaniy meroslarning farqini, uni inson hayotidagi ahamiyatini chuqur bilishi kerak;

2) Tarixiy merosni yaxshi bilishlari, uni qadrlashlari muhim;

3) Ona tilini hurmat qilishlari;

4) Urf-odat, an‘analarini qadrlashlari;

5) O‘zligini anglashi;

6) Milliy qadriyatlarning ijtimoiy, ma‘naviy-axloqiy ahamiyatini to‘g‘ri baholashlari;

7) Umumbashariy tamoyillarga sodiq bo‘lishlari, ilm-fan yutuqlarini chuqur egallashlariga xohish-istaklari yuqori bo‘lishi, shuni o‘zlarining hayotiy amaliga aylantirishlari va amal qilishlari O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyotida ustuvor ahamiyatga ega.

**Tayanch tushunchalar:** YOshlar va milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari, mafkuraviy ta‘sirlar, ma‘naviy tarbiya, milliy g‘oyani singdirish texnologiyalarida yoshlarning o‘ziga xos xususiyatlari. YOshlarga milliy g‘oya talabalari.

**Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha savollar.**

1.YOshlarda milliy g‘oya targ‘ibotidan foydalanishni o‘ziga xos jihatlarini.

2. Milliy g'oya targ'iboti yoshlarni mafkuraviy ta'sirlaridan va xurujdan himoyalash omili.

3. Milliy g'oya targ'iboti va yoshlarni o'zaro bog'liqligi.

4. Milliy g'oya va yoshlarga qo'yiladigan talablarni mustaqil taraqqiyot bilan bog'liqligi.

## **14-MAVZU:MAHALLA INDIVIDGA G'OYAVIY TA'SIR KO'RSATISH IJTIMOIIY INSTITUTI SIFATIDA VA MUHIT MONITORINGINI OLIB BORISH.**

Oila – ko'z ochib ko'rgan dargoh bo'lsa, mahalla vatan ichidagi vatandir. Zotan, mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topganlari kabi oila ham mahalla ichida ravnaq topadi, nurli kelajak sari intiladi. SHunday mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tog'day tayanchidir. Xursandchilik kunlari ham, boshiga ish tushgan onlarda ham bir-biriga hamdard va hamnafas bo'lish xalqimizning muxim xususiyati hisoblanadi. Mahalla esa insonlar o'rtasidagi bunday birlik va hamjihatlikni muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mahalla shunday muqaddas dargohki, unda insonlar bir-biri bilan opa-singil, aka-uka, quda-anda, do'st-birodar, quvonchu g'amlariga sherik, farzand tarbiyasida aqli ma'sul. SHuning uchun am xalqimizda "Otang-mahalla, onang-mahalla" degan naql bejiz aytilmagan. YUrtboshimiz Islom Karimovning mahalla xaqidagi fikrlari, ayniqsa diqqatga sazovor. Ma'lumki, asrlar mobaynida mahallalarda ko'pdan-ko'p hayotiy muammolar o'z echimini topib keladi. To'y-ma'arakalar ham, hayitu hasharlar xam mahalla ahlisiz o'tmaydi. Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, xayotning o'zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashni taqazo etmoqda. Mamlakatimizda ko'p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi lozim.

Mahalla katta mamlakatning ichidagi “kichik bir mamlakat”, “katta davlat ichra kichik davlat”dir. SHuning uchun uni boshqaruv tizimi bo‘lgani kabi, uning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy faoliyati mexanizm xam asrlar davomida shakllangan. Mahallaning tartib qoidasi, qadriyatlariga barcha amal qilishi shart. Kimda-kim bularga rioya etmasa, ularni hurmat qilmasa, u mahallada o‘tadigan tadbirlarga, to‘y-ma‘rakalardan chetlatiladi, taklif etilmaydi. Agarda kibru-havo bilan qo‘ni-qo‘shni, mahalla ahli an‘analarini oyoq osti qilsa yoki bepisandlik bilan munosabatda bo‘lsa, amaldagi qonunlarga xilof ravishda ish tutsa, u mahalladan chiqarib yuboriladi.

Hududda o‘sayotgan har bir yigit-qizning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli ma’sul. CHunki “Bir bolaga etti mahalla ota-ona” degan naql shundan. YOshlarning har bir hatti-harakati barchaning diqqat markazida bo‘ladi. Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi barkamol insonni tarbiyalab etishtirish negizi hisoblanadi. Xulq-odobi yaxshi, har tomonlama namunali farzand mahallaning obro’si, noqobil, axloqan noqobil farzand esa mahalla uchun qora dog‘ hisoblanadi. Mahalladan yurtga, dunyoga taniqli insonlar etishib chiqsa, butun mahalla ahli, ularning avlod-ajdodlari g‘ururlanadilar.

Mahalla erkin fikrlilik asosida rivojlanadi. Har bir fuqaro u erda o‘tkaziladigan tadbirlar, tashkiliy tarbiyaviy ishlar yuzasidan fuqaro o‘z nuqtai nazari, qarashlari, taklif va tavsiyalarini ochiq bildirish huquqiga ega. Erkin fikr mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning ma’naviy poydevorini tashkil etadi.

Mahalla ahlining ma’naviy-axloqiy tarbiya yoshida bir-birlariga maslahat berishlari ham har jihatdan foydalidir. SHuningdek, to‘y marosimlarida yoshlarni el xizmatiga jalb etish nihoyatda muhim bo‘lib, bu ishlarni bajarish davomida ularga nimaga e’tibor berish, qanday muomala-munosabatda bo‘lish kerakligi o‘rgatiladi. Bunday mahallada tarbiyalanayotgan yoshlar, birinchidan, menatsevarlik, mehmon kutish, kuzatish odobini, ikkinchidan, xushmomilalik odobini, uchinchidan, jamoatga hurmat odobini egallaydilar.

Mahallada ommaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, sport, tashkiliy tadbirlar o'tkazib turilishi lozim. Masalan, mahallada "Balli qizlar", "YOshlar mustaqil hayot ostonasida", "huquqingizni bilasizmi?", "Oila mustahkamligi kimga bog'liq?", "Oila - jamiyat tayanchi", "Qaynona-kelin munosabatlarining axloqiy-ma'naviy asoslari" kabi mavzularda uchrashuvlar, suhbatlar, "Namunali oila", "Namunali kelin", "Eng yaxshi mahalla", "Eng ozoda ko'cha ko'rik tanlovlari, turli sport musobaqalarini o'tkazish odat tusiga kirishi kerak.

O'zini-o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihatlar, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi. Mahalla - avvalo sog'lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu erda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. SHu ma'noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb ham atash mumkin.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o'rni beqiyos.

Mahallada kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalar, yolg'iz keksalar, nogironlar, etim-esirlar, boquvchisini yo'qotgan oilalarni ijtimoiy muxofaza qilish, shuningdek, Xotin-qizlarning manfaatlarini himoya etish, ularning davlat va jamiyatdagi faolligini oshirish, oilada ma'naviy-aloqiy muhitni shakllantirish, turar joyida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, madaniy turmush sharoitini yaxshilash, barkamol insonni shakllantirishda mahallaning mavqeini ko'tarish borasida muhim ishlar amalga oshiriladi. Mahalla - ma'naviy-aloqiy qadriyatlar, an'analar maskani. CHunki qadimda bayramlar, hayit kunlari, to'y-tantanalarda qo'ni-qo'shnilar, yolg'iz keksalarni sovg'a-salomlar bilan yo'qlash an'anaga aylangan. Hashar yo'li bilan qarindosh-urug'larga, qo'ni-qo'shnilariga uy-joy binolari bunyod etish, etishtirilgan deqonchilik maxsulotlarini yig'ib-terib olish va

ulardan qo'ni-qo'shnilarga ulashish, ko'chalar, hovlilar, mahalla hududini, qabristonlar va atrof hududni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va ozoda saqlash, sport maydonchalarini barpo etish, yo'llar, ko'priklar qurish va ularni ta'mirlash, madaniy yodgorliklarni avaylab-asrash mahallada yashayotgan har bir fuqaroning burchi isoblanadi. Mahalla hududida jamoat tartibini ta'minlash, yoshlar va o'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olish, voyaga etmaganlarning huquqlarini muxofaza qilish, yoshlarni harbiy xizmatni o'tashga jismonan va ma'naviy jihatdan tayyorlash-rahbarligida bajariladigan vazifa hisoblanadi. Mahalla sharqona an'analari, urf-odatlar va udumlarini jamoa asosida amalga oshiruvchi avloddan-avlodga etkazuvchi madaniyat o'chog'idir.

Mahalla faollari an'anaviy, oilaviy tuyg'ular, bayramlar (Mustaqillik, Navro'z, Mehrijon ayyomlari, Xotira va qadrlash kuni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, Ramazon va qurbon hayitlarini, tavallud sanalarini nishonlash va boshqalar), motam marosimlarini o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy ishlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'ladi. Ularni isrofgarchiliksiz, ortiqcha xarajatlarsiz, ixcham o'tkazish, mahalla oqsoqoli va maxsus mutasaddi komissiyalarga bog'liq. Mahallada o'tayotgan har bir tantana yoki marosim uchun mahalla ahlining katta-yu kichigi birday ma'sul. Bunday tadbirlarda ijtimoiy mavqedan qat'iy nazar, har bir fuqaroga hurmat-ehtirom ko'rsatiladi. Chunki mahallaning barcha a'zosi yagona, mustahkam bitta oila hisoblanadi.

Mahalla yoshlarni kasb-hunarga yo'lovchi, ishsizlarni mehnat bilan ta'minlovchi ham. Har bir oilaning o'z kasb sulolasi bo'lganidek, mahallaning ham uzoq tarixga ega kasb-hunar sulolalari mavjud. Aslida mahallaning o'zi ham aynan shu hunarga nisbatan nomlanadi. Masalan, zardo'zlar mahallasi, etikdo'zlar mahallasi, duradgorlar mahallasi, temirchilik, beshiksozlik, ganchkorlik, sandiqsozlik va okazo kasb-unar turlari bo'yicha kichik korxonalar, to'garaklar tashkil etilgan. Bunday korxonalarining tashkil etilishidan, avvalo mahalla ahli manfaatdor, uning ma'lum qismi ish bilan ta'minlanadi. Yoshlar kasb-hunar sirlarini egallab, menatsevarlik ruhida



tarbiyalanishadi, natijada ularning bo'sh vaqti umumiy tashkil etilib, turli noaxloqiy hatti-harakatlar (jinoyatchilik, ichkilikbozlik, kashandalik, giyovandlik va hokazo) oldi olinadi. Mahallaning iqtisodiy barqarorligi ta'minlanadi. Olingan ortiqcha daromad hisobiga mahalladagi kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalar, etim-esirlar, yolg'iz keksalar, bemorlar, ijtimoiy muxofaza qilinadi, obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Ayni paytda mahalla ko'pchilik uchun ma'naviy muhit isoblanadi. Chunki, bu erda ibratli voqealar ham, ogohlantiruvchi voqealar ham sodir bo'ladi. Agar mahallada ma'naviy muhit yomon bo'lsa, u erda turli bezorilar, jinoyatchilar, noqonuniy ishlar bilan shug'ullanuvchilar ko'payadi. Agar ma'naviy muhit yaxshi bo'lsa, buning teskarisi bo'ladi. Ya'ni ilmi, iymonli, mehnatkash insonlar ko'payadi. Shu sababli ma'naviy muhit shaxsni ham, butun avlodni ham muayyan yo'nalishda shakllantiradi, tarbiyalaydi, ijobiy xislatlarni yuzaga chiqaradi. Ularni nomaqbul ta'sirlardan himoya qiladi. Ma'naviy muhit xar qanday yutuq va kashfiyotlarning (chetdan qabul qilingan yangi qadriyatlar ham) taqdirini belgilaydi: yo rivojlantiradi, yo unitilishiga mahkum etadi yoki deformatsiya qilib, o'ziga moslashtiradi.

Aholi zich joylashgan hudud, mahallalar, ta'lim-tarbiya muassasalarida e'tibor bilan ishlar tashkil etilsa, to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, odamlar bir-biridan ta'sirlanib, sog'lom, yangi fikrlarni qabul qilaveradi.

Jamiyatimiz demokratik qadriyatlari mahalla va mehnat jamoalarida o'z ifodasini topadi. Mahalla va mehnat jamoalaridagi ma'lumotlarning ko'pligi yoshlarda yoki aholida noto'g'ri axborotga egalikni keltirib chiqaradi. SHuning uchun mahallada har haftada bir marta "Ijtimoiy o'qishlar" tashkil qilish maqsadga muvofiq. SHu bilan birga muhit monitoringini ham qilib borish lozim. Bu mahalla instituti faoliyatini yanada takomillashtirish, ba'zi oilalardagi ma'naviy muhit, farzandlar tarbiyasida ko'zga tashlanayotgan ayrim nohush holatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Mafkuralar kurashining jahonshumul jarayonini o'rganish, uning monitoringi, bu kurashning umumbashariy va mintaqaviy muammolarini aniqlashga asosiy e'tiborni qaratish zarur.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish uchun Milliy dasturning monitoringi va bajarilishini ekspertiza qilish asosida uning ayrim qoidalari va tadbirlariga tuzatishlar kiritilishi ko'zda tutilgan.

*Mafkuraviy monitoring:* - Monitoring - inglizcha so'z bo'lib tekshirib turish, nazorat ma'nosini bildiradi. Demak, *mafkuraviy monitoring* - bu insonning g'oyaviy, mafkuraviy, xususan milliy mafkuraviy faoliyati orqali jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ya'ni g'oyaviy holatini kuzatish, baholash va oldindan aytib berish - prognoz-lashdir.

Milliy istiqloq g'oya va milliy mafkura milliy va umuminsoniy g'oyalarning yaxlit tizimi sifatida xalqimizni g'oyaviy jihatdan mushtarak maqsad yo'lida birlashtiruvchi kuch bo'lib quyidagi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Demak, mafkuraviy monitoring tufayli:

1.O'zligimizni anglash, milliy, diniy, ma'naviy qadriyatlarimizni joyiga qo'yib, ularni yangi sifat bosqichiga ko'tarib, ta'sirchanligini oshiradi.

2.Milliy maqsadlarimizni hozirgi zamon umumbashariy talablar bilan uyg'unlashtiradi.

3.Islom dini iymon, e'tiqod, axloq va ma'rifat aqidasi ekanligidan kelib chiqib, «Ollah qalbimizda, yuragimizda» tamoyiliga safarbar etadi.

4.Milliy g'oya va e'tiqodimiz dushmanlariga qarshi mafkuraviy kurashish, fuqaroda Vatan tuyg'usi - "Men O'zbekistonlikman" degan iftixor tushunchasini shakllantiradi.

5.Jismoniy sog'lom, zamonaviy tafakkurga ega bo'lgan avlodni tarbiyalaydi. 7.Milliy qadriyatlarimizni, urf-odat, an'analarimiz mohiyatini oshirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik va siyosiy-g'oyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Mafkuraviy monitoring asosida milliy istiqloq g'oyasining shakllanishini nazorat, kuzatish natijasida milliy mafkuramiz quyidagi omil-larga bog'liqligi ma'lum bo'ladi:

1. Aholi munosabatlarining tig'izligi va dinamikasiga, ya'ni aholi zich joylashgan joylarda bunga katta e'tibor zarurligi ayon bo'lmoqda.

2. Odatlarning shakllanishining muddati va bartaraf etish vositalariga bog'liq bo'lishi kuzatilmoqda. Masalan, vahhobiylik yoki hizbut-tahrir-likka moyil odamlar to'plangan joylardagilarning odat, ko'nikmalarini bilish zarur bo'ladi.

3. Yangi odatlarning odamlar hayot sharoitlari va turmush darajasiga mosligiga bog'liqligi sezilmoqda.

4. Yangi g'oyalarning odamlar tabiati va ruhiyatiga mosligiga bog'liq bo'layotganligi bilinadi.

### **Aksiltarg'ibot "g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish" tamoyili sifatida**

Bugungi kunda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarini haqiqiy "to'rtinchi hokimiyat"ga aylantirish muammosi o'ta dolzarb bo'lib turmoqda. Ularni mustaqil ijtimoiy kuchga, siyosiy tizimning to'laqonli bo'g'iniga va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ta'sirchan vositaga aylantirish vazifasi shuni talab etmoqda. Ommaviy axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan, jurnalistlarni tayyorlash masalasiga davlat darajasida e'tibor berilmoqda, jurnalist-kadrlarni o'zimizda tayyorlash bilan qanoatlanmay, bu soha mutaxassislarining xorijda ta'lim olishlaridan mablag' ayalmayotir.

Etuk demokratik davlatlarda OAVlar jamiyatning "ko'zlari", "quloqlari" vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil ko'tarib chiqib, ularning turli echimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatining *plyuralizm tamoyili* asosiga qurilishi demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlol g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat - axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq. Ommaviy

axborot vositalarining ta'sir kuchini ko'rsatadigan shunday bir gap bor: "Har qanday puch g'oya, uydirma haftasiga uch martadan to'rt yil davomida takrorlansa – "haqiqat" tayyor bo'ladi, odamlar unga chippa-chin ishonadilar".

Oxirgi paytlarda informatsion xurujlarning tez-tez uyushtirilayot-gani aslida urushga munosabatning o'zgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol - axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi.

Aslida, axborot maqsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Haqiqatan ham, informatsion hurujlar uyushtirish uchun u qadar ko'p mehnat, u qadar ko'p harakat, u qadar ko'p xarajat talab etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy ekspansiya otishmalar va qon to'kishlarni keltirib chiqarmasa-da, milliy o'zlikni anglashni zaiflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, bunday informatsion qo'po-ruvchilikdan maqsad - mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilishdan iborat. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidagi ba'zi fikrlar ham bugungi xurujlarning maqsadini oydinlashtiradi.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher: "Ommaviy axborot vositalari - terrorchilar uchun kislorod vazifasini o'taydi", degan. Bu gapning mag'zini chaqqan odam "ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan", degan xulosaga keladi.

Demak, ularning maqsadlari - o'ldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi ommaviy axborot vositalari o'zlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik, ko'poruvchilik ta'sirini yanada oshirishga "xizmat" qilib qo'yadilar. Ularning terror oqibatlarini haqidagi vahimali axborotlari insonlardagi qo'rquvni, dahshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi *aksiltarg'ibotni* uyushtirish zarurati tug'iladi.

*Aksiltarg'ibot* "g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish" tamoyiliga mos ravishda olib borilishi kerak. Bunda davlatimiz siyosatiga qarshi kuchlarning g'oyaviy hujumlarini qaytarish talab etiladi. Xususan:

1) xorijiy xurnalistlarning hukumat siyosatini buzib talqin qiluv-chi chiqishlariga;

2) diniy aqidaparastlarning tanlagan yo'limizga qarshi mafkuraviy qo'poruvchilik harakatlariga;

3) rivojlangan davlatlarning o'z mafkurasi hukmronligini o'rnatish yo'lidagi urinishlariga;

4) axborot xilma-xilligi sharoitidagi informatsion tajovuzlarga;

5) odamlar ongida saqlanib qolgan kommunistik mafkuraning asorat-lariga qarshi faol kurashish zarur.

*Aksiltarg'ibot*ni tashkil etishda tezkorlik, qat'iyatlilik, hujumkorlik, murosasizlik talab qilinadi. Bu borada tayyorlangan materiallar dalillar bilan isbotlangan, haqqoniy, ommabop va barcha uchun tushunarli bo'lishi shart.

*Aksiltarg'ibot* salbiy ta'sirning oldini oluvchi va fosh etuvchi shakllarda amalga oshiriladi. Oldini oluvchi yo'nalish asosan tarbiyaviy xarakterga ega bo'ladi. Bunda:

1) fuqarolarning pozitsiyalarini shakllantirishda g'oyaviy raqiblar-dan o'zib ketish;

2) insonlarni begona g'oyalarning noto'g'riligini fosh etishga va ularning dalillarini rad etishga o'rgatish;

3) pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga nisbatan xushyor-likni oshirish;

4) yot mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

*Aksiltarg'ibotning fosh etuvchi yo'nalishida:*

1) g'oyaviy dushmanlar tomonidan e'lon qilingan fikrlar va baho-larni rad etish;

2) "mafkuraviy urush" olib borayotgan taraf tashviqotining mohiya-tini ochib berish;

3) mafkuraviy tazyiq ko'rsatuvchi guruh etakchilarini obro'sizlan-tirish;

4) raqiblarning ruhini susaytirish orqali ularning harakatlarini kuchsizlantirish asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

Aksiltarg'ibotning har ikkala ko'rinishi o'zaro bog'liqlikda olib boriladi. Insonning ongi va qalbi uchun shiddatli kurash ketayotgan hozirgi paytda aksiltarg'ibot bilan maxsus shug'ullanish zarurligi, shak-shubhasizdir. SHu boisdan ham Prezidentimiz Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida bu masalaga alohida etibor bergan edi. "Xalqimiz ommaviy axborot vositalaridan mamlakatimiz va xorijda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida xolis va tezkor axborotlar olishni, shu bilan birga, birinchi navbatda, hokimiyat organlari va boshqaruv tuzulmalari faoliyati haqidagi tanqidiy fikrlarni, islohotlar va yangilanishlar yo'lidagi ilgari borishimizga to'siq bo'lib turgan nuqsonlar, hayotdagi dolzarb muammolar hususida oshkora, professional tahliliy materiallarni kutadi".

### **Tayanch so'z va iboralar**

*Milliy o'zlikni anglash* - o'z tarixini bilish. *Millat* - arabcha xalq. *Sinkretik* - turlicha g'oyalarning bir butunlikda joylashuvi. *Sinergetik* - o'z-o'zini takomillashtiruvchi, keng, ko'p o'lchovli va ochiq tizimli. *"Zombi"* - xotirasidan yiroqlashtirish. *"Sadizm"* - jinsiy buzuvchi, azob berib huzurlanish. *Kuch* - bilim va tafakkurda. *Tarix* - xalq ma'naviyatining asosi. *Mafkuraviy tarbiya* - insonni g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirish jarayoni. *"Akborotlashgan jamiyat"* - dunyodagi "to'rtinchi hokimiyat" bo'lib, telekanallar va turli axborotlar tizimini o'z ichiga oluvchi tushuncha.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun test**

#### **1. Milliy g'oyani amalga oshiruvchi sub'ktlar qaysi?**

- A) oila, mahalla, jamiyat, OAV, armiya, demokratik harakatlar
- B) OAV, armiya, mahalla, jamiyat,
- V) demokratik harakatlar, armiya, oila,
- G) armiya, jamiyat, OAV,

**2. Fuqarolik jamiyatining ma'naviy-axloqiy rivojlanish asoslari nima?**

- A) ma'naviyat va ma'rifat
- B) madaniyat
- V) a va b javoblar
- G) to'g'ri javob yo'q

**3. Fuqarolik jamiyatining ma'naviy-axloqiy rivojlanishi negizlari qaysi?**

- A) milliy va ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik
- B) umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqning ma'naviy merosini mustahkamlash
- V) insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish, vatanparvarlik
- G) barcha javoblar to'g'ri.

**4. Fuqarolik jamiyatining ma'naviy-axloqiy rivojlanishi omillari qaysi?**

- A) oila, aholi sihat-salomatligi
- B) a va b javoblar
- V) fuqarolik ma'naviy salohiyati, ziyoli qadriyat
- G) partiyaviylik

**5. Xalqimiz manfaatlarini qanday g'oyalarda ifodalaydi?**

- A) ijtimoiy-siyosiy barqarorlik g'oyasida
- B) taraqqiyot g'oyasida
- V) to'g'ri javob yo'q
- G) a va b javoblar

**6. Milliy g'oya-taraqqiyot konsepsiyasining qanday yo'nalishlari mavjud?**

- A) ma'naviy, iqtisodiy, huquqiy
- B) siyosiy sotsial, ilmiy-texnologik
- V) xalqaro nufuzi, dunyoda o'ziga xos o'ringa ega bo'lish
- G) barcha javoblar to'g'ri.

**7. Milliy g'oyaning qanday funksiyalari mavjud?**

- A) bilim, tarbiya, regulativ, kommunikativ, normativ, qadriyatli, safarbar etish, yo'naltirish, himoya, g'oyaviy bandlik.
- B) bilim, tarbiya, g'oyaviy bandlik, himoya,
- V) normativ, qadriyatli, safarbar etish,
- G) kommunikativ, regulativ,

### **8. Milliy mafkuraga qanday talablar qo'yiladi?**

A) millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch hamda e'tirof manbai bo'lish

B) har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirish va har qanday yot g'oyaga qarshi tura olish

V) davr o'zgarishlariga mos tarzda, milliy umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, o'z manfaat va maqsadlarini amalga oshirishning yangi vositalarini tavsiya eta olish.

G) barcha javoblar to'g'ri

### **9. YOt g'oyalarning tashkiliy asoslari qaysi?**

A) diniy ekstremizm va xalqaro terorizm

B) narkobiznes, noqonuniy qurol-yaroq savdosi, aqidaparastlik

V) jarlikni targ'ib etish, soxta diniy aqidalar

G) barcha javoblar to'g'ri.

### **10. Zarfli g'oyalar oldini olishning qanday yo'llari mavjud?**

A) tarbiya berish, e'tiqodni mustahkamlash, iftixor bilan yashash

B) komil shaxs tarbiyasi, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish

V) barcha javoblar to'g'ri

G) fuqarolar ongini milliy g'oyalarning shakllanishi

### **11. Milliy g'oyaga zid salbiy holatlar qaysi?**

A) befarqlik, maqtanchoqlik, hasadgo'ylik.

B) manmanlik, hushomadgo'ylik, haqiqatni mensimaslik.

V) tanish-bilishchilik, mahalliychilik, mansabparastlik

G) barcha javoblar to'g'ri



## UMUMIY O'Z O'ZINI SINASH UCHUN TEST SAVOLLARI

### 1. Milliy qadriyatlar deganda nima tushuniladi?

\*millat xususiyatlari bilan bog'liq qadriyatlar shakli  
ijtimoiy guruh xususiyatlari bilan bog'liq qadriyatlar shakli  
bashar xususiyatlari bilan bog'liq qadriyatlar shakli iqtisodiy  
imkoniyatlari

millatning yashash tarzi

### 2. G'oyaning ijtimoiy xarakteri nimadan iborat?

\*insonni va jamiyatni ma'lum maqsad sari etaklaydi  
odamlarni iymon-e'tiqodga,rahm-shafqatga o'rgatadi  
fuqarolarga baxt-saodat ato etadi

jamiyatni isloh etadi

3. "Insonlik mohiyati haqiqiy baxt-saodatga erishuv ekan, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt-saodatga erishadi" degan fikrni kimga taalluqli ekanligini aniqlang?

\*Abu Nasr Farobiy

AmirTemur

Ibn Sino

Abu Rayhon Beruniy

### 4. G'oyalarning qanday turlari mavjud?

\*idealistik, materialistik, metafizik

ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, mil-liy,  
umuminsoniy

romantik, realistik, modernistik

urush va tinchlik, ezgulik va yovuzlik

### 5. Davlat mafkurasi deganda nimani tushuniladi?

\*muayyan davlatda amal qiladigan, rasman belgilangan  
g'oyaviy-mafkuraviy qarashlar va tamoyillar tizimi

muayyan davlatda amal qiladigan, rasman belgilangan  
huquqiy normalar va tamoyillar tizimi

muayyan guruhda amal qiladigan, rasman belgilangan  
g'oyaviy-nazariy qarashlar va tamoyillar tizimi

muayyan davlatda amal qiladigan, rasman belgilangan axloqiy  
qarashlar va tamoyillar tizimi

6. “Bugungi kunda yadro maydonlarida emas, balki mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi”, degan fikr Prezidentimizning qaysi asarida bayon qilingan?

\*“O‘zbekiston XX1 asr bo‘ sag‘asid ..”

“Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin”

“Hushyorlikka da‘vat”

“Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e‘tiqodi va buyuk kelajakka ishochdir”

**7. Hozirgi dunyodagi g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning progressiv yo‘nalishlarini ko‘rsating**

\*tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot, millatlararo totuvlik, inson erkinligi va shaxs kamoloti, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi

diniy bag‘rikenglik, inson erkinligi va shaxs kamoloti, irqchilik, millatchilik, diniy aqidaparastlik

egoizm, mahalliychilik, tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot

mustamlaka qilingan mamlakatning urf-odatlar va an‘analari

**8. Muayyan g‘oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo‘lishi mumkinmi?**

\*mumkin

mumkin emas

bunday qarab bo‘lmaydi

shaxsga bog‘liq emas

**9. Mafkuraning falsafiy ildizi nima?**

\*falsafa fani

dunyoqarash

tafakkur tarzi

haqiqatni bilish

**10. Milliy g‘oyada fikrlar va qarashlar rang-barangligi nima?**

\*tamoyili

asosi

Tayanchi

Qonuni

**11. Hozirgi davrda mafkuraviy jarayonlarga xos jihatni aniqlang?**

\*globallashuv

yagona g‘oyaga intilish

axborot maydonining kengayishi

turli xil mafkuralar o‘rtasidagi kurashning yangi ko‘rinishlarda namoyon bo‘layotganligi

**12. Millatlararo totuvlik g‘oyasi qanday qadriyat?**

\*umumbashariy

baynalmilal

mintaqaviy, hududiy

milliy

**13. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini kim yozgan ?**

\*Avloniy

Z.Bobur

Qodiriy

Behbudiy

**14. “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halovat, yo saodat-yo falokat masalasidir” degan fikr kimga tegishli va uning milliy g’oyadagi o’rnini aniqlang?**

\*Avloniy fikri, milliy g’oyani shakllanishi va qaror toptirishda, hayotiylikini ta’minlashda hal etuvchi ahamiyatga ega

Fitratning fikri, milliy g’oyani shakllanishi va qaror toptirishda, hayotiylikini ta’minlashda hal etuvchi ahamiyatga ega

Navoiy fikri, milliy g’oyada hal etuvchi ahamiyatga ega

Naqshband fikri, milliy g’oyada hisobga olish zarur

**15. YOt va zararli g’oyalarga qarshi kurashning samarali vositasi nima?**

\*fuqarolarda mafkuraviy immunitetni mutahkamlash va fuqarolarda mafkuraviy ishonch-e’tiqodni shakllantirish

fuqarolarda yagona mafkurani shakllantirish

fuqarolarda mafkuraviy immunitetni mutahkamlash

fuqarolarda mafkuraviy ishonch-e’tiqodni shakllantirish

**17. Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o’sishi milliy g’oya sohasidagi vazifalarning to’liq amalga oshganligini bildiradimi?**

\*albatta, bildiradi

asosiy maqsadga shunda erishilgan bo’ladi

milliy istiqloq sohasidagi vazifalar to’liq amalga oshgan hisoblanadi

to’liq amalga oshganligini bildirmaydi

**18. Siyosiy partiyalar faoliyatining mushtarakligini qanday g’oya ta’minlaydi?**

\*milliy g’oya

bag’rikenglik

Vatanparvarlik

xalq farovonligi

